

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI**

**Inog‘omov Baxtiyor Ismoilovich**

**ARXITEKTURAVIY LOYIHALASHNING IJTIMOIIY  
ASOSLARI  
o‘quv qo‘llanma**

Mutaxassislik 5A 340101 “Bino va inshootlar arxitekturasi”

**Toshkent – 2015**

**UDK № 728.1.12.18**

**BBK № 85.11**

**Muallif:** B.I.Inog‘omov - arxitektura fanlari nomzodi, dotsent.

“Arxitekturaviy loyihalashning ijtimoiy asoslari”, o‘quv qo‘llanma,  
112 bet.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada 5A 340101 “Bino va inshootlar arxitekturasini” mutaxassisligi bo‘yicha sotsiologiyani arxitekturaviy loyihalashga bo‘lgan ta’siri va o‘zaro aloqasi ifodalangan. Arxitekturaviy loyihalashning ijtimoiy asoslari haqida umumiy ma’lumotlar bayon etilgan. Turar joy, ishlab chiqarish binolarini va jamoat xizmat ko‘rsatish obyektlarini arxitekturaviy loyihalashning ijtimoiy asoslari ko‘rilgan. Amaliy ijtimoiy – arxitekturaviy tadqiqotlar uslublari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Mazkur qo‘llanma magistratura yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalari hamda kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kursi tinglovchilari uchun mo‘ljallangan.

**Taqrizchilar:** X.Sh.Po‘latov – arxitektura fanlari nomzodi, TAQI  
professori.

Q.X.Muxamedjanov – arxitektura fanlari nomzodi,  
professor.

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining  
2015-yil, 2-fevraldagi 32-sonli buyrug‘iga asosan o‘quv qo‘llanma sifatida nashr  
etishga ruxsat berildi (grif № 32-112).*

## SO‘Z BOSHI

---

Arxitektura va shahar qurilishi ijtimoiy ehtiyojlarni hamda jarayonlarni o‘zida aks ettirib, atrof-muhitni shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Shahar qurilish loyihalari turar-joy va sanoat rayonlari, jamoaviy markazlari muhitini (makonini) tashkil etadi, xilma-xil shahar jarayonlarining muhitini shakllantiradi, makro darajadagi hududiy tizimlarning rejaviy tuzilmasini: viloyatlar, umuman butun mamlakat tuzilmasini belgilaydi. Bino va inshootlarni loyihalash insonning bevosita atrofini – turar-joy va ishlab chiqarish muhitini, maishiy mehnat va ijtimoiy – madaniy faoliyatini tashkil etishga yo‘naltirilgan.

Arxitekturaviy loyihalash dasturini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib demografiya, iqtisod, hususan sotsiologiya, ijtimoiy geografiya va boshqa bir qator ijtimoiy-gumanitar fanlarning ma’lumotlarini umumlashtiruvchi ijtimoiy tadqiqotlar xizmat qiladi.

“Arxitekturaviy loyihalashning ijtimoiy asoslari” kursi arxitektura va shahar qurilishi sohasida amaliy ijtimoiy tadqiqotlarning mazmuni va uslublarini ko‘rib chiqadi. O‘quv qo‘llanmada ijtimoiy bilimlar va arxitekturaviy loyihalashning o‘zaro aloqasi to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar bayon qilinadi, bino va inshootlarni arxitekturaviy loyihalashning ijtimoiy asoslari tavsiflanadi, arxitektura va shahar qurilishida amaliy ijtimoiy tadqiqotlarni o‘tkazishning uslubiy masalalari ko‘rib chiqiladi. Qo‘llanmaning birinchi bobida inson hayotining ehtiyojlari va yashash tarzi tavsiflari, oilaning ijtimoiy – demografik tuzilmasi hamda, kichik guruhlar sotsiologiyasi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

“Arxitekturaviy loyihalashning ijtimoiy asoslari” arxitektura va shahar qurilishi nazariyasini o‘z ichiga olgan yagona fandır. Kurs materiali bir vaqtning o‘zida turar-joy, jamoat va sanoat binolarini arxitekturaviy loyihalash, shahar qurilishi fanlari bilan uzviy bog‘langan.

## KIRISH

---

Arxitekturaviy loyihalash jamiyat hayot faoliyatining moddiy-fazoviy muhitini tashkil etishga, insonning hayotiy makonini maqsadga yo'naltirilgan tartibga solishga qaratilgan. U ishlab chiqarishni rivojlantirish talablarini, aholining hayot darajasini oshirish, madaniyatni rivojlantirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va muhofoza qilishni aks ettiruvchi masalalarning juda keng doirasini hal etish bilan bog'liq. Arxitektura va shahar qurilishi obyektlari bino va inshootlar, shaharlar va aholi yashaydigan tumanlar – ularda turli xil hayotiy jarayonlarni amalga oshirishga mo'ljallangan moddiy tuzilmalarni ifodalaydi. Ular shu jarayonlarning samaradorligida o'z vazifasini amalga oshiradi.

Bu ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha tomonlariga va tashkil etuvchilariga ta'sir ko'rsatuvchi arxitekturaviy shahar qurilishi faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini belgilab beradi. Ijtimoiy ehtiyojlarga javob bergani holda bino va inshootlar, shahar muhiti, aholi joylashuvining fazoviy shakllari bu ehtiyojlarni amalga oshirishning moddiy asosini yaratadi, o'z navbatida ularni amalga oshirish xususiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Aynan shu ma'noda biz arxitekturaning ijtimoiy ahamiyati to'g'risida ijtimoiy boshqaruv omili sifatida tasavvur qilamiz. Arxitektor shakllantiradigan muhitning ta'siri turli xil yo'llar bilan amalga oshiriladi.

Binolar arxitekturasini faqatgina hayotiy vazifalarni amalga oshirish asosini shakllantiribgina qolmay, balki ma'naviy faoliyat sharoitlarini, dunyoni sezishni shakllantirishi, shaxsning hayot (yashash) tarzi, ishlash, dam olish yoki begonalashish joyi bilan almashtirish sharoitlarini ham yaratadi. Arxitektura odamga ta'sir ko'rsatishining bu jihati ideologik va psixologik ta'siri, ijtimoiy faol ijodiy shaxsni tarbiyalashda muhim bo'lishini tashkil etadi.

Ijtimoiy samaraga erishishga mo'ljallangan arxitektura yechimlari kompleks ijtimoiy asoslarni talab etadi (1-jadval). Bunday asoslashlar dasturlari, qaror qabul qilish uchun zarur axborotning xususiyati turli xil obyektlar uchun har xildir. Biroq, barcha hollarda loyihalashning ijtimoiy asoslari hayot faoliyatining muhitini shakllantirishning iqtisodiy, iqtisodiy-demografik, etik, estetik, ekologik masalalarini o'z ichiga olgan ijtimoiy asoslari farq qilinishi kerak.

**Sotsiologiya** – jamiyat to'g'risidagi fan bo'lib, hayot faoliyatini rivojlanishining turli xil jihatlarini tadqiq etadi. Sotsiologiya ijtimoiy rivojlanishning tendensiyalari va qonuniyatlarini umumlashtirishning turli darajalarida tadqiq etadi.

## Jamiyat hayot faoliyati sohasida va moddiy mahsulot faoliyatida arxitekturaning mazmuni

1-jadval

| Mazmun tavsifi                                            | Jamiyat hayot faoliyatidagi arxitekturaning o'zini                                                        |                                                                                                   |
|-----------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                                           | Moddiylik sohasi (qurilishni ishlab chiqarish)                                                            | Umum jamiyatning hayot faoliyati                                                                  |
| Arxitektura faoliyat sifatida                             | Qurilishni ishlab chiqarishdagi hududiy- iqtisodiy-loyihaviy va muhandislik loyiha bo'limi                | Ijtimoiy loyihalash bo'limi: jamiyat hayot faoliyatining yashash va moddiy muhitni shakllantirish |
| Arxitektura moddiylik mahsuli faoliyati sifatida          | Qurilishni ishlab chiqarish mahsuli: ishlab chiqarish kuchi elementi (ishlab chiqarishning texnik bazasi) | Jamiyatning hayot faoliyatini moddiy- muhit ifodasi                                               |
| Arxitekturaviy yechim va arxitekturaviy faoliyat samarasi | Qurilishda ishlab chiqarish samarasi                                                                      | Arxitekturaviy muhitda hayot faoliyati jarayonining samaradorligi                                 |

Ijtimoiy rivojlanishning umumiy nazariyasi bazani (asosni) tashkil etadi va sotsiologiyaning mahsus masalalarini umumlashtiradi, ular qatoriga arxitektura sotsiologiyasi ham kiradi. Yashash muhitini shakllantirish bilan bog'liq ijtimoiy masalalarning keng doirasi loyihalashning turli xil obyektlariga – turar-joy, ishlab chiqarish majmuasi, ijtimoiy markaz va shu kabilarga tegishli ijtimoiy-arxitekturaviy tadqiqotlar dasturlarning ko'p xilligiga bog'liq.

Bu sotsiologiya arxitekturasini sotsiologiyaning turli sohalari ya'ni oila, mehnat, ta'lim va shahar sotsiologiyalariga aylantiradi.

**Bino va inshootlar arxitekturasining rivojlanishi** ijtimoiy bir xillikni oshirish g'oyalari, turli ijtimoiy guruhlarning, shahar va qishloq aholisining, yashash tarzidagi hayot faoliyatining milliy va mintaqaviy xususiyatlaridagi farqni yengish asosida yuz bergan edi. Ammo, bu jarayonlarni tushunishining soddalashtirilgan ochiqligi qabul qilinayotgan qarorlarining ortiqcha standartlashtirilishiga, aynan bir xil tipli loyihalarning turli mintaqalarida aholi turar-joylarining turli xillarida foydalanishiga, qishloq turar-joylarida hayotning shahar stereotiplariga javob beruvchi bino va inshootlar qurilishiga olib keldi. Shunga muvofiq bino va inshootlar arxitekturasining rivojlanish hayot faoliyatining ijtimoiy ehtiyojlari va shakllarining rivojlanish dinamikasiga javob beruvchi, shuningdek ishlab chiqarish va maishiy jarayonlar yangi texnologiyalarining rivojlanishiga javob beruvchi turli tipdagi binolarning ortishi bilan tavsiflanadi. Arxitektura yechimlarini tabaqalashtirishga talablar har xil ehtiyojlarni hisobga olgan holda ommaviy industrial qurilishi

masalalari bilan ma'lum qarama – qarshilikka uchraydi. Bundan turar-joy muhiti, xizmat ko'rsatish muassasalari, dam olish, ishlab chiqarish obyektlari uchun aholi ehtiyojlarini (oilalar, mehnat jamoalari va boshqa ijtimoiy guruhlar) sotsiologik tadqiqotlari arxitektura faoliyati doirasida kengaytirishdan iborat.

Tegishli sotsiologik bo'limlarni rivojlantirish yo'lini turar-joy sotsiologiyasi misolida ko'rish mumkin. Yangi turmushni yaratishning umumiy g'oyalaridan tadqiqotlar oilalarning miqdoriy farqlariga asoslangan turar-joy tipologiyasi yo'nalishida rivojlanadi. Bundan keyin oilalarning demagrafik tuzilmasiga, ularning ijtimoiy tavsiflari qatori mehnatning xususiyati, daromad darajasi, ma'lumotga bog'liq holdagi talablarning farqi o'rganib chiqiladi. Hozirgi vaqtda tahlil qilishning aytib o'tilgan jihatlari qatori turmushni tashkil etish va turar-joyga bo'lgan talabning etik, mintaqaviy, ijtimoiy madaniy hususiyatlari qarab chiqiladi. Bu ehtiyojlarning turli- tumanligini yetarlicha to'liq hisobga olish imkonini beradi.

Bugungi kunda aholi loyihalarini muhokama qilishga faol jalb qilish, ehtiyojlarning farqlari va dinamikasiga muvofiq dastlabki loyihaviy sxemalarni o'zgartirish hamda rivojlantirishga imkon beruvchi rejalarning moslashuvchan sxemalarini yaratishi bilan umumiy qurilishning bir xilligi, "manzilsizligi" sharoitlarida ifodalanuvchi tashqi turar-joy muhitini loyihalashda ham yashovchilarning ishtirok etishi ma'lum ahamiyatga ega bo'ladi.

Bu yangi yo'l – arxitektorning iste'molchi bilan muloqoti – ijtimoiy axborot olishning yangi shakllari, amaliy sotsiologik tadqiqotlarining yanada rivojlanishini talab etadi. Ijtimoiy rivojlanishda inson omili ahamiyatining ortishi ijtimoiy infratuzilma: turar-joy, sog'liqni saqlash muassasalari, ta'lim, sport muassasalari va boshqa barcha obyektlarni loyihalash va qurishning ro'li ortishini taqozo etadi.

**Bino va inshootlar** individlar va ijtimoiy guruhlarining hayot faoliyati jarayonida amalga oshiriladigan turli xil ijtimoiy vazifalarni amalga oshirish uchun shakllantiriladi. Binolar arxitekturasi va muhitning yaratilayotgan sifati faoliyat obyekti (turar-joyda oila, ishlab chiqarish binosida mehnat jamoasi, aktyorlar va tomoshabinlar), tashkil etayotgan faoliyatning xususiyati, uning texnologiyasi, zarur ijtimoiy-psixologik, axborot, gigienik va boshqa sharoitlar bilan belgilanadi. Subyekt va uning hayot faoliyatini tashkil etish muhit parametrlari, uning fizik tavsiflari, qurilma muhandislik ta'minotlarini belgilab beradi.

Binoni loyihalashtirib, me'mor shu tarzda, xususiyatlari berilgan sun'iy muhitni yaratadi. Bu xususiyatlar muhitdan funksional foydalanish

imkoniyatlarining mumkin bo'ladigan hayotiy vaziyatlarning faqat xilma-xilligini ta'minlashning ma'lum diapazonini ifodalabgina qolmay, balki ularning bundan keyingi rivojining ma'lum zahiralari ifodalaydi. Bu bino va inshootlardan ko'p variantda foydalanishiga va xususan, tarixiy qurilmalarni zamonaviy funksiyalar bilan o'zlashtirishga imkon beradi.

Shahar va qishloq turar-joylari hamda ularning elementlari (turar-joy, ishlab chiqarish, jamoat, rekratsion hududlar va majmualar), ularga qurilishlar va ochiq shahar muhitlari (makonlari) kirib, hududiy xamjamiyatlar, ijtimoiy guruhlar va institutlarning ko'p xildagi faoliyat turlarini tashkil etish uchun muhit sifatida shakllanadi. Shahar qurilish obyektlari turar-joylarda amalga oshiriladigan faoliyat turlarining yig'indisi, ularning o'zaro joylashuvi xususiyati va aloqalarini joylashtirish ehtiyojlarini hisobga olib, ta'minlanganlik resursi bilan belgilanadi.

Aynan shu darajada ekologik barqarorlashtirilgan ijtimoiy – hududiy tuzilmalarni yaratish, loyihalarda tabiiy rayonlashtirish, oqilona tabiatdan foydalanish (2-jadval)ni hisobga olishga birinchi navbatda diqqat qilish vazifasi turadi. Tashkil etilayotgan fazoviy-hududiy tizimining miqyosi ortishi bilan quyidagi ko'rsatkichlar o'zgarishini ko'rish mumkin: birgalikdagi faoliyat jarayonida odamlarning umumiyliigi, birlashganligi, o'zaro bog'liq ekanligi darajasi kamayadi. Fazoni tashkil etishining xal qiluvchi omillari faoliyat subyekti tavsiflariga va uning joylashishiga hamda hududiy aloqalar parametrlariga tomon o'zgaradi.

Faoliyat muhitini shakllantirishning arxitektura – qurilish vositalari berilgan xususiyatli sun'iy muhitini shakllantirishdan hududiy resurslar tizimida faoliyatni oqilona joylashtirishga qarab o'zgaradi.

### **Arxitektura – shahar qurilish loyihalarining darajalaridagi farqi**

2-jadval

| Loyihalar ob'yekti              | Faoliyat subyekti                                                                                          | Hududiy tashkil etiluvchi faoliyatning mazmuni va tuzilishi                                                                 | Faoliyat muhiti (shakllanish vositalari)                              |
|---------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------|
| Bino va inshootlar              | Individ, kichik ijtimoiy guruh (oila mehnat jamoasi, maktab jamoasi va h.k.)                               | Mehnat va maishiy jarayonlar; tashkilot, texnologiya (faoliyatining texnologik, estetik va muhitni baholashni hisobga olib) | Parametrlari va qurilmasi berilgan sun'iy muhitni shakllantirish      |
| Shahar va qishloq turar-joylari | Hududiy umumiyliklar (shahar aholisi, qo'shnichilik va h.k.); ijtimoiy guruhlar va shahar hamjamiyati ins. | Ishlab chiqarish va iste'molchilik jarayonlari, kommunikatsiyalar                                                           | Hududlarni muhandislik texnik ta'minlash funksiyalarini joylashtirish |

|                                                       |                                                                                                           |                                                                                                                 |                                                                                                                                        |
|-------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Mahalliy, mintaqaviy va umum-davlat hududiy tizimlari | Jamiyat: hududiy umumiyliklar (hududlar, shaharlar, viloyatlar aholisi): ijtimoiy guruhlar va institutlar | Ishlab chiqarish, iste'mol qilish, faoliyat, ishlab chiqarish vositalari va mahsulotlari bilan hududiy almashuv | Hududiy resurslar tizimida va tabiiy hamda antropogen sharoitlarda (joylashtirish sharoitlarni hisobga olib, faoliyatni joylashtirish) |
|-------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

## **Arxitekturaviy loyihalashning ijtimoiy asoslari to'g'risida umumiy ma'lumotlar**

### **1. Ijtimoiy tuzilmalar va jarayonlar**

Jamiyat odamlarning tarixan rivojlanuvchi o'zaro aloqalari natijasida shakllanadi va o'z rivojining har bir bosqichida siyosiy, iqtisodiy, ideologik, ma'naviy jihatdan tashkil etiladi. Bu munosabatlarning barchasi fazoviy tizimlarda, jamiyat tomonidan shakllantiruvchi yashash muhiti harakterida o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy munosabatlar o'zaro aloqalar bino va inshootlar, turar-joylar, joylashtirish geografiyasi turlarining evolutsiyasini aniqlab, muhitda turlicha amalga oshiriladi.

Arxitektura sotsiologiyasi uchun turli xil ijtimoiy tuzilmalar jamiyatni fazoviy tashkil etishiga qanday ta'sir ko'rsatishini bilish zarur. Jamiyatni tashkil etish o'zaro aloqalarning turli asoslariga ega bo'lgan odamlarning barqaror yig'indilariga nisbatan shakllanishda amalga oshiriladi: ishlab chiqarish qurollariga va vositalariga bir hil munosabat, jamoat boyliklarini taqsim - tizimida bir xil holat, umumiy qiziqishlar, qadriyatlar, xulq normalari, umumiy faoliyat sohasi, nihoyat - hayot faoliyatining umumiy hududi (muhiti)dan iborat. Ijtimoiy tashkil etishning turli jihatlari fazoviy tuzilmalarning shakllanishga turlicha ta'sir qiladi.

Shu nuqtai nazaridan ijtimoiy yig'indilarining (tuzilmalarning) uch turini ajratish mumkin:

- ijtimoiy tizimda umumiy qoida bilan birlashtiriluvchi ijtimoiy tuzilmalar va mos ravishda qadriyatlar tizimida hamda xulq xarakterida bir qator umumiy belgilar bilan birlashtiriluvchi ijtimoiy yig'indilar;
- birgalikdagi faoliyat yuzasidan birlashtirilgan ijtimoiy yig'indilar:
- yagona hududda yashash va faoliyat yuritish bilan bog'liq ijtimoiy-hududiy hamjamiyatlar.

Aytib o'tilgan ijtimoiy tuzilmalar jamiyatning ko'p qatlamli va ko'p jihati tashkil etilishini shakllantirib, kesishadi hamda ustma - ust tushadi. Ijtimoiy tuzilmalarni tavsiflash uchun ijtimoiy guruh, ijtimoiy umumiylik, ijtimoiy institut tushunchalaridan foydalanadi.

**Ijtimoiy guruhlar** - ijtimoiy belgilar guruhi, faoliyati va hudud jihatlarini va hudud birligi deb atalgan asoslardan biri bo'yicha birlashtiriluvchi odamlarning barqaror to'plamini belgilab beruvchi eng umumiy tushunchadir. Katta, o'rtacha va kichik guruhlar farq qilinadi. Butun jamiyat, mamlakat chegarasida shakllanadigan katta guruhlar – sinflar, ijtimoiy qatlamlar, etnik umumiyliklar (millatlar, xalqlar), yosh guruhlar (yoshlar, pensionerlar)dir. O'rtacha guruh-korxonalar xodimlarining ishlab chiqarish birlashmalari, hududiy umumlashmalar (mahalliy guruhlar). Kichik guruhlar - oila birlamchi ishlab chiqarish bo'g'ini, maktab sinfi, norasmiy guruhlar – do'stlar, qo'shnilar va boshqalar. Ijtimoiy guruhlar turli xil asoslarda shakllanadi va turli darajadagi umumiylikka ega – umumiy qiziqishlardan to'g'ri a'zolarining bir-biri bilan bevosita aloqasigacha bo'lgan jarayonlardan iborat.

**Ijtimoiy institutlar** ma'lum bir funksiyani bajaruvchi shaxslar guruhidan va bir vaqtning o'zida tegishli muassasalar va bu funksiyani tashkiliy tuzilmasining yig'indisidan iborat. Ijtimoiy institutlarga quyidagilar misol bo'ladi: ta'lim, san'at, sanoat, jamoatchilik xizmat ko'rsatish, unga ishlab chiqarish jamoalari, jamoat tashkilotlari, matlubot kooperatsiyasi va shu kabi rasmiy guruhlar kiradi. Ijtimoiy institutlar va rasmiy guruhlar oldindan belgilangan maqsadlarga muvofiq faoliyat yuritib, mos holda tashkilotga, shu jumladan fazoviy tashkillashga yetarlicha aniq talablar belgilab beradi.

Shunday qilib, ijtimoiy guruhlar, birikmalar va institutlar ijtimoiy tuzilma elementlari hisoblanib, u odamlarni belgilari, birgalikdagi faoliyati yoki umumiy hududi bo'yicha birlashtirish natijasida shakllanadi. Bunday birlashishning asosi muhitni fazoviy tashkil etishga ijtimoiy tuzilmaning ta'sirini belgilaydi.

Turli sinflar, ijtimoiy qatlamlar, aholining etnik, yosh guruhlarini ehtiyojlarida farqlar namoyon bo'lib, ular turar-joy turlarini tabaqalashtirishda va uning shaharda joylashtirilishida, bo'sh vaqtni o'tkazish va xizmat ko'rsatish turlarida, shahar va hududiy tizimlar hududini zonalashtirishda, joylashtirish geografiasida amalga oshiriladi. Ijtimoiy qatlamlar shaharda joylashtirish munosabati bilan ularni tabaqalashtirish ijtimoiy ekologiya bo'yicha ishlarda tadqiq etilgan. Arxitektura va shahar qurilishi sohasidagi ijtimoiy tadqiqotlar ma'lumot, tasniflash, daromadlar darajasi bo'yicha, asosiy mehnat faoliyatining turi bo'yicha farq qilinuvchi ijtimoiy guruhlar uchun iste'molchi ish jarayonlarini tashkil etish, turar-joydan funksional foydalanishdagi katta farqlar to'g'risida dalolat beradi. Dam olishni tashkil etish, umumiy harakatchanlik va migratsiya xususiyati va shu kabi ma'lumotlar o'xshashdir.

Hayot faoliyatini o‘rni (muhati) bilan birlashtiriladigan ijtimoiy guruhlar sifatidagi hududiy umumiyliklar to‘g‘risida gapirganda biz, birinchi navbatda, shahar qurilishi tizimlarini nazarda tutamiz. Bunday “hususdan hududiy” guruhlar faqat shahar qurilishi darajasida vujudga keladi. Shu bilan birga, “subyekt-muhit” muammosi bino va inshootlarni loyihalashga ham taalluqlidir.

Farq shundan iboratki, o‘z funksiyalarini binolar, majmualar, shaharning alohida elementlarida (maydon, ko‘cha) amalga oshiruvchi ijtimoiy guruhlar hududiy belgisi bo‘yicha emas, balki dastavval birgalikda faoliyat bo‘yicha shakllanadi, bu jarayon yuqorida ko‘rib chiqilgan edi.

Shunday qilib, ijtimoiy tuzilmalar arxitekturaviy loyihalash dasturiga ikki jihatdan ta‘sir ko‘rsatadi. Birinchisi – yerdan foydalanishning fazoviy tuzilmasida, binolarning foydali maydonlaridan foydalanishning, shaharni obodonlashtirishning normalarida, funksional elementlar iyerarxiyasida va o‘zaro joylashtirilishida (masalan, xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini) ifodalanadi. Va ikkinchisi – ijtimoiy subyektning (turli xil ijtimoiy guruhlar bilan taqdim etiladigan) atrof muhitni shakllantirishdagi ehtiyojlarini ifodalab, uning ham moddiy, ham ma‘naviy ehtiyojlarini o‘z ichiga oladi.

## **2. Ijtimoiy jarayonlar**

**1. Ijtimoiy jarayonlar** – ijtimoiy hodisalarni tavsiflashning ikkinchi tomoni. Ijtimoiy jarayonlarning ikki asosiy turi farq qilinadi: ijtimoiy tuzimlarning faoliyat yuritishi va ularning rivoji.

**2. Ijtimoiy faoliyat ko‘rsatish** – ijtimoiy hayot, hayot faoliyati – individlar, ijtimoiy guruhlar, umumiy jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan turli xil ijtimoiy harakatlar (ijtimoiy ahamiyatga ega harakatlar) yig‘indisidan iborat. Ijtimoiy harakat uning subyektini (inson, guruh) va subyektning mo‘ljali (maqsad, sabab, qadriyat) bilan o‘zaro aloqalari qarab chiqiladi.

Atrof dunyoni yoki insonning o‘zini maqsadga muvofiq o‘zgartirish va almashtirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy harakatlar.

**3. Faoliyat** – maqsadli vositalarni, jarayonning o‘zini va natijani qamrab oluvchi ongli harakatlardir. Faoliyatning maqsadi va xususiyati uning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish, moddiy va ma‘naviy, produktiv (ijodiy) va reproduktiv (ijrochilik) va h.k. larga bo‘lishni taqozo qiladi.

Faoliyat turi faoliyatning zarur sharoitlari va vositalarini belgilab beradi, ularga muhitning sifati va parametrlari, uning imkoniyatlari majmui (resurslari) kiradi. Shuning uchun arxitektura va shahar qurilishini loyihalash faoliyatni fazoviy va hududiy tashkil etish xususiyatini tadqiq etish, uning binolarni jihozlashni va joylashtirish hududlarining resurs bilan ta'minlashni tadqiq qilish bilan bevosita bog'liq. Jumladan, oila, kichik ijtimoiy guruh, jamoaning tuzilmasi maishiy va mehnat jarayonlarini tashkil etishiga turar-joyda zarur buyumlar majmuasiga, ishlab chiqarish binosining texnologik jihozlariga talablar orqali turar-joyni ishlab chiqarish va jamoat binosini rejalashtirishda aks etadi.

Ko'p jihatdan faoliyat orqali faoliyat subyekti hususiyatlari: uning ehtiyojlari, qadriyatlari, qiziqishlari ifodalanadi. Hususan, maishiy va mehnat jarayonlari fazoviy parametrlarni belgilab beruvchi faqat ma'lum texnologiya bilangina emas, balki u yoki bu jarayonlarning ijtimoiy ahamiyati darajasi to'g'risidagi, ularning "ochiqligi" yoki "yopiqligi", fazoda amalga oshirilayotgan ijtimoiy nazoratning tavsifi to'g'risida (hulqni qattiq tartibga solishdan to'liq erkinlikkacha) va h.q. turli guruhlarining ijtimoiy tasavvurlari bilan tavsiflanadi. Turli ijtimoiy guruhlar muhitning u yoki bu sifatlariga o'z afzal ko'rishlarini ifodalaydi, muhit taqdim etadigan, shuningdek faoliyat orqali imkoniyatlarni tanlab oladilar.

Jumladan, shaharliklar shaharning turli hududlari va markazlarini baholashda, ularga tashrif buyurishning tezligi bilan, turar-joyni tanlashdagi afzalliklarda ifodalanadi. Ijtimoiy institutlar (masalan, xizmat ko'rsatish sohasi) aholining xizmatlardan foydalanish chastotasini, muassasalarga tashriflarni hisobga olib, o'z fazoviy tuzilmalarini shakllantiradi. Hozirgi vaqtda loyihalashga tor funksional yondashuvning yetarli emasligi aniq namoyon bo'ldi, bunda loyihalashtirishning estetik – kompozitsion jihatlariga kamroq e'tibor beriladi. Ko'p jihatdan bu industrial uy qurilishining kompozitsion imkoniyatlari cheklanganligi bilan bog'liq. Muhitning monotonligini, estetik to'la qimmatga ega emasligini yengishga urinishlar shahar qurilishi kompozitsiyalarining rivojlanishi va murakkablashuvi, fazoviy yechimlarining moslashuv-chanligini, variantlilikini izlash bilan bog'liq.

**4. Ijtimoiy – psixologik qulaylik** insonni ruhiy holatining tinchligi, ishonchliligi, barqarorligi ko'rsatkichlarida ifodalanadi. Muhitning xarakteristikasi quyidagi ko'rsatkichlarga ta'sir etadi: fazoning o'lchamlari va shakli, uning izolatsiyalanganligi (ochiqligi) darajasi, fazoda turli funksional jarayonlarning qo'shilishi, ijtimoiy nazoratning mavjudligi.

Fazo parametrlarini asoslash faoliyat jarayonida muloqotning turli shakllarini o'rganish bilan bog'liq (funksional texnologik asoslashlardan tashqari). Fazoni tashkil etishga talablar ishtrokchilar soniga, muloqot hususiyatlariga, faoliyat turiga bog'liq bo'lib, bu jarayonda aloqalar amalga oshiriladi (mehnat, dam olish, o'yin va h.k.). Bunda muloqot fazoni tashkil etishning bosh omili bo'lishi mumkin (masalan, qo'shnichilik muloqotining turli shakllari bilan bog'liq fazoning tashqi turar-joyi, klub xonalari, qiziqarli o'yinlar binolari foyesi), yoki faoliyat texnologiyasi talablari bilan birga bo'luvchi, uni to'ldiruvchi (ishlab chiqarish honalari, sport maydonlari va boshq.) bo'lishi mumkin. Muloqot shartlari fazo jihozlariga, "tashqi" hududlarning obodonlashtirilganlik darajasi va hususiya-tiga, shuningdek fazoning izolatsiyalanganlik (ochiqlik) darajasiga talablarni belgilab beradi.

Oxirgi tavsif shuningdek funksional jarayonlarning moslashuvchanlik darajasi bilan, shu jumladan "psixologik" darajasi bilan belgilanadi. Xususan, xonadonda shovqin o'yinlar va o'qish hududlari ajratiladi, turar-joy tumanida – sport maydonlari va dam olish hududlari, shahar markazlarida "tranzit" piyodalar harakati va dam olish maydonlari ajratiladi. Izolatsiya darajasi ham "moslashmaslik" darajasi bilan belgilanib, to'siqlar, ko'kalamzorlashtirilgan mintaqalar va h.k.lar bilan ajratishdan – chegaralarni shartli belgilashgacha darajalashga yo'l qo'yiladi.

Muloqot qilish shartlari bilan bir qatorda psixologik qulaylik mehnat, turmush, o'qish sohasida "maqsadli" faoliyat sharoitlarini ta'minlash bilan bog'liq. Bu holda baholash mezonlari sifatida mehnat qilish qobiliyati, diqqat, mehnat unumdorligi, o'zlashtirish va boshqa ko'rsatkichlar bo'lishi mumkin. Bu holda ham psixologik qulaylikka fazo parametrlari, unda kechayotgan jarayonlarning izolatsiyalanganlik darajasi bilan, shuningdek – yoritilganlik, interyerning rang yechimi, qurilma dizayni va boshqalar bilan erishiladi.

Amaliy ijtimoiy psixologik tadqiqotlar arhitektura – shahar qurilishini loyihalashning turli darajalarida o'tkaziladi. Ularning dasturi va yo'naltirilganligi loyiha masalasining hususiyati bilan belgilanadi. Masalan, ishlab chiqarish muhitini loyihalash shaxsiy mehnat unumdorligini oshirish sharoitlarini yaratishga mo'ljallangan. Mehnatning psixologik kuchlanishi ortishi sharoitida inson ruhiyatini hisobga olish loyihalashning muhim omili bo'lib qoladi.

Gap arxitektor-ning yuqori samarali mehnatni rag'batlantirishga qaratilgan motivatsion mexanizmini yaratish va faoliyat yuritishi to'g'risida boradi.

Sotsiologik tadqiqot ma'lumotlarining ko'rsatishicha, mehnatni tashkil etish bilan bog'liq uning natijalarini oshirish zaxiralari ayrim holatlarda texnologik qayta qurollanish bilan bog'liq zaxiralarga nisbatan yuqori baholanadi. Tashkil etishning tomonlaridan biri ishlab chiqarish muhitining predmetli fazoviy tuzilmasini optimallashtirishdir. Ijtimoiy tadqiqotlar dasturi mehnat qilishining fazoviy shakllarining: ish o'rni parametrlarini, uning izolatsiyalanganligini, fizik parametrlarining mehnat unumdorligi, charchashlik, diqqatning faolligi bilan o'zaro aloqasini aniqlashga, shuningdek individlar va ijtimoiy guruhlarining qulaylikni subyektiv baholash bilan o'zaro aloqasini aniqlashga qaratilgan.

Turar-joy muhitini loyihalash turar-joy xonadonida va tashqi turar-joy muhitida ruhiy qulaylikni oshirishga yo'naltirilgan. Ijtimoiy tadqiqotlar individlar va oilalarning ijtimoiy – psixologik mo'ljal olishi va xonadonda o'zini tutishi bo'yicha har xil turlarini aniqlaydi: individual faoliyat shakllarining yoki umum oilaviy muloqotning ustuvorligi, yopiqlik yoki keng tashqi aloqalar, va boshqalar. Turli yosh guruhlarining xulqi psixologik modellari, ijtimoiy tavsiflarning roli – ta'lim, daromad, mehnat faoliyati xususiyati. Tashqi turar-joy muhitini loyihalashda muloqot qilishning turli shakllarini, fazoda turli jinsli funksiyalarning moslashuvchanligini (masalan, dam olish – piyodalarning tranzit harakati, bolalar uyini) hisobga olinadi. Bunda ijtimoiy – psixologik tahlil hujjatining rejalashtirilayotgan va real jarayonlarining mos kelmasligini va ular o'zgarishining motivatsiyasini aniqlash maqsadida qaror topgan turar-joy tuzilmalari xonadonlarni aniq naturada tadqiq qilish bilan to'ldiradi.

## I BOB. TURAR-JOY BINOLARINI ARXITEKTURAVIY LOYIHALASHNING IJTIMOIIY ASOSI

---

Biz o‘z uylarimizni yaratamiz, keyin  
esa uylarimiz bizlarni yaratadi.

*Uinston Cherchil*

### 1.1 Umumiy holat

Loyiha yechimlari va ularning fragmentlari (bloklari, seksiyalar, xonalari) ijtimoiy asoslari sifatida ijtimoiy guruhlar tavsiflari to‘g‘risidagi ma’lumotlar xizmat qilib, ular bu obyektlardan foydalanadi, shuningdek bu guruhlarining maqbul hayot faoliyati to‘g‘risidagi va ularning predmetli hamda bioiqlimli muhiti to‘g‘risidagi ma’lumotlar xizmat qiladi.

Masalan, bolalarning maktabgacha tarbiya muassasasi binosini loyihalashda bolalar guruhlarining miqdori va yosh bo‘yicha tabaqalashtirilishi to‘g‘risidagi, har bir guruhdagi bolalar soni to‘g‘risida, ma’lum yoshdagi bolalarning jismoniy, ruhiy, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari to‘g‘risidagi, ularni tarbiyalash va o‘qitishning pedagogik va gigiyenik asoslangan dasturlari to‘g‘risidagi, bolalarning hayot faoliyatini tashkil etishning, ularni parvarish qilishning milliy an‘analari to‘g‘risidagi, muassasaning rejimi to‘g‘risidagi (kunduzgi, tungi, internat), mebeli, qurilmalari, o‘yinchoqlar, kiyimlar, mikroiklimi va h.k. lar to‘g‘risidagi ma’lumotlar zarur. Bundan tashqari, bolalarning maktabgacha tarbiya muassasasini loyihalashda quyidagilarni hisobga olish zarur: mehnat jamoasi miqdori va tuzilmasi; xodimlarning mehnati va dam olishi xususiyati; ovqat tayyorlash uchun qurilmaning xususiyati, bolalarning sog‘ligini nazorat qilish, kir yuvish va h.k.

Agar, aniq bitta bino loyihalanmasdan, binolar yoki ularning fragmentlari loyihalari seriyasi yaratilsa, agar turar-joy va hududlarni qurish uchun loyihalash obyektlari nomenklaturasi aniqlansa, u holda loyihaviy yechimlarning ijtimoiy asoslari kengayadi. Masalan, ma’lum bir shahar yoki hududni qurish uchun ko‘p qavatli turar-joy uylarni umumiy blok seksioyalarini loyihalashda aholining ijtimoiy – demografik tuzilmasi to‘g‘risida ma’lumotlar zarur: aholi ichida turli yoshdagi yakka odamlar ulushi haqida; turli sondagi va murakkablikdagi oilalar: nogironlari bo‘lgan (xonadonlarni alohida fazoviy tashkil etish va jihozlashga muhtoj) oilalar; ijodiy hodimlar va pedagoglar bo‘lgan oilalar (qo‘shimcha xonaga ega bo‘lish xuquqiga ega) va h.k.

Bino va inshootlar loyihalarni asoslash uchun zarur aniq ijtimoiy axborot manbai davlat va idora statistika materiallari, ijtimoiy – ijodiy rivojlanish rejalari, prognozlar, dasturlar xizmat qiladi. Bundan tashqari, qabul qilinayotgan qarorlarning ijtimoiy ahamiyati oqibatlarini oldindan ko‘ra bilish uchun, loyihalalanayotgan obyektning ijtimoiy jarayonlardagi o‘rni va rolini tushunish uchun insoniyat, jamiyat, ijtimoiy guruhlar, inson haqidagi demografiya, oila sotsiologiyasi, ijtimoiy psixologiya, etnografiya va shu kabi fanlar asosini bilish zarur. Bu axborot arxitektorga arxitektura obyektlari iste’molchilari to‘g‘risida umumiy tasavurnigina berib qolmaydi. U amaliy ijtimoiy arxitekturaviy tadqiqotlarni rejalashtirish va o‘tkazishi uchun, aniq bir obyektlarga ijtimoiy funksional talablarni aniqlash uchun zarur.


### **Turar-joy binolarini loyihalashtirishning ijtimoiy asoslari**

Turar-joy arxitekturasini takomillashtirish va rivojlantirish aholi hayotining barcha jihatlarini qamrab oluvchi keng ijtimoiy dastur bilan bog‘liq. Turar-joy ko‘p sathli tizimni tashkil etib, uning boshlang‘ich bo‘g‘ini turar-joy yacheykasi hisoblanadi.

**“Turar-joy yacheykasi”** tushunchasi qamrab oluvchi quyidagi fazoviy turlarni o‘z ichiga oladi: xonadonlar, tomorqlar (xonadonlar yoki yer uchastkasi bo‘lgan bir xonadonli uylar), yotoqxonalaridagi, uy-internatlardagi, dam olish muassasalaridagi, mehmonxonalarda turar-joy o‘rinlari. Turar-joy yacheykalari o‘z turmushiga nisbatan alohida tashkil etuvchi birlamchi maishiy birliklar uchun yaratiladi. Hozirgi zamon sharoitida bunday birlamchi maishiy birliklar bo‘lib, avvalo, oilalar yoki alohida yashovchi yakkalar hisoblanadi. Birlamchi turmush birliklari xususiy ishlab chiqarishini – ijtimoiy madaniy, iqtisodiy, bibliografik tashkil etadi – va shu bilan jamiyatni tiklashda ishtirok etadi. Turar-joyning yanada yuqoriroq darajalari turar-joy tarkiblari tomonidan shakllantiriladi, ularga ko‘p xonadonli uylar, yotoqxona binolari, turar-joy hovlilari, dahalar, mikrotumanlar, tumanlar va boshqalar kiradi. Turar-joyning muhim tavsifi turar-joy maydonining yuzi (turar-joy xonalarining yuzi) va xonalar hamda yotoqxonalarning umumiy yuzi xizmat qiladi, ularga turar-joydan tashqari turar-joy xonadonlari va uylar yuzi kiradi. Bunga dahlizlar, xollari, zinapoya maydonlari va shukabilar kirmaydi.

Shahar, qishloq, mintaqa, respublikaning turar-joy fondi – bu ma’lum ma’muriy chegaralardagi barcha turar-joy yacheykalarining yig‘indisidir.

Turar-joy fondi umumiy turar-joy maydoni, xonadonlar soni, yotoqxonadagi joylar soni bo‘yicha o‘lchanadi va to‘liqligi, obodonlashtirilganligi, eskirish darajasi va h.k.lar bo‘yicha farqlanadi.



**Turar-joy iste'molchilari va turar-joy yacheykasiga talablar.**

**Turar-joy fondi** tavsiflarining shahar, qishloq, mintaqaholisi tavsiflari bilan nisbati aholining turar-joy sharoitlarini belgilab beradi. Bunga quyidagilar ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi: bitta turar-joy xonasiga o'rtacha to'g'ri keladigan kishi soni, alohida qulay kvartallarda yashovchi oilalar ulushi; aholi jon boshiga to'g'ri keladigan turar-joy yuzasining kvadrat metri va h.k. Oxirgi ko'rsatkich turar-joy bilan ta'minlanganlik deyiladi.

Turar-joy bilan ta'minlanganlik darajasi aholining turar-joy sharoitlarining ijtimoiy munosabatdagi juda muhim xarakteristikasidir.

Gigennistlarning ma'lumotlariga ko'ra bir kishiga 9 m<sup>2</sup> dan ortiq turar-joy maydoni ta'minlanganda kasallanish jiddiy pasayadi (kichik ko'rsatkichlarga nisbatan), 16-18 m<sup>2</sup> kishi turar-joy yuzi umum oilali va guruhii xonalarning faol rivojlanish imkonini yaratadi. Turar-joy ta'minotining bundan keyin oshirilishida oilaning har bir katta a'zosining bir necha xonadondan iborat rivojlangan shaxsiy hududini yaratishi mumkin. Aniq bir jamiyatning aniq bir davrda maqbul, me'yorida deb hisoblanadigan turar-joy sharoitlari turar-joy standarti hisoblanadi. Turar-joy standarti turar-joy qonunchiligida, turar-joyni loyihalash va taqsimlash normalarida, norasmiy ravishda esa urf-odatlar, an'analar, jamoatchilik fikri bilan rasman mustahkamlanadi.

**Turar-joy muammosi** – aholining qaror topgan turar-joy sharoitlarining turar-joy standartiga mos kelmasligi. Turar-joy muammosining dolzarbligi standartning va xaqiqiy holatning farqlanish darajasiga, shuningdek standartning darajasiga bog'liq. Eng dolzarb turar-joy muommosi – mamlakatda uysizlarning mavjudligidir. Uning kamroq namoyon bo'lishlari – turar-joy maydoni yetishmaganda bir joyda to'planganlik va siqilib yashash, bir necha oilalarning bitta xonada yoki kvartirada yashashi, turar-joy rejasini oilalarning tarkibi va turmush tarziga mos kelmasligidir. Turar-joy muommosining sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin:

Turar-joyni joylashtirish bilan aholining hudud bo'yicha joylashishi o'rtasidagi nomuvofiqlik (masalan, odamlar yangi o'zlashtiriladigan tumanlarga ko'chib chiqadi, turar-joylar esa o'zlashtirilgan bo'ladi).

To'liqlik va obodonlashtirilganlik darajasi past, mavjud turar-joy fondi eskirish darajasi yuqori. Odatda turar-joy muommosini vujudga keltiruvchi bir necha sabab bir vaqtda ta'sir ko'rsatadi.

Davlatning turar-joy siyosati – davlatning turar-joy muommosini hal qilish uchun amalga oshiriladigan harakatlar va choralar tizimidir. Turar-joy siyosati ko'p jihatdan turar-joyning mulkdori kim ekanligiga – mahalliy hokimiyat organlari, korxonalar, turar-joy kooperativlari yoki xususiy uy joy egalari. Birinchi holda davlat turar-joy qurilishi sur'atlarini va turar-joyning me'yoriy sifatini, turar-joydan foydalanishni (o'zining iqtisodiy imkoniyatlari doirasida), turar-joyni taqsimlashni va foydalanishni tashkil etishi, kvartira haqi miqdorini belgilashi mumkin va h.k. Qolgan xollarga kelsak, davlat idoralar, kooperativlar va xususiy mulkdorlarning faoliyatini turar-joy qonunchiligi, kreditlar, ssudalar, soliqlar, ma'muriy rag'batlantirish va sanksiyalar tizimi orqali tartibga soladi. Turar-joy siyosati turar-joy qurilishi dasturlari va rejalari orqali amalga oshiriladi va h.k.

Turar-joyni arxitekturaviy loyihalash turar-joy siyosatini amalga oshirishning zaruriy jihatlaridan biridir. Arxitektorlar bu siyosatni hayotga tadbiq etishida ishtirok etadilar. Turar-joy yacheykasiga ijtimoiy – funksional talabalarni hisobga olish birinchidan, ommaviy turar-joy o‘z xohishlarini arxitektorga ayta olmaydigan noma’lum iste’molchi uchun umumiy loyihalash doirasida yaratilishi bilan, ikkinchidan, talablarni ijtimoiy turar-joy fondini taqsimlash va aholini joylashtirish xususiyatini belgilab beruvchi amaldagi me’yorlarning qat’iy chegaralarida hisobga olish zarurligi bilan murakkablashadi. Xonadonda iste’molchilik talablarini hisobga olish uchun bunday vaziyatda hal qilish kerak bo‘ladigan vazifalar 20-asrning boshida V.Gropius tomonidan “harakatchan hayot uchun ularga xizmat ko‘rsatishi kerak bo‘lgan bino-inshootlar” konsepsiyasi doirasi ifodalangan edi. Bu vazifalar quyidagicha keltiriladi:

Oilalar xonadonga talablarni belgilovchi belgilar bo‘yicha tasniflanadi;

Talablari bir xil bo‘lgan oilalar soni va ularning aholidagi ulushi aniqlanadi.

Har xil guruh oilalarning kvartirani fazoviy tashkil etishga talablar ijtimoiy arxitektura tadqiqotlar yordamida aniqlanadi.

Oilalarning kvartiraga bo‘lgan talablar xususiyatiga ko‘ra tegishli toifaga mos keluvchi xonadonlarning ijtimoiy tipologiyasi quriladi;

Turar-joy fondida har bir turdagi xonadonlarning zarur miqdori va ulushi aniqlanadi (turli talabga ega oilalar tuzilmasiga muvofiq).

Har bir turdagi xonadonlar amaldagi me’yoriy xujjatlar (QMQ, SHNK) chegaralarida aniqlangan talablarni hisobga olib loyihalanadi.

Har bir alohida shaxs uchun umumiy loyihalar bo‘yicha turar-joy uylarini ommaviy qurish sharoitida bu masalalarni hal etishdagina mos keladigan turar-joyni tanlash imkoniyati yaratiladi. Turar-joy siyosati turar-joy uylarini ommaviy qurishni o‘z ichiga oladigan barcha hududlarda sanab o‘tilgan masalalarni hal qilish bo‘yicha ish uy quruvchi firmalarning munitsipal organlari va xizmatlari tomonidan muntazam olib boriladi.

**Ommaviy turar-joyga ijtimoiy – funksional talablarni** aniqlashda muhim konseptual lahza shakli, kattaligi, tarkibi va rejaviy elementlarni joylashtirish bo‘yicha farq qilinuvchi turar-joy yacheykalari tipologiyasini anglashdan iborat, turar-joy va turmush rivoji tabiiy tarixiy jarayoni; havaskor turar-joy qurilishi; shaxsiy buyurtmalar bo‘yicha loyihalash doirasida shakllanadi. Ommaviy qurilish turar-joyining noma’lum iste’molchisi talablarni hisobga olish uchun birinchidan, turar-joy yacheykasining har bir turiga “aniq manzil” topish va uni

iste'molchilarning ma'lum turi bilan taqqoslash; ikkinchidan, fazoviy tavsiflarni real texnik va iqtisodiy imkoniyatlarga qo'llanilgan holda aniqlashtirish zarur.

Tadqiqotlar davomida shu narsa aniqlandiki, turar-joyga ijtimoiy funksional talablar, birinchidan, iste'molchilarning o'zlarining tavsiflariga oilalar va boshqa maishiy jamoalarga, ularning ijtimoiy funksiyalariga, ularning holatiga (doimiy yoki vaqtincha) ikkinchidan, hayot tarzining qanday tavsiflariga, kundalik faoliyatiga, xar bir faoliyat turining texnologiyasi va tashkil etilishiga, turmush tarziga va h.k.ga bog'liq. Bundan tashqari, turar-joyga ijtimoiy funksional talablar tabiiy va texnik omillarga-iqlimga, hududning o'zlashtirilishi darajasiga, binolarning muhandislik qurilmalariga, sanoat ishlab chiqarayotgan mebelning assortimentiga bog'liq.

Turar-joy yacheykasiga ijtimoiy - funksional talablarni, ularning turmush tarzining tavsiflarini aniqlovchi ijtimoiy omillarni loyihalashda tahlil va hisobga olish lozim, chunki u yoki bu tavsiflar vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Turar-joy yacheykalarini loyihalashda oilani rivojlantirish ta'limoti to'g'risidagi masala alohida ko'rib chiqiladi.

## **1.2 Turar-joy iste'molchilarining xususiyatlariga bog'liq bo'lgan turar-joy yacheykalarga talablar**

**Birlamchi maishiy birliklar** – turar-joy iste'molchilari-shakliga ko'ra oilali, oilasiz bo'lishi mumkin. Oilali-bu oila va oilaviy guruh, oilasizlar - yakka yashovchi va maishiy jamoa.

Yakka yashovchilar ikki turga bo'linadi. Ularning bir qismi doim mustaqil yashaydi, bir qismi esa o'qish, ish, harbiy xizmat va h.k. munosabati bilan oiladan tashqari uzoq vaqt alohida yashaydi. Agar, bunday yakka yashovchilar guruhi o'z turmushini "umumiy qozon" qoidasi bo'yicha tashkil etsa, u holda maishiy jamoa vujudga keladi. U norasmiy guruhni (yotoqxonadagi qo'shnilar), rasmiy maqomga ega bo'lishi (rasmiy bolalar dam olish va tashkiliy sayyohlar guruhi) mumkin. Ular mamlakatning ma'lum bir kichik qismini tashkil etishi mumkin, shu bilan birga ularning ulushi va absolut miqdori ortib bormoqda. Bu toifadagi odamlar orasida 50 yoshdan katta ayollar ko'pchilikni tashkil etadi.

**Oila** – bu turmush umumiyliklari va o'zaro mas'uliyat bilan bog'langan kishilarning nikohga va qarindoshlikka asoslangan birlashmasidir. Agar oila a'zolari birga yashashsa, ovqatlanishsa, uydagi ishlarni bajarishsa, umumiy budjetga ega bo'lishsa, u holda oila turar-joy yacheykasi iste'molchisi sifatida ishtirok etadi.

Oilalar oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Oddiy oila eru –xotindan yoki ota-onalar (ulardan biri) va bolalardan iborat bo'ladi. Murakkab oilaga nuklear oila qarindoshlari bilan birga kiradi (masalan bolalar, ota-onalar, buvi, dada). Hozirgi vaqtda oilalarning nuklearizatsiya-ylanishi, oilalarni bo'linishi, murakkab oilalarning oddiy oilalarga bo'linishi kechmoqda, lekin bunday oilalar aro munosabat va o'zaro yordam berish saqlanib kelmoqda.


Oilaviy guruhlar o'z ichiga bir necha oilani (oilalar va yakka yashovchilarni) qamrab oladi. Ular barqaror har kunlik xo'jalik, madaniy, psixologik aloqalar bilan bog'langan. Ko'pincha ular oddiy oilalarga bo'lingan sobiq murakkab oilalardir, ko'pdan ko'p hollarda bir – biriga yordam beruvchi maishiy kommunalardir, qarindosh bo'lmagan oilaviy guruhlar aholining 25% gacha birlashtiridi.

Doimo mustaqil yashovchi oilalarni va yakkalarni joylashtirish uchun zamonaviy turar-joy standartiga muvofiq kvartira turar-joy yacheykalari zarur. Bu avvalo oddiy xonadonlar va tomorqalardir, ya'ni xonadon yonida yer uchastkalari va hovlida qurilishlari bo'lgan xonadonlar yoki uylardir. To'lalik va obodonchilikning teng darajasida tomorqa oddiy xonadonga qaraganda yacheykaning yanada qulay turi hisoblanadi.

Turar-joy yacheykalarining barcha turlari doimiy yoki uzoq vaqt yashash uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari, aynan bir iste'molchining qisqa muddat ichida-dam olishida, xizmat safarida safarbarlik vaqtida, evokuasiyada va h.k. foydalaniladigan, oilalar va yakkalar uchun vaqtincha turar-joyning turli xillari mavjud. Vaqtinchalik turar-joy yacheykalariga mehmonxona xonalari, daladagi uylar, dam olish uylarida uxlaydigan joylar, sayyoxlik maskanlari, yig'ma yurtalar, palatkalar, pavilyonlar, ovchilarning joylari va h.k. Vaqtincha turar-joyning qulayliklari odatda doimiy va uzoq muddat yashaydigan joylarga qaraganda pastdir.

Birlamchi maishiy birliklar va avvalo oila jamiyatning va shaxsning moddiy va ma'naviy hayotida muhim vazifalarni bajaradi. Turmushni tashkil etishda mustaqillik, maishiy avtonomiya har biri bunday birlikning to'g'ridan-to'g'ri tashqi nazorat va bosim uchun "yopiqlikni" ta'minlaydi, o'z qonuniyatlari bilan yashovchi alohida dunyoni yaratishga, o'zining har bir a'zosini begonalarning uning shaxsiy hayotida aralashishidan ximoyalashga imkon beradi. Me'yorida faoliyat yurituvchi turar-joyni shunday ruxiy sharoitini yaratadiki, unda inson o'zini "uyidagidek" xis qiladi, o'z-o'zi bilan bo'lishi mumkin. Ximoyaviy – psixologik vazifa oilaga xam, yakka yashovchiga ham, oila guruhiga ham, maishiy jamoaga ham xosdir.

Oila (kam darajada boshqa maishiy jamoalar) bundan tashqari, yana bir shaxsiy vazifani insonning yaqin odamlari bilan alohida bo‘lib, alohidalikka, alohida mazmunli muloqotda va o‘zaro bir-birini tushunishda “biz” deb aytish imkonini berishda ehtiyojlarini qanoatlantiradi. Ikkala shaxsiy funksiyalarning qo‘shilishi – tashqi nazoratdan himoya qilish va yaqinlar bilan alohidalanish – ko‘p sonli guruhlarda har bir kishi yolg‘izlanish va muloqot qilish o‘rtasida, oila bilan muloqot qilish o‘rtasida, oilaning alohida a‘zolari bilan, o‘z mehmonlari bilan, butun oila mehmonlari bilan muloqotni tanlash imkoniyatiga ega bo‘lishni talab etadi.



**Oila strukturasining tuzilishini hisobga olish bilan turar-joyini shakllantirish [ 4 ].**

**Biodemografik qayta tiklash** katta yoshdagilarning hayotini va salomatligini qo‘llab quvvatlash, bolalarning tug‘ilishi va ularning hayoti sog‘ligini qo‘llab – quvvatlash kabi funksiyalarni qamrab oladi. Turmush doirasida ijtimoiy – madaniy qayta ishlab chiqarish quyidagi funksiyalarini qamrab oladi: madaniyatning maishiy tabiiyligini saqlab qolish va rivojlantirish; axborot yaratish va o‘zlashtirish, ijtimoiy madaniy tajribani yangi avlodlarga uzatish (bolalarni tarbiyalash va o‘qitish).

Turmushda iqtisodiy qayta ishlab chiqarishga uyga qarash (parvarish qilish) va yashash uchun vositalarni (moddiy va pul) ta'minlash.

Birinchi funksiya barcha uy xo'jaliklari uchun xosdir, ikkinchisi esa ijtimoiy ta'minotda bo'lganlarda (pensionerlar, stipendiya oluvchilarda) yo'qdir.

Aytib o'tilgan barcha funksiyalar turar-joyga qo'yiladigan ijtimoiy-funksional talablarga ta'sir ko'rsatadi. Tashqi nazoratdan himoya qilish funksiyasi, avvalo, turar-joyni begonalardan alohida qilish talablarini vujudga keltiradi, bu ayniqsa dam olish vaqtida, aloqalar alohidalikdan ko'ra muhimroq bo'lgan yoshlarda ancha kam rivojlangan. Yoshlar turizmi muassasalarida yotadigan joylar, masalan, bir xonada 4-6 ta qilib joylashtirilishi mumkin. 2-3 kishilik qilib ajratilishi bu yerda ham tashqi nazoratga qo'shnilar tomonidan "ochiqlik" ortiqcha noqulayliklar keltirmaydi.

Zamonaviy sharoitlarda xonadonning shaxsiy hududi alohida turar-joy xonasini yoki bunday xonaning bir qismini ifodalaydi. Amaldagi turar-joy qonunchiligi bir xonada 5-7 yoshdan katta turli jinsdagi shaxslarni (er – xotindan tashqari) joylashtirilishiga yo'l qo'yilmaydi, biroq u alohida turar-joy xonalarida yotoq joylarini joylashtirishga yo'l qo'yadi, va binobarin, shaxsiy hududlarning umum oilaviy hududlar bilan qo'shilishiga yo'l qo'yadi. Yotadigan joylari bo'lgan xonalar soniga talab natijasida oila a'zolari soniga bog'liq holda, uning yosh jins tarkibiga bog'liq holda, oiladagi er-xotin juftlari soniga qarab shakllanadi.

Oilalarning yotoq xonalari soniga talablarini xonadonning o'lchamiga bo'lgan talablar bilan birga qo'shilganda bir xil o'lchamdagi va xonalar soni ham bir xil bo'lgan xonadonga turar-joy qonunchiligini buzmaganda turli kattalikdagi va tarkibdagi oilalarni joylashtirish mumkin. Bu, ommaviy turar-joyni loyihalashda har bir turdagi xonadonlarga turli xildagi oilalarni joylashtirishga moslashtirish zarur. Bunda zarur yotoq xonalari soni oila a'zolari soniga teng bo'lishi mumkin ("ona – 9 yoshdan katta o'g'il" oilaga yotoq joyi bo'lgan ikki xona kerak), shuningdek oila a'zolari sonidan bitta kam bo'lishi mumkin (oilaga, otaga, ikki o'g'il va ikki qiz) uchta yotoq xonasiga joylashtirishi mumkin.

Shahar, shahar yaqini turar-joy fondini rivojlantirishni rejalashtirishda, mikrorayonlar turar-joy uylari blok seksiyalari umumiy loyihalari seriyalarini loyihalashda turli o'lchamdagi va xonalar soni turlicha bo'lgan xonadonlarni qurishning zarurligini aks ettiruvchi aholining oilaviy tuzilmasi hisobga olinishi kerak. Buning uchun turar-joyga ehtiyoji bo'lgan oilalar xonadonlarning

o'lchami va xonalari soniga bir xil talablar qo'yuvchi guruhlariga birlashadilar, shundan so'ng har bir guruhning solishtirma vazni aniqlanadi. Yangi turar-joy qurilishining rejalashtirilayotgan tuzilmasi xonadonlarni olishga nomzodlarning yig'indisiga mos tuzilmasiga yaqinlashadi. Bu talabni hisobga olish ijtimoiy - demografik axborotni turar-joyni umumiy loyihalash asosi sifatida muntazam to'plash zarurligi bilan bog'liq.

| KVARTIRA<br>TURI | OILADAGI<br>ODAMLAR<br>SONI | OILA TURLARI |
|------------------|-----------------------------|--------------|
| 1A               | 1                           |              |
| 1B               | 1                           |              |
| "                | 2                           |              |
| 2A               | 2                           |              |
| 2B               | 3                           |              |
| 3A               | 3                           |              |
| "                | 4                           |              |
| 3B               | 3                           |              |
| 3B               | 4                           |              |
| "                | 5                           |              |
| 4A               | 4                           |              |
| "                | 5                           |              |
| "                | 5                           |              |
| "                | 6                           |              |
| 4B               | 4                           |              |
| "                | 6                           |              |
| 5A               | 5                           |              |
| "                | 5                           |              |
| "                | 6                           |              |
| "                | 6                           |              |
| 5B               | 6                           |              |
| "                | 7                           |              |



UYLANGAN JUFTLIK



OILANING KATTA A'ZOSI



GO'DAK BOLA (0-4 YOSHLI)



O'G'IL BOLA, QIZ BOLA (5-15 YOSH)

Oilalar turlari va unga mos xonadon turlari (ЦНИИЭП жилища).


Oilaning ijtimoiy funksiyalariga ijtimoiy - madaniy, iqtisodiy va biodemografik funksiyalar kiradi. Oilaning ijtimoiy - madaniy funksiyasi uning maishiy turmush rivojini saqlab qolish va yangi axborotni o'zlashtirish, ijtimoiy -madaniy tajribani yangi avlodlarga uzatish - turar-joy yacheykasiga turli xil talablarni vujudga keltiradi.

Oila-halqning chuqur madaniyatini asosiy saqlovchisidir. Maishiy madaniyatni saqlab qolish va rivojlantirish urf - odatlar, an'analar, tari-xan qaror topgan ijtimoiy madaniy normalar, e'tiqotlar, dunyoni idrok etishining xususiyatlarini, dunyoni sezishni, dunyoni talqin qilishga amal qilish, qayta qayta tiklashda mujassam etgan. "Tabiiy" madaniyat turmushga – predmet muhitining o'ziga xos xususiyatiga, kundalik faoliyat xususiyatiga, uy xo'jaligi tuzilmasiga, halq turar-joyini rivojlantirishiga organik tarzda montaj qilingan.


Madaniy jihatdan oilalar bir xil turda emas: ularning har biri o'zi taalluqli bo'lgan ijtimoiy guruh an'analarini qayta tiklaydi. Hozirgi sharoitda milliy, shahar va qishloq madaniyatining o'ziga hos xususiyati to'g'risida gapirish mumkin. Bu tasniflar bir biri bilan bog'liq, chunki milliy xususiyatlar mustaqillik vaqtlargacha qishloq joylarda shahardagiga nisbatan ancha barqaror bo'lgan edi.

Juda yirik, yirik, katta shaharlar uchun xos bo'lgan shahar maishiy madaniyati, ko'p jihatdan baynalmilal bo'la borib, tez o'zgardi. Biroq milliy xususiyatlar to'la yo'q bo'lib ketmaydi: ular chuqurlikda, saqlanib qolgani holda sirtida o'chirilib ketadi xolos. Masalan shaharlarda oilalar tarkibi, oila va oilalararo muloqot xususiyati, bir qator maishiy jarayonlarni va h.k. larni tashkil etdi va texnologiyasi sezilarli funktsiyalanadi. Aholi orasida birinchi avlod qishloq migrantlari ulushi katta bo'lgan shaharlarda milliy an'analar ayniqsa ravshan namoyon bo'ladi.


Aholining migratsion harakati bo'lgan hududlarda qishloq hayoti ancha yoyilgan bo'lib, unda nisbiy xo'jalik mustaqilligi va halqlarning madaniy xususiyati sharoitida ming yillar davomida ishlab chiqilgan milliy jihatlar ko'proq darajada saqlanadi. Turar-joy yacheykalarini loyihalashda maishiy madaniyatning o'ziga xos xususiyatini aniqlash va hisobga olish zarur bo'lib, u turmushning barcha tomonlarini qamrab oladi. Milliy xususiyatlar, an'analar, ijtimoiy - madaniy yo'nalishlar oilaning miqdoriy tarkibiga, avlodlar soniga va undagi bolalar soniga, kundalik hayot faoliyati jarayonlarini tashkil etishga, qurilmalarga, turar-joyning jihozlanishiga, rejalashtirilishiga ta'sir ko'rsatadi.



UMUMOILAVIY ZONASI



MEHMONHONA ZONASI



SHAXSHIY ZONASI

Aloqador bo'yicha turar-joy yacheykasini zonalash asosi [ 4 ]


### 1.3 Turar-joy yacheykalarining ijtimoiy tipologiyasi

Turar-joy yacheykalarining ijtimoiy tipologiyasi oilalarning madaniy - maishiy turlarining har xilligini aks ettirishi kerak. Qishloq va shahar aholisining bir xil xonadonlariga joylashtirish oilaning eng muhim ijtimoiy - madaniy vazifasini bajarishini qiyinlashtiradi. Boshqa ijtimoiy-madaniy funktsiya yangi axborotni yaratish va o'zlashtirish hayot faoliyatining o'ziga xos jarayonlarida namoyon bo'ladi: o'qishda, ta'lim olishda, teledasturlarni ko'rishda, musiqiy yozuvlarni tinglashda, foto havaskorlikda. Uning xususiyati oilaning hayot tarzida namoyon bo'ladi va uning mazmuni orqali turar-joy talablarga ta'sir ko'rsatadi.

Oilaning majburiy biodemografik funksiyasini hisobga olish – kattalarning hayoti va sog'ligini qo'llab – quvvatlash – birinchi navbatda, sanitariya gigiyeniya talablarga va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish bilan, suv

ta'minoti, kanalizatsiya, chiqindini olib chiqish, ventilatsiya, o't o'chirish va h.k. ning samarali tizimini yaratish bilan ta'minlanadi. Sanitariya – gigiyenik talablar turar-joy xonalarining yuzalari va xajmlarini normalash asosida yotadi, turar-joylarning joylashtirilishini ishlab chiqarish korxonalariga, magistrallarga, bir-biriga nisbatan joylashtirishni normalash asosida, ularning dunyo mamlakatlariga nisbatan mo'ljallash olishiga va h.k. asosida yotadi. Bu talablarning bajarilishi ko'pchilik kasalliklarning ehtimolini jiddiy kamaytiradi.

Hayot va sog'liqni qo'llab quvvatlash funksiyasi turar-joy yacheykasiga kasalliklarning oldini olish va davolashga mahsus yo'naltirilgan hayot tarzi jarayonlariga kiritilgan jarayonlarni bajarish uchun sharoit yaratish kabi talablarni keltirib chiqaradi. Turar-joy yacheykasiga shunga o'xshash, lekin ancha qat'iy talablarni bolalarning hayoti va salomatligini qo'llab – quvvatlash funksiyalari shakllantiradi. Turar-joy sharoitlari oilaning eng muhim **Biodemografik funksiyasi** bilan aloqasi - bolalarning tug'ilishi - demograflar, sotsiologlar, arxitektorlar tomonidan bir necha marta o'rganilgan.



Bu tadqiqotlar bir qiymatli natijalarni beradi - turar-joy sharoitlari va oiladagi bolalar soni o'rtasida ham ijobiy, ham salbiy korrelatsiya aniqlangan. Oilalarning turar-joy sifatida sababiy bog'liqligini inkor qilishadi. Biroq, ayrimlarning ta'kidlashicha, tug'ilish past bo'lgan ijtimoiy guruhlar uchun turar-joy bilan ta'minlanganlikning yaxshilanishi oila bitta farzand bilan cheklanib qolishi ehtimolini biroz oshiradi. Aytilganlar faqat doimiy turar-joyga tegishlidir. Oilaviy yotoqxonalarda xonadonlar yuzining kichikligi, agar oila doimiy kvartira olish uchun harakatda turgan bo'lsa, u tug'ilishni kamaytirmaydi.

**Oilaning iqtisodiy funksiyalari** - uyni boshqarish va hayotiy vositalarni ta'minlash. Uyni boshqarish oilani bevosita oziq-ovqat, issiqlik, tozalik, buyumlar va umuman odamlarning sog'lig'i va hayotini qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan barcha narsalar bilan ta'minlaydi, bu esa biodemografik qayta ishlab chiqarish uchun moddiy sharoitlar yaratadi. Uyni boshqarish ijtimoiy - madaniy qayta ishlab chiqarish uchun ham muhimdir oilaviy xo'jalik ukladi ijtimoiy normalarni qayta tiklaydi, tarixan qaror topgan etalonlarga amal qiladi va h.k.

Uyni birgalikda boshqarish oilani jipslashtiradi, ularga bolalarning jalb qilinishi ularning ijtimoiylashuvini tezlashtiradi. Uyni boshqarish oilaning hayot tarzi asosini tashkil etuvchi aniq turlarda mujassamlashadi.

Hayotiy vositalarni ta'minlash usullari aniq jarayonlarda namoyon bo'lib, u turar-joyga talablar turlicha bo'lishiga olib keladi. Bu talablar uydan tashqari korxonalarda ishlaydigan aholining qismida bu talablar eng mustaxkam; ularga ishlab chiqarish mehnati uchun sharoit yaratish kerak; turar-joylarda bunday sharoitlar zarur. Bu turar-joy yacheykalarining turli xillariga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi: kompozitorga, hunarmandga, ko'pincha amaliyot bilan shug'ullanuvchi doktorga, dehqonga turar-joyda turli xil "ishlab chiqarish" hududlari kerak.

Umuman, funksiyalar turar-joy yacheykalariga bo'lgan talablarga ta'sir ko'rsatadi deb aytish mumkin, birinchidan bevosita ta'siri orqali turar-joy yacheykasini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi:

- oilaning shaxsiy funksiyalari xonadonni mansubligiga qarab zonalarga ajratishga talablarni belgilab beradi;

- yangi avlodga maishiy madaniyatni uzatishni saqlab qolishi, rivojlantirishning ijtimoiy madaniy funksiyalari turar-joyning fazoviy tashkil etilishi va qiyofasining an'analar, urf-odatlariga, qadriyatli ko'rsatmalarga muvofiqlik talablarini belgilaydi;

- hayot va sog‘liqni qo‘llab-quvvatlashning biodemografik funksiyasi turar-joy muhitiga sanitariya-gigiyenik talablarni shakllantiradi;

- iqtisodiy funksiyalar hayotni va sog‘liqni qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy funksiyalari turar-joy yacheykasining kattaligiga va qulayligiga ta’sir qiladi.

Ikkinchidan, bu ta’sir maishiy jarayonlarning tarkibi va tavsifi orqali ko‘rsatiladi; ya’ni hayot tarzi orqali, uning xususiyatlari turar-joy yacheykalarini arxitekturaviy loyihalashda hisobga olinadi.

#### **1.4 Hayot tarzi xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan turar-joy yacheykalariga talablar**

Hayot tarsi individ, ijtimoiy guruh, umuman jamiyatning hayotiy faoliyatlari umumiy ko‘rinishlarining yig‘indisini qamrab oluvchi toifa bo‘lib, u hayot shartlari bilan birlikda olinadi. Hayot tarzi ko‘pgina tavsiflar va ko‘rsatkichlar yordamida tavsiflanadi. Turar-joy yacheykasiga talablar ko‘pgina tavsiflar va ko‘rsatkichlar yordamida ifodalanadi. Turar-joy yacheykasiga talablar hayot tarzining uchta xususiyatiga bevosita bog‘liq:

Yacheyka iste’molchilari hayot faoliyatining turlarining tarkibiga: hayot faoliyatining har biri turi va jarayoni unga mo‘ljallangan aniq bir joyda tashkil etiladi; turar-joy yacheykasida va uning atrofida unda bajaradigan hayot faoliyati turlari va jarayonlari uchun hududlar kerak. Hayot faoliyatining har bir turi va jarayonini tashkilotish va texnologiyasini tashkilotish texnologiyalar faoliyati o‘rnini (hududini) joylashtirishga, uning jihozlashiga, o‘lchamiga, konfiguratsiyasiga talablarni belgilaydi. Hayot stili, ya’ni turar-joy iste’molchilarining kundalik faoliyatida mujassam bo‘lgan motivlarga, mo‘ljallarga, afzalliklarga, qadriyatli ko‘rsatmalarga bog‘liq bo‘ladi; hayot stili u yoki bu jarayonlarni tanlashda, ularni tashkil etishda va texnologiyasida namoyon bo‘ladi.

Turar-joy yacheykasining talablarini aniqlash maqsadida yacheykaning hayot tarzi yoki uning ayrim tashkil etuvchilarini o‘rganish iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda 1920-yillaridan beri olib borilmoqda. Xonadonga talablar hayot faoliyatini bosqichma bosqich tahlil qilish davomida aniqlanadi. **Birinchi bosqich**-bu hayot faoliyati turlarining umumiy tarkibini aniqlash, har bir turni kompleks jarayonlarga ajratish, bu jarayonlarning turar-joy yacheykasi va atrofi (hizmat ko‘rsatish muassasalari, ochiq hududlar, xonadonga xo‘jalik qo‘shimchalari) o‘rtasida taqsimlash to‘g‘risida ma’lumotlar yig‘ish.

**Ikkinchi bosqich**– kompleks jarayonlarni oddiy jarayonlarga ajratish va ularni taqsimlash to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plash: oila a’zolari o‘rtasida va oila ichi guruhlar o‘rtasida taqsimlanishi; shaxsiy, umumoilaviy va mehmonxona hududlari o‘rtasida ularning taqsimlanishi to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plashga ajraladi. Shu bosqichning o‘ziga har bir hudud jarayonlarini qo‘shib ishlatish imkoniyati o‘rnatiladi yoki ularni turli xil xonalarga taqsimlash belgilanadi. Bosqichning natijasi - oila uchun zarur xonalar ro‘yxati va ulardan har birining funksional dasturi aniqlanadi.

**Uchinchi bosqich** – qurilmani tanlash, “maishiy jarayonlar zonasini” shakllantirish, hududlarni xonalarda joylashtirish. Maishiy jarayonning har bir hududi quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oladi: “buyumlar o‘rni” – mebel va ishchi holatdagi qurilmalar bilan band yuza, “odamlar o‘rni” – faoliyat bajaruvchi odamlarni joylashtirishi yuza; odamlarning qurilmadan foydalanishlari uchun xaxira va kommunikatsion yuza. Bosqich natijasida – xar bir xonadagi mebel va qurilma ro‘yxati, xonalarda joylashtiriladigan maishiy jarayonlar, funksional hududlar ro‘yxati, har bir hududning o‘lchamlari va konfiguratsiyasi bo‘yicha tavsiyalar, xonaning minimal zarur gabaritlari va yuzalari bo‘yicha tavsiyalar, uni rejali tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar.

**To‘rtinchi bosqich** – hayot tarzini tahlil qilish, turli xil maishiy jarayonlarni bajarishda xonalar va hududlar orasida harakatlanishlarning nisbiy jadalligini aniqlash va xonalarni xonadonda shaxsiy umumoilaviy, mehmonxona hududlarini ajratish zarurligini hisobga olib, o‘zaro joylashtirishi bo‘yicha tavsiyalar. Umuman, tahlil hayot tarziga bog‘liq bo‘lgan turar-joy yacheykasini fazoviy tashkil etishga talablarni aniqlashga imkon beradi.

Tahlilning dastlabki lahzasi–turar-joyning iste’molchilariga, faoliyatturlariga xos bo‘lgan o‘zgaruvchilar tarkibini aniqlashdir. Ularga quyidagilar kiradi: o‘ziga qarash, ovqatlanish, buyumlarga va turar-joyga qarash, axborot (ma’naviy – amaliy madaniy) faoliyat ham zarur, ham erkin tanladigan jarayonlarni o‘z ichiga olib, ular bir-biridan faoliyat subyektiining ularga munosabati bilan farq qiladi. Tanlab olinadigan jarayonlarga sarflanadigan vaqt erkin vaqt hisoblanadi. Masalan, o‘ziga qarash tarkibida erkin tanlanadiganlar bo‘lib (bo‘sh vaqtda bajaraladigan) salomatlik yoki chiniqtirish guruhlarida ishtirok etish, mustaqil ravishda jismoniy mashqlar bajarish va h.k. kabi jarayonlar hisoblanadi, ammo uyqu, yuvinish, kiyinish zaruriy jarayonlarga kiradi.

Hayot tarzini o'rganishda hayot faoliyatining zarur turlarining boshqa tasniflari ham qo'llaniladi. Fiziologik ehtiyojlarni qondirish; bo'sh vaqt yoki bo'sh vaqtdagi faoliyat; uy ishlari ko'pincha ajratiladi. Bu holda uy mehnatiga uyni va shaxsiy tomorqa xo'jaligini yuritish bilan bog'liq barcha jarayonlar, shu jumladan ovqat tayyorlash kiradi; fiziologik ehtiyojlarni qondirishga – barcha hayotiy zarur jarayonlar va holatlar (uyqu, ovqat yeyish, faoliyatsiz dam olish va h.k.).

Aralash tasniflar ham qo'llaniladi, masalan, o'ziga qarash, ovqatlanish, bo'sh vaqt (erkin tanlanadigan faoliyat), buyumlar va turar-joyga qarash (xo'jalik – maishiy faoliyat). Ko'pchilik oilalarda kattalar ishlab chiqarish mehnati bilan bandlar. Agar ular doimiy yoki kooperativ korxonalarida ishlashsa, oilaning hayot tarzi ijodiy xodimlar, pedagoglar, xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchilar va hunarmandlar va boshqalarning "ishlab chiqarishdagi ish va u bilan bog'liq jarayonlar" faoliyat turi bilan to'ldiriladi. Faoliyatning alohida turi uyda ishlab chiqarish mehnati bo'lib qoladi. Hayot tarzi-da hayot faoliyatining o'ziga xos turlarining mavjudligi oilaning turar-joy yacheykasiga bo'lgan ijtimoiy - funksional talablarini kengaytiradi.

Hayot tarziga bog'liq bo'lgan turar-joyga talablarni aniqlashda faqat bugungi emas, balki prognoz qilinayotgan hayot tarzini ham tahlil qilish kerak, chunki talablarni aniqlash paytidan bu talablarni hisobga olib qurilgan turar-joydan foydalanishgacha bir necha yil o'tadi, bu shartni bajarish uchun hayot tarzining rivojlanish an'alarini bilish kerak. Hayot tarzining boshqalardan jiddiy farqli har bir turini tahlil qilish zarur. O'rtachalashtirilgan, hech kimni qanoatlantirmaydigan turar-joy olmaslik uchun turli xil talablarni o'rtachalashtirilmaslik kerak, bu shartni bajarish uchun hayot tarzi tipologiyasining shakllanish qonuniyatlarini bilish kerak. Oilalarning hayot tarzi rivojlanish an'analari ko'pchilik tadqiqotchilar-sotsiologlar, iqtisodchilar, arxitektorlar, psixologlar tomonidan o'rganildi. O'rganish usullaridan biri "o'rtacha-statistik" odamning, oilaning yoki ayol-uy bekasining vaqt budjetini aniqlash hisoblanadi.


Vaqtни taqsimlash oilaning hayot sharoitlari to'g'risida, uning uchun turli jarayonlarning ahamiyati haqida, uning uchun turli jarayonlarning ahamiyati to'g'risida dalolat beradi. Ma'lum bir oraliqda o'tkaziladigan vaqt budjet me'yorlarini muntazam tadqiq etish hayot tarzi rivoji an'alarining rivojlanish an'analari to'g'risida fikr yuritishiga imkon beradi. Vaqt budjeti real rivojining asosiy muammosi - uy mehnatiga vaqt sarflarining kamayish yoki hatto ortish sur'atlarining yetarli emasligidir. Jamiyatda uy mehnatini kamaytirishga ham,

oshirishga ham olib boruvchi omillarning ikki guruhi bir vaqtda amal qiladi. Birinchi guruhga xonadonlardagi kommunal qulayliklar kiradi, foydalanishda qiyin bo‘lmagan buyumlar (konservalar, pishiriqlar, bir marta foydalanadigan choyshab va idish – tovoqlar), maishiy texnika, maishiy xizmat muassasalari tarmog‘ining kam darajada rivojlanganligi.

Ikkinchi guruh – turar-joy ta’minotining o‘shishi, turar-joyning tozalagiga talabning oshirilishi (tozalash va ta’mirlashga vaqt sarfining oshishiga olib keladi), ovqat sifatiga talabning oshirilishi (uni tayyorlashga sarflanadigan vaqtning oshishiga olib keladi), murakkab oilalarni ajratishi, to‘liq bo‘lmagan oilalarning katta ulushda ekani (o‘zaro yordam murakkabligi tufayli vaqt sarfining oshishiga olib keladi) va boshq. Agar maishiy mashinalar, chala tayyor mahsulotlar va shu kabilar keng tarqalsa, uy mehnatiga vaqt sarfli ancha qisqaradi, bo‘sh vaqt miqdori ortadi. Hayot tarzi rivojining an‘nalarini faqat vaqt budjetini tuzish yo‘li bilangina emas, balki oilaning hayot faoliyati turlarining “murakkablik” ko‘rsatkichlarini tahlil qilish bilan ham o‘rganish mumkin.

Hayot faoliyati ko‘rinishning murakkabligi uni tashkil etuvchi jarayonlarning har xilligi, ularni tashkil etish va texnologiyasining xilma-xilligi, xonadonning fazoviy yechimiga va qurilmalariga buyumlar bilan ta’minlanganlik darajasi bilan tavsiflanadi. Masalan, uyda musiqa bilan shug‘ullanishni o‘z ichiga oluvchi bo‘sh vaqt. Kino havaskorlik, texnik ijod va h.k. lar o‘qish, to‘qish, faoliyatsiz dam olishni o‘z ichiga oluvchi bo‘sh vaqtdan murakkabroqdir. Xuddi shunga o‘xshash o‘z – o‘ziga xizmat ko‘rsatish, kir yuvish muassasasida kir yuvish, uyda mashinada kir yuvishdan, barcha kirni uyda qo‘lda yuvishdan murakkabroqdir, holbuki oxirgisi ko‘proq vaqt sarflanishini talab etadi.

Vaqt budjetini qurish yordamida hayot tarzi tuzilishini o‘zgartirishning real an‘analari, xonadon va uning atrofi o‘rtasidagi jarayonlarni taqsimlashning real yo‘nalishlari aniqlanadi. Faoliyat turlarining murakkabligini tahlil qilish bu yo‘nalishlarni ma’lumot va farovonlik darajasi bilan, shuningdek turar-joy talablariga bevosita ta’sir ko‘r-satuvchi hayot faoliyatining predmetli ta’minlash xususiyati bilan bog‘lashga imkoniyat beradi. Turar-joyni loyihalash uchun oilaning qadriyatli mo‘ljal olishlarini rivojlantirish yo‘nalishlari, uning hayot tarzining turli xil utilitar amaliy, professional, umummadaniy qadriyatlarining turli birikmalarda yo‘naltirilganligi muhimdir.



**Oila tarkibidagi mos turar-joy yacheykasini yotoqxona to'plami [ 4 ]**

Oilaning hayot tarzi quyidagilarga bog'liq: Oilaning xususiyatlariga uning tarkibi, funksiyalari, milliy mansubligi, qadriyatli mo'ljallari, mulkiy holatga;

Turar-joy muhitning xususiyatlariga – turar-joy yacheykasi (muhandislik qurilmasi, mebel, maishiy texnika, turar-joy yacheykasining o'lchami va fazoviy tashkil etilishi), tashqi turar-joy muhimiga (joyning iqlimi va tabiiy landshafti,

hududning o'zlashtirilganlik darajasi, jamoat xizmat ko'rsatish muassasalarning mavjudligi) va h.k. Hayot tarzi tipologiyasini aytib o'tilgan belgilarning istalganiga asoslanib qurish mumkin. Mumkin bo'lganlar orasida hayot tarzining shunday turlarini tanlab olish muhimki, ular ommaviy turar-joyning ijtimoiy tipologiyasi ososiga qo'yiladi.

### **1.5 Qishloq va shahar turmush tarzi**

**Qishloq (an'anaviy) turmush tarzi** - qadriyatlarning an'anaviy tizimiga mo'ljall olish, qadriyatli mo'ljallarni avloddan avlodga o'tkazish; matbuot, milliy va hududiy xususiyatli nisbiy barqaror yo'llar orqali axborotdan foydalanish bilan; mehnat shakllarining an'anaviyligi; ta'minlash va o'ziga xizmat ko'rsatishning o'ziga ko'proq mo'ljall olish; yakka tartibdagi faoliyatning rivojlanganligi; qarindoshlik va qo'shnichilik aloqalarining barqarorligi va bir qator boshqa jihatlar bilan tavsiflanadi. Qishloq hayot tarzi juda ko'p modifikatsiyalarga ega milliy hududiy, ishlab chiqarish (masalan, dalada ishlovchilar-chorvachilarda va h.k.da turlichadir), ular turar-joyning fazoviy tavsiflarida aks etadi. Qishloq hayot tarzi uning an'anaviy ifodasida bugun amaliy jihatdan uchramaydi. Ammo uning ta'rifi hayot tarzini urbanizatsiyalash an'analari tavsiflari uchun muhimdir.

**Shahar turmush tarzi** - uning etalon ifodasida ijtimoiy jarayonlarning dinamikligi, ijtimoiy norma va stereotiplarning o'zgaruvchanligi, tabiiy, oilaviy-turmushga nisbatan madaniyatni muvozanatli o'tkazish ustunligi bilan tavsiflanadi.

“Etalon” shahar turmush tarzi aniq qadriyatli mo'ljall olishning avvalo farqlari bilan vujudga kelgan bir qator modifikatsiyaga ega. Bu belgi bo'yicha hayot tarzining uchta asosiy turi ajratiladi:

1. Hayot tarzining ishlab chiqarish – mehnat turi faoliyatning boshqa barcha turlarini asosiy ish yoki asosiy mashg'ulotlar bilan bog'liq bosh faoliyatga bo'ysundirish bilan hosdir. Ish – bu turdagi oila qiziqishlarining bosh mazmuni va turar-joy yacheykasida tegishlicha fazoviy ifodalanishini, yakka tartibdagi faoliyat hududlarini rivojlantirishini talab etadi. Bu holda muloqot, dam olish, ijtimoiy madaniy iste'mol qilish kasbiy faoliyat manfaatlariga bo'ysunadi, uy mehnati esa vaqtni qisqartirishga aniq yo'naltirilgan bo'ladi.

2. Hayot tarzining xo'jalik - maishiy turi oilaviy – turmush manfaatlariga mo'ljall olish bilan bog'liq, bu ko'pchilik hollarda oilaning bolalarni parvarishlashga

mo'ljal olishi bilan qo'shib ketadi (birinchi turdagi oilalar uchun bu manfaatlar doirasi ikkinchi darajaga surib qo'yilgan). Hayot tarzining bu turida turar-joy yacheykasining fazosini shakllantirish maqsadlari uchun ikki xil turni ko'rsatib o'tish lozim:

- hayot tarzining asosiy oilaviy tadbirlarining tantanali kechishiga va mehmonlarni kutishga mo'ljallangan afzalli – dabdabali turi. Bu holda xonadonning mehmonlar kutiladigan va qisman umumoilaviy hududiga tantanavorlik xususiyatini berish talab etiladi.

- hayot tarzining butun oilani do'stlari bilan birga kundalik maishiy va qisman ijtimoiy – madaniy faoliyatga jalb qiladigan oilaviy – maishiy turidir. Bu holda umum oilaviy hududning qatta qismiga ishchi, xo'jalik xususiyatini berish talab etiladi.

3. Ijtimoiy – madaniy va bo'sh vaqt faoliyati ko'p vaqtni oladigan hayot tarzi. Bu yerda asosiysi qisqartirilgan xo'jalik – maishiy dasturda faoliyatning turli xil ko'rinishlarini qamrab oluvchi madaniyat va bo'sh vaqtda foydalanish. Bu turdagi kishining hayot tarzida turar-joy yacheykasining fazoviy modeliga talablar nuqtai nazaridan quyidagicha turlar farqlanadi:

Umumoilaviy madaniy-bo'sh vaqtli hayot tarzi, bunda madaniy tadbirlar butun oila bilan birgalikda va turar-joy yacheykasi chegarasida, hatto shaxsiy hududlar hisobiga umumoilaviy hududni asosan rivojlantirishga ehtiyoj sezib o'tkaziladi. Ma'lum oilaviy guruhlarning-bolalar, ota va o'g'illar, ona va qizlarning o'zaro aloqalariga asoslangan guruhiiy bo'sh vaqt hayot tarzi. Bunda shaxsiy va umumoilaviy hududlarga qo'shimcha tarzda mahsus guruhiiy hududlarini yaratish ehtiyoji vujudga keladi. Har bir oila a'zosining individual tarzda madaniy o'zini o'stirishi bilan bog'liq individual madaniy - bo'sh vaqt hayot tarzi. Bu hayot tarzi turi rivojlangan yarim funksional individual hududlarni talab etadi.

Aslida hayot tarzining bu turlari ko'p jihatdan chirmashib ketgan bo'ladi, biroq bu turlarning fazoviy talablaridagi farq oilalarning u yoki bu faoliyat turiga ko'proq mo'ljal olishini hisobga olishni talab etadi. Bunda umuman individual, guruhiiy, umumoilaviy, mehmon kutish hududlarining funksional dasturlari va fazoviy yechimlarining xilma – xilligi to'g'risida gap boradi.

Hayot tarzi turlarining eng ko'p xilma xilligi juda yirik va katta tez o'suvchi shaharlarda, avvalo poytaxt shaharlarida kuzatiladi. Bu yerda aholining ko'pchilik qismi xususan shahar hayot tarzida yoki qishloqdan shaharga o'tish tarzida yashaydi. Biroq ko'pchilik shaharlarda qishloq hayot tarzini saqlab

qolgan oilalar uchraydi. Bular tomorqali qurilish hududlarida joylashgan, yoki an'anaviy qadriyatli yo'nalishlarni saqlab qolgan shu tumanlarda azaldan yashab kelayotganlar, birinchi avlod qishloq migrontlari bo'lishi mumkin. Umuman hayot tarzida qishloq xususiyatlarining tarqalganligi hududda odamlarning ko'payishi bilan va ayniqsa uning o'sish sur'atlari tezlashishi bilan kamayadi: tez o'suvchi qishloq aholi punktlarida hayot tarzi urbanizatsiyasi o'smaydigan kichik shaharlarga nisbatan yorqin namoyon bo'ladi. Bunda shahar ichida qishloq hayoti tarzi markazga qaraganda chekkada ancha keng tarqalgan (hatto chekkada ko'p xonadonli ko'p qavatli uylar ko'p bo'lsa ham).

Qishloqlarning kattaligi va o'sish sur'ati hayot tarzining urbanizatsiyalashganligi bilangina bog'liq bo'lmay, balki uning asotsial shakllarining tarqanligi bilan ham bog'liq. Me'yordan og'ishlar tez o'suvchi, ayniqsa yangi shaharlarda va qishloqlarda juda tez bo'ladi, shaharlar ichida esa-birinchi avlod migrantlari yangi turar-joyga moslashmaganlar ko'chirilgan hududlarda, shuningdek turar-joy muhiti sifati past hududlarda juda tez bo'ladi. Hayot tarzining eng kam xilma-xilligi kichik rivojlanmaydigan qishloq hududlarida, qishloqning etalaniga yaqin bo'lgan hayot tarzi olib boruvchi ko'pchilik oilalarda (ko'pincha barcha oilalar ham) kuzatiladi.

### **1.6 Turar-joy yacheykasining fazoviy elementlari tipologiyasi**

Turar-joy yacheykasining xonalari, qurilishlari, ochiq fazolari tipologiyasi turar-joy qurilishi va loyihalashtirishining tarixan ko'p asrlik amaliyotida qaror topdi. Ijtimoiy - arxitekturaviy tadqiqotlarda xonalarning bu tabiiy qaror topgan xonalar tipologiyasidan foydalaniladi. U oilalar turmush tarzining zamonaviy va prognostik modellariga muvofiq, oilaviy turar-joyni loyihalash normativlarida mujassam bo'lgan iqtisodiy cheklanishlarga muvofiq tuzatish kiritiladi.

Oila a'zolarining individual faoliyati tashkil etiladigan xonalar (turar-joy yacheykasining xususiy zonalariga tegishli xonalar) o'z egalarining faqat uxlashi uchun emas, balki turli xil mehnat va bo'sh vaqti faoliyati uchun mo'ljallangan yotoqxonalar yoki polifunksional turar-joy xonalari bo'lishi mumkin. Hayot tarzini tahlil qilish madaniyat va farovonlik darajasi o'sishi bilan polifunksional xonalar borgan sari kengroq tarqaladi. Ularning funksional dasturi aniq yashovchilarning yoshi, jinsi, kasbi, individual moyilliklariga bog'liq. Funksional dasturning xususiyatiga ko'ra shaxsiy hududning quyidagi xonalarini ajratish mumkin: maktab

o‘quvchilari, o‘smirlar xonasi, yoshlar xonasi, mehnat qilish qobiliyatiga ega katta yoshdagilar, keksa kishilar, er-xotin xonalari. Turar-joy bilan ta‘minlanganlikning o‘ssishi xususiy hududning mahsus xonalar guruhiga rivojlantirish bilan bog‘liq (yotoqxona garderobxona bilan yoki yotoqxona va kabinet). Maksimal rivojlangan tarkib: yotoqxona, sanuzel, garderobxona, individual mashg‘ulotlar xonasi.

Turar-joy yacheikasining umumoilaviy hududida gigiyenik, xo‘jalik, rekreatsion, yarim funksional rekreatsion – xo‘jalik va kommunikal kichik hududlar ajratiladi, ularga bir yoki bir necha xona, qurilishlar va ochiq fazolar kiradi. Bizning sharoitda mehmon kutish hududi odatda umumoilaviy, rekreatsion va qisman kommunikatsion hududlar bilan qo‘shilib ketadi. Halq turar-joyi, masalan o‘zimizda yuqori qulaylikdagi turar-joy yacheikalari mehmonlar uchun mahsus xonalarni – mehmonxonaga, qo‘shimcha yotoqxonani o‘z ichiga oladi.

Xo‘jalik kichik hududining asosiy elementi – oshxona bo‘lib, u alohida xonalardan iborat bo‘lishi mumkin (ichki oshxona) yoki yarim funksional xonaning qismidan (oshxona ovqatxona) iborat bo‘lishi mumkin.

Umumoilaviy hududning xo‘jalik kichik hududiga o‘rnatilgan mebel ko‘rinishidagi saqlagichlar (antresollar, ho‘jalik shkaflari), omborxonalar (issiq va sovuq), garajlar, saroylar, yerto‘lalar (uy oldidagi uchastkada, dalahovlida, ko‘p xonadonli uyning yerto‘lasida). Saqlagichlarga ehtiyoj farovonlik o‘ssishi, oilaning hayot tarzini shakllantiruvchi hayot faoliyati turlarining har xilligi va murakkabligi ortishi bilan o‘rib boradi. Kelajakda saqlagichlar nomenklaturasini hozirgidan ham kengaytirish va sig‘imini oshirish nazarda tutilmoqda. Agar bu talab normativlarda va loyihaviy yechimlarda hisobga olinmagan bo‘lsa, u “mustaqil qurish” yoki o‘rnatish orqali amalga oshiriladi.

Xo‘jalik kichik hududida buyumlarga qarash uchun ularni tayyorlash va ta‘mirlash uchun fazo ajratiladi. Rivojlanmagan shaklda bu fazo oshxona, vannaxona, turar-joy xonalari o‘rtasida taqsimlanadi, rivojlangan shaklda esa mahsus polifunksional ishchi xonasi tashkil etiladi. Bunday xonalar bizning sharoitda yakka tartibdagi uylarda ham loyihalanadi. Ularning seksiyasi uylarda yaratish namunalari mavjud.

Xo‘jalik kichik hududining muhim elementi yozgi xonalar hisoblanadi - seksiyali uylarda xo‘jalik lojiyalari (ayvonlari), shaxsiy uylarda xo‘jalik ayvonlari. Tomorqali uylarda xo‘jalik kichik hududiga bog‘, poliz, turli xil chorvachilik qurilmalari va texnik moslamalar kiritilishi mumkin.

Kommunikatsion xonalar qatoriga kiraverish, xoll, shluiz, daxliz, tambur kiradi, ular boshqa hududlar va xonalar bilan fazoviy qo'shilishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilganidek, turar-joy yacheykasiga talablar ijtimoiy - arxitekturaviy tadqiqotlar jarayonida iste'molchilar hayot faoliyatining barcha turlarini bosqichma – bosqich tahlil qilish yo'li bilan aniqlanadi, bunda hayot tarzining jiddiy farq qiluvchi turlari uchun bunday tahlil alohida o'tkaziladi.

Hayot tarzining rivojlanishi bilan bog'liq turar-joy yacheykalari rivojining umumiy yo'nalishlari deb quyidagilarni hisoblash mumkin:

- turar-joy funksional dasturining uning jamoat xizmat ko'rsatishi tizimi bilan aloqalarining bir vaqtda faollashuvida boyitilishi;










- xonadonlar o'lchamini oshirish, xonadondagi xonalar sonini QMQ, SHNQda belgilanganidek ko'paytirishi, tomorqa tarkibida turli xil vazifalarni bajaruvchi qurilmalar va fazolarni orttirishi;

- shaxsiy va umumoilaviy hududlarning yarim funksionalligini oshirish, ularning funksional dasturlarini boyitishi, qurilmani va fazoviy tashkil etishni murakkablashtirish (zamonaviylashtirish);

- funksional dasturlarni takrorlash, aynan bir xil jarayonlarni turli xususiy va umumoilaviy hududlarda tashkil etish.

Turar-joy yacheykasining fazoviy elementlarini joylashtirishiga – xonalarni, qurilishlarni, aniq fazolarni o'zaro joylashtirishga, gabaritlariga, qurilmalariga qo'yiladigan talablarni aniqlash uchun majburiy, ya'ni barcha oilalar istisnosiz tashkil etadigan hayot faoliyati turlarini: o'ziga qarash, ovqatlanish, buyumlarga va turar-joyga qarash (xo'jalik maishiy faoliyat), axborot (ijtimoiy madaniy) faoliyat turlarini tahlil qilish zarur.

Zarur dam olishni ta'minlovchi to'la uyqu sharoit yaratish, sog'liq va mehnat qobiliyatini qo'llab – quvvatlash turar-joy yacheykasiga bo'lgan asosiy talablardan biridir. Uxlash hududi turar-joyda shaxsiy makonning yadrosini (o'zagini) tashkil etadi. U yaxshi shamollatilishi, insolatsiyalanishi, ko'cha va xonadon ichidagi shovqindan ishonchli himoyalaniishi, c hiqayotgan quyoshning to'g'ri nurlaridan himoya qilinishi kerak va h.k. Uxlash uchun foydalaniladigan mebel faqat shu maqsad uchun foydalanishi yoki kunduzgi boshqa vazifani bajarishi (divan – krovat, kreslo - krovat, krovat – stol va h.k.) mumkin.

| OILANI OVQATLANISHI<br>UCHUN XONA                                                   | XONA NOMI                                              | OVQATLANISH ZONASIGA<br>FUNKSIONALLIKNI<br>QO'LLASH                                  |
|-------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------|
|    | OSHXONA-<br>TAXMON                                     |    |
|    | ISHCHI<br>OSHXONA                                      |    |
|    | OSHXONA-<br>AHYON-<br>AHYONDA<br>OVQATLANI-<br>LADIGAN |    |
|    | OSHXONA-<br>OVQATXONA                                  |    |
|   | OVQATXONA                                              |   |
|  | OVQATXONA-<br>MEHMONXONA                               |  |
|  | OSHXONA<br>OVQATXONA-<br>MEHMONXONA                    |  |

**Ovqatlanish xonasi klassifikatsiyasi (S. D. Albanov bo'yicha).**

O'zgartiriladigan mebel ko'pincha kichik maktab o'quvchilari, o'smirlar, yoshlar uchun qo'llaniladi.

O'zini parvarishlashning barcha jarayonlari nogironlari bo'lgan oilalarda keskin o'zgaradi. Kvartirada turishi mumkin bo'lganlar orasida ko'rlar, tayanch – harakat apparati buzilgan shaxslar, o'zi mustaqil harakatlanuvchi, kreslo – aravachaga bog'langanlarga alohida talab qo'yishadi. Kreslo – aravachadan foydalanuvchilar uchun turar-joy yacheykalarini alohida me'yorlar bo'yicha loyihalanadi: sanitariya uzellari o'lchamlari kattalashtiriladi, ularda mahsus

qurilmalar o'rnatiladi, barcha eshik o'rinlari va kommunikatsion makonlar (dahlizlar, xollar) kengroq qilib qilishni nazarda tutiladi, zinapoyalar va ostonalarning bo'lmasligi, kommunikatsiyalar uzunligining qisqartirilishi, uyqu hududlarini va passiv dam olish joylarini kengaytiriladi.

Ovqatlanish bir qator kompleks jarayonlarni o'z ichiga oladi: oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish, ovqat tayyorlash, mahsulotlarni g'amlab qo'yishi, har kunlik va bayram kunlari qilinadigan ovqatlar. Barcha jarayonlar idish – tovoqni, kerak – yaroqli, mahsulotlarni, oshxona choyshablarini saqlash bilan bog'liq.

Oziq – ovqatning nisbatini tahlil qilish uning uydagi shakllarining bevosita afzalligini ko'rsatadi: bugungi kunda oilalarning 95 % har kuni uyda nonushta va kechki ovqatini tanovvul qiladi, ish kunlari tushlikni esa ba'zi oilalar uyda ovqatlanishni ma'qul ko'radilar.

Ovqat tayyorlash uy mehnatining eng ko'p mehnat talab qiladigan jarayonlaridan biridir. Uni ratsionalizatsiyalash – vaqt budjetini avvalo xotin – qizlarning uy bekasining vaqtini takomillashtirishning muhim zaxirasidir. Ovqatni tayyorlash oshxonada (oshxona – ovqatlanish xonasi, ishchi oshxona, oshxona ovqatlanish xonasi umumiy xonada) tashkil etiladi.

To'liq muhandislik qulayliklarga ega turar-joylarda oshxona barcha umumiy uylar aro muhandislik kommunikatsiyalari sovuq va issiq suv ta'minoti, kanalizatsiya, elektr ta'minoti, gaz ta'minoti bilan jihozlanadi.

Bizning sharoitlarda saqlash bo'g'ini oshxonada sovutgich, muzlatgich, ba'zida sovuq tokcha osti shkafi yoki sovuq omborxona shuningdek, xona temperaturasida oziq-ovqat mahsulotlarini saqlovchi shkaflar bilan jihozlanadi. Birlamchi ishlov berish bo'g'ini ishchi tekislik, idish yuvgich, oshxonadagi idish tovoqlarni saqlash uchun, oshxona mashinalari, asboblari, uskunalarni saqlash uchun idishlar, chiqindilar uchun idishlar bilan jihozlanadi. Birlamchi ishlov berish bo'g'ini idish-tovoqni yuvish uzeli bilan birga qo'shiladi, shuning uchun unda qo'shimcha ravishda quritkichlar, yuvuvchi vositalar uchun idishlar va h.k.lar tashkil etiladi.


Oziq-ovqat mahsulotlarini g'amlab qo'yish barcha toifadagi oilalar orasida keng tarqalgan, bunday ish tutish ham qishloq, ham shahar turmush tarzida yashovchi barcha toifadagi oilalarda keng tarqalgan, bunda bu jarayon borgan sari erkin tanlab olinadigan havaskorlik faoliyati xususiyatiga ega bo'lmoqda. U oziq-ovqatlar saqlanadigan joylarning xonadonda va uning tashqarisida turli xil temperatura rejimida bo'lib kengaytirilishni talab etmoqda.

Har kuni ovqat tanovvul qilinadigan hudud stol, istemol qilish uchun tayyor turgan oziq-ovqatlarni saqlash uchun idishlar, oshxona idish tovoqlari, oshxona choyshablari bilan jihozlanadi. Bu hudud sovutgich, idish-tovoq yuvish joyi, gaz plitasi bilan bog‘langan. Agar har kunlik ovqat qabul qilish oshxonada tashkil etilsa, (bu zamonaviy sharoitlarda eng keng tarqaldi) janubiy hududlarda yozgi har kunlik ovqatlanishni toza hovoda tashkil etishiga intilishadi. Hovlilil uylarda buning uchun ayvonlar, terassalar, hovli, supa xizmat qilsa seksiyali uylarda-lodjiyalar xizmat qiladi.


Buyumlarni va turar-joyni parvarishlash (unga qarash) (xo‘jalik – maishiy faoliyat) o‘z ichiga kir yuvish, quritish, dazmol qilish, tikish to‘qish, tozalash va poyabzalni ta‘mirlash; xonalarni tozalash va ta‘mirlash, mebellarni ta‘mirlash va tayyorlash; kiyim kechakni, poyabzalni, choyshablarni, kerak – yaroqlarni, yuvuvchi va tozalovchi vositalarni va h.k.larni saqlash. Buyumlarni parvarish qilish jarayonlari xonadonning turli xonalarida tashkil etiladi: individual xonalarda, umumiy xonada, oshxonada tikish, to‘qish, dazmollash ishlari amalga oshiriladi; lodjiyada kir va kiyimlar quritiladi va shamollatiladi; individual xonalarda, oshxonada ustachilik qilinadi, vannaxonada va oshxonada kir yuviladi; xovlilil turar-joy yacheykalarida xo‘jalik – maishiy faoliyat xo‘jalik qurilmalarida, xovlida, ayvonda va boshqa joyda tashkil etiladi.

Xonadonda axborot (madaniy) faoliyat farovonlik va madaniyat ortishi bilan madaniy faoliyatning uydan tashqari shakllari rivojlanishi bilan parallel tarzda, ilgarilovchi sur‘atlar bilan rivojlanadi. Turar-joy yacheykasida quyidagi kompleks jarayonlar tashkil etiladi: dam olish va ko‘ngil ochish, o‘zini o‘qitish, dunyoqarashini kengaytirish, tashqi aloqalarni qo‘llab – quvvatlash, va h.k. maqsadida axborot (madaniyat) iste‘mol qilish, noprofessional ijod (axborot ishlab chiqish), qarindoshlar, yaqinlar, do‘stlar, tanish bilishlar bilan muloqot axborot almashish. Bu jarayonlarning barchasi shaxsning ijodiy rivojlanishi uchun bevosita yo‘naltirilgan va shuning uchun ham oilaning yashash tarzida muhim o‘rin egallaydi. Ular yakka tartibda ham butun oila bilan ham, oilali guruhlar bilan ham, mehmonlar ishtirokida ham bajariladi. Mos ravishda ular ham shaxsiy, ham umum oilaviy, ham guruhliy xonalarda ham tashkil etiladi. Turar-joyni loyihalashtirish uchun axborot faoliyatining ko‘pgina jarayonlari murakkab yirik o‘lchamli qurilma bo‘lishini, muhandislik tarmoqlariga ulanishni, boshqa faoliyat turlaridan izolyatsiya qilinishni va shu kabilarni talab etadi.

Zamonaviy sharoitlarda oila bolalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimidan bolalar maslaxatxonalari, tarqatma sut mahsulotlari bog'chalari, maktablar, bolalarning dam olish maskanlari va h.k.dan, faol foydalanadi. Kelajakda xizmat ko'rsatishning barcha aytib o'tilgan turlarining rolini bolalarni oilada tarbiyalashning ahamiyati ortib borishi munosabati bilan ortishi kutilmoqda. Bola uchun faqat oilada kamida uch yoshgacha, yaxshisi besh – olti yil bo'lgan ma'qul, chunki bolalar maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarni hayotiy taasurotlari torayadi, bir xil shaklga tushib qoladi, tabiiyligini yo'qotadi, bundan tashqari u yerda ma'lum darajada bolaning tashabbusi, erkinligi bo'g'iladi.



Turar-joy yacheykasini tegishli a'zolariga ko'ra zonalash: avlodlar, bolalar soni va yoshi  
xar xil bo'lgan oilalar uchun [ 4 ].



Turar-joy yacheykalarini loyihalashda va ularni jihozlashda maktabgacha yoshdagi bolaning uyda doimiy bo‘lishiga mo‘ljall olish va yana bola uyidan faqat mashg‘ulotlar paytida ketishiga (kuni uzaytirilgan sinflarga qatnamaganda), u uyda uy vazifalarini bajarishiga, o‘ynashiga, dam olishiga, do‘stlarini qabul qilishiga va shu kabilarga mo‘ljall olish zarur.

Bir qator oilalar uylarida kasbiy mehnatni tashkil etishadi, bu esa turar-joyda xonaning bir qismini, xonadonda xonalarni, xonalar guruhini (hovlili uylarda qurilishlar va ochiq maydonlar bilan to‘ldiriladi) ifodalovchi tegishli hududlarni tashkil etishni taqozo qiladi. Xonalar va uydagi mehnat faoliyati hududlari tarkibiga, joylashishiga, qurilmalariga, xonalarning o‘lchoviga talablar uning xususiyatiga bog‘liq. Hozirgi vaqtda mehnat faoliyatiga quyidagilar kiradi: kasbiy intellektual faoliyat – badiiy, ilmiy, o‘quv; buyumlar va xizmatlarni yakka tartibda yoki uyda ishlab chiqarish; qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish.

Turar-joyda hunarmandchilik buyumlari va xizmatlarining qayta uyg‘onishini kutish mumkin: kiyim-kechak, poyabzal, mebel, sovg‘alar, maishiy texnika va h.k.larni tayyorlash va ta‘mirlash. Buning uchun turar-joy yacheykasida kichik ustaxonalarni-tikuvchilik, to‘qish, yig‘ish va boshqa ustaxona-larni yaratishni nazarda tutish kerak. Turar-joyni ijaraga topshirish keng tarqalmoqda, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun, oilaviy bolalar uyi va h.k. lar uchun hususiy guruhlarni yaratishga birinchi urinishlar amalga oshirilmoqda.

Yakka tartibdagi ishlab chiqarish oilaning butun turmush tarzini o‘zgartiradi. Unda butun oila birgalikda ishtirok etishi mumkin, hatto keksalar va bolalarni ham hisobga olgan holda. Bunga ish kunining davomiyli ijtimoiy ishlab chiqarishdagiga qaraganda ancha katta bo‘ladi, bo‘sh vaqt kamayadi. Shunga qaramay, yakka tartibdagi ishlab chiqarish oilaga ham, iste‘molchilarga ham bir qator afzalliklar beradi. Bu dunyoda keng tarqalgan.


Masalan, Vengriyada va GFR da 70% gacha xizmatlar xususiy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladi. Hunarmandchilik buyumlari va xizmatlarini uyda ishlab chiqarish turar-joy yacheykasiga bo‘lgan talablarni jiddiy kengaytiradi. Masalan, turar-joyni ijaraga berish, bolalarga qarash turar-joy xonalari sonining ortishi, qo‘shimcha kirish bo‘g‘inlarining tashkil etilishi va boshqalar bilan bog‘liq; xizmat ko‘rsatishi va xunarmandchilik ishlab chiqarishi mahsus qabulxonalarni, kabinetlarni, ustaxonalarni tashkil etishni, omborxonalar qurishni va h.k. larni nazarda tutadi.

Uncha katta bo'lmagan tomorqa uchastkalarida minimal agrar ishlab chiqarish, polizchilik yoki gulchilik qobiliyatlar va moyilliklarni qo'shimcha sohada amalga oshirishga, havoda faol dam olish imkoniyatini berishga, bolalarning mehnat tarbiyasiga imkoniyat yaratadi, shuningdek oilaning daromadini orttiradi. Minimal agrar faoliyatga aholining ancha katta qismi intiladi. Bu "ikkinchi" turar-joyning mashhurligi bilan, xususan, bog'dorchilik kooperativlarining mashhurligi bilan tasdiqlanadi.

### **1.7 Oilaning hayot yo'li va turar-joy yacheykasiga ijtimoiy – funksional talablar**

Har bir oila vaqt o'tishi bilan o'zgaradi, rivojlanadi. Qulay rivojlanish ikki asosiy modellar – an'anaviy va zamonaviy modellar bo'yicha boradi. An'anaviy model o'z ichiga yosh paytda nikoh qilishni, nevaralarning tug'ilish va balog'atga yetishi, nevaralarning nikohi, evaralarning tug'ilishi, qariganda avlod boshilarning vafot etishini qamrab oladi. Shunday qilib, nukler oila uch va hatto besh, olti avloddan iborat oila bo'lib rivojlanadi. Hayot yo'lining zamonaviy modeli o'z ichiga farzandlarning nikohdan o'tishi, bolalarning tug'ilishi va ulg'ayishini, voyaga yetgan bolalarning nikohdan so'ng ota-ona oilasi bilan yoki alohida turishi, qari va yoshi katta er-xotin juftining farzandi bilan yoki mustaqil yashashi, keyin esa qariyalarning ham yakka holda yashashi sababli nuklear oilalar saqlanib qolmaydi. Bizning an'anamizda esa ota-ona har doim oila bilan, farzandi yoki farzandlarining biri bilan yashagan va murakkab nuklear oila saqlanib kelgan.

Oilaning rivojlanishi jarayonida uning tarkibi, miqdoriy va jinsiy tarkibi, avlodlar soni, ularning vazifalari o'zgaradi. Mos ravishda, turar-joy yacheykasiga talablar ham o'zgaradi. Turar-joyning tez ma'naviy yemirilishdan saqlab qolish uchun bu talablarning harakatchanligini, o'zgaruvchanligini loyihalashda hisobga olish kerak. Ommaviy turar-joylarni arxitekturaviy loyihalash uchun turar-joy yacheykasiga jiddiy farq qiluvchi oilaning rivojlanishi bosqichlarini ajratish muhimdir. Bunday ish arxitektorlarning demograflar va sotsiologlar bilan hamkorligida bajariladi. Oilaning qulay rivojlanishi uchun eng keng tarqalgan modulida quyidagi bosqichlar ajratiladi: 1-yolg'iz yosh yigit; 2-yosh er-xotin (bitta avlodagi "bolalar tug'ilguncha bo'lgan" oila); 3-ikki avloddan iborat maktabgacha yoshdagi farzandi bo'lgan oila; 4-ikki avloddan iborat maktab yoshidagi farzandi bo'lgan oila; 5-katta yoshdagilarning ikki avlodidan iborat oila; 6-o'rta, yoshi katta va qari yoshdagi er-xotin jufti; 7-yolg'iz katta yoshdagi yoki qari kishi.



**INDIVIDUAL SHAHAR SHAROITIDA  
QURILADIGAN «O'SADIGAN» TURAR JOY  
UYLAR SERIYASIGA MISOL**

**BIR KVARTIRALI BIR QAVATLI UYLAR:**

a-1 - UY-YADRO,

a-2 - BIR KVARTIRALI IKKI DARAJALI UY  
YOZGI XONASI BILAN,

6-1 - BESH XONALI IKKI QAVATLI,

6-2 - UCH XONALI KICHIK MANSARD BILAN,

6-3 - TO'RT-BESH XONALI KATTA MANSARD BILAN,

**IKKI KVARTIRALI IKKI QAVATLI UYLAR:**

B-1 - BIRINCHI QAVATDAGI KAM OILALILAR UCHUN  
KVARTIRA,

B-2 - IKKITA IKKI XONALI VARTIRA,

1-UMUMIY XONA, 2-YOTOQXONA, 3- OSHXONA,  
4-DAHLIZ, 5-SANITAR TUGUNI, XO'JALIK XONASI  
6-TANTANALI AYVON, 7-XO'JALIK AYVONI

RASM-a. TURAR JOY YACHEYKASI KENGAYTIRILGAN  
YORDAMCHI XONALARIBILAN

RASM-6. ANDOZALI TURAR JOY UYI.  
arx. V. GROPIUS.

Qulay rivojlangan oilaning an'anaviy modelida (murakkab oilani saqlagan holda) dastlabki beshta bosqich avvalgi modelni takrorlaydi, 6-bosqichda uchta avloddan iborat maktabgacha yoshdagi farzandi bo'lgan oila mavjud, 7-bosqichda uchta avloddan iborat maktab yoshdagi farzandi bo'lgan oila, 8-bosqich katta yoshdagilarning uch avlodidan iborat oila.


Bosqichdan bosqichgacha oilaning xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan turar-joy yacheykasiga talablar o‘zgaradi:

a – turar-joy yacheykasi shakliga - nikohdan o‘tgandan so‘ng turar-joyga ehtiyoj o‘rniga kvartiraga ehtiyoj paydo bo‘ladi;

b – kvartiraning turar-joy va umumiy maydoniga nisbatan – har bir farzand tug‘ilganda, balog‘atga yetgan farzandlar nikohdan o‘tganlarida;

v – yotoq o‘rinlari bo‘lgan xonalar soniga turli jinsdagi farzandlar o‘n yoshga to‘lganda;

g – kvartira makonida yotoq o‘rinli xonalarning joylashuviga bir-biridan ajratilishiga muxtoj bo‘lgan katta yoshdagilar avlodlari soni o‘zgarganda.



### **Murakkab oilalarni joylashtirish uchun ijtimoiy tipologik modeli to‘rtta xonali kvartira (V.Yu.Durmanov bo‘yicha).**

Zamonaviy qulay model bo‘yicha rivojlanuvchi oila, uch farzandli otionalarni qamrab olgan, turar-joy yacheykasiga bo‘lgan talabni 40 yil yashashi davomida 8 marta keskin (tubdan) o‘zgartiradi.

Turar-joy siyosatini o‘tkazishda oilaning rivojlanish jarayonida turar-joy yacheykasiga ijtimoiy – funksional talablarning o‘zgaruvchanligini hisobga olishning ikki usulidan foydalaniladi.

Birinchi usul – har bir oilaga turar-joy bilan ta'minlash, u oilaning turli rivojlanish bosqichlarida oilaga xizmat qilish mumkin. Bu usul oilalarni individual (xususiy) uylarga joylashtirilganda qo'llanilishi mumkin. Bunday dasturga mo'ljallangan turar-joy yacheykasi "o'suvchi uy" kabi loyihalalanadi, bunday uyni oila ehtiyojga ko'ra qayta qurishi o'zgartirishi mumkin, turar-joylarining ko'pgina turlari shunday yechim namunasi hisoblanadi.

Ikkinchi usulning mohiyati, shundaki, aholi turar-joylari fondini shakllantirishida unga barcha turdagi turar-joy yacheykalari kiritiladi va oila rivojlantirishiga ko'ra bir turdagi uydan boshqasiga ko'chib o'tadi. Bu usul turar-joylarni almashtirish xizmati rivojlangan bo'lishini talab etadi. Oilalar tipologiyasining aniq mos kelishida aholining ko'pchilik qismida xonadondan uch-olti marta ko'chishga, birinchidan, ma'muriy yo'l bilan ikkinchidan kvartiralarini variantli qilib loyihalash yo'li bilan erishiladi.

Variantli loyihalash har bir turdagi kvartirani bir emas, balki bir necha toifadagi oilalar talablariga moslashtirishi, turar-joy xonalarining vazifasini undan foydalanish jarayonida o'zgartirish imkoniyatini ta'minlash, xonadon ichidagi to'siqlarni olib tashlash, o'rnatish mumkinligini nazarda tutadi.

### **1.8 Ommaviy quriladigan turar-joy uylarini loyihalashtirishning ijtimoiy asoslari**

Turar-joy uylari tipologiyasi turar-joy yacheykalari, xonalari va hududlari tipologiyasi kabi tarixan qaror topgan.

U yoki bu turdagi turar-joy uylarini qurish uchun tanlab olish ko'pgina omillar bilan belgilanadi – moliyaviy, texnik – iqtisodiy, shahar qurilishi, estetik va h.k. Masalan, uylarning sig'imi va qavatlilik turar-joyning kattaligiga, undagi qurilish bazasining rivojlanishiga, bo'sh hududlarning mavjudligiga; hajmiga, xizmat ko'rsatuvchi muassasalarning kiritilishiga, uyning aholi punkti jamoat markazida yoki turar-joyning tashkil etilishida va h.k. holatlar oqibati bo'lishi mumkin. Shu bilan birga turar-joy uylarining barcha tipologik tavsiflari ma'lum bir ijtimoiy ahamiyatga ega, yashovchilarning kundalik faoliyatiga, ularning muloqot qilish xususiyatiga, jismoniy va ruhiy kayfiyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Bu ta'sirni ommaviy turar-joylarni loyihalashda hisobga olish kerak. Natura tadqiqotlarining ko'rsatishicha, oila o'z tarkibi va hayot tarziga ko'ra o'zgartirishiga nisbatan qayta qurishi va yana qo'shimcha qurishi mumkin bo'lgan hovlili bir oilali uyda yashash turar-joyning bir necha avlodning yashashi uchun yaroqli

“ota hovli” ning, kichik vatanning, mustahkam ildizlarning shakllanishiga imkon beradi. Xovlili uy oilaning jipslashishiga, binolarning, o‘smirlarning, qariyalarning birgalikdagi uy mehnatiga jalb qilinishiga yordam beradi.

Bizning sharoitda u oilaviy agrar – xo‘jalik mustaqilligi rivojlanishiga shubhasiz olib keladi. Ko‘p xonadonli ko‘p qavatli uyda yashash oilaning kommunal va ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning markazlashtirilgan tizimlariga bog‘liq ekanligi bilan bog‘liq, u maishiy va rekratsion harakatchanlikning ortishiga olib keladi. Ko‘p xonadonli uydagi kvartira xovlili uyga nisbatan o‘ziniki, “qondoshday” idrok qilinadi, undan foydalanish vaqtinchalikdek qabul qilinadi, bir xonadondan boshqasiga ko‘chish oila hayot tarzining holati va tarkibiga mos bo‘lishi uchun zarur tabiiy holat sifatida boholanadi. Ko‘p qavatli uylarda turli qavatlarda yashash sharoitlari farq qilinishini hisobga olish muhim.

Birinchi qavatda yashash oilaning begonalari ortishi, “ochiqligi”, shovqin, chang ko‘pligi va h.k. bilan bog‘liq. To‘rtinchi qavatdan yuqorida joylashgan xonadonlarda yashovchilar, ayniqsa, qariyalar va bolalar uydan kam chiqishadi, toza havoda kam bo‘lishadi. Oltinchi qavatdan yuqorida ayrimlarda balandlikdan qo‘rqish kasalligi paydo bo‘ladi. Natijada (so‘rov ma’lumotlariga ko‘ra) taxminan 70% aholi birinchi qavatda yashashni xohlamaydi, 90% to‘rtinchidan yuqori qavatlarni salbiy baholashadi. Ko‘pchilik shaharlarda uy qurilishida ko‘p qavatli uylar zarur bo‘lgani uchun jahon amaliyoti ularning kamchiliklarini yumshatuvchi bir qator qarorlar ishlab chiqdi. Shovqin magistrallar tomoniga qaragan uylarning birinchi qavatlarini umumiy foydalanish xonalari (vestibul, ustaxona, omborxona va h.k.) yoki jamoat xizmat ko‘rsatish muassasalari bilan band qilinadi.

Biroq birinchi qavatdagi har bir xonadon yonida uncha katta bo‘lmagan ( $50 - 150\text{m}^2$ ) xususiy yer maydoni tashkil etilsa, aholining ko‘pgina toifalari uchun bunday uylarning jozibadorligi keskin ortadi. Oxirgi qavatning jozibadorligini unda ikki sathli yakka tartibdagi ustaxonalar, kabinetlar, ikkinchi sathdagi, musiqa xonalari yoki umumiy foydalanishdagi xonalarni joylashtirib (kir quritish uchun, hunar bilan shug‘ullanish uchun, qishki bog‘lar qurish uchun) jozibadorligini oshirish mumkin. “Yerdan uzilganlik” oqibatini neytrollashtirish uchun yuqori qavat xonalarida xavfsizlik hissini uyg‘otuvchi chuqur lodjiyalar yaratish mumkin. Yoki uy ichida ochiq umumiy foydalanishdagi rekratsion maydonchalar yaratish maqsadga muvofiq. Turar-joy uyni hajmiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishi muassasalarini kiritish bir qiymatli ijtimoiy oqibatlarga olib keladi. Uydagi xizmat ko‘rsatuvchi muassasalarga boradigonlar uchun vaqt sarfini qisqartirish ijobiy natija



hisoblanadi. Naturaviy tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, yuqori urbanizatsiyalashgan, xizmat ko'rsatish to'lib toshgan muhitda ko'pchilik yashovchilar yaqinida joylashgan oziq – ovqat magazinlaridan boshqa xizmat ko'rsatuvchi muassasalar xizmatidan foydalanilmaydi.

Turar-joy binosining fazoviy tavsiflari qo'shni jamoalarning shakllanishi va faoliyat yuritishi uchun muhim bo'lib, ularning xususiyatlarini arxitekturaviy loyihalashda hisobga olish zarur. Bitta turar-joy chegaralarida – zinapoya maydonida, turar-joy seksiyasi, hovli, daha, mikrorayon, kichik qishloq qo'rg'onida birgalikda yashovchi odamlar guruhi qo'shnichilik deb aytiladi. Qo'shnichilik jamoalari quyidagicha bo'lishi mumkin: a – yuridik maqomiga ko'ra formal; b – tarkibiga ko'ra – ijtimoiy bir jinsli va ijtimoiy turli jinsli; v – kattaligi bo'yicha katta, o'rtacha, kichik; g – jipslilik darajasi bo'yicha ijtimoiy konglomeratlar, assotsiyalar, jamoalar. Qo'shnichilik tarkibi bir qancha ijtimoiy ahamiyatiga ega belgilari bo'yicha bir jinsli bo'lishi mumkin: etnik, mulkiy, kelib chiqishiga ko'ra, yoshga qarab, kasbga ko'ra va h.k. Yoshi bo'yicha bir jinsli, oilaviy holati, mashg'ulot turi bo'yicha qo'shnichilik yotoqxonalarida (yakkalar, oilali yoshlar uchun), veteranlar uylarida, qariyalar uchun uy – internatlarda shakllanadi. Qo'shnichilikning ijtimoiy turli jinsliligi universal ko'p xonadonli uylarda ancha yuqori.

Ijtimoiy turli jinsli oilalar joylashtirilgan, “hamma hamma bilan” aloqada bo'ladigan, yosh, mulkiy, milliy, ta'limiy to'siqlar yumshatilgan universal turar-joy uylarining afzalligi va shu bilan birga bunday uyda ko'p millatli hududlarda milliy o'ziga xoslikni hisobga olish mumkin. Bundan tashqari, bu yerda qadriyatli mo'ljallarning va qo'shnilarning hayot tarzining mos kelmasligi sababli ijtimoiy kuchlanish bo'lishi mumkin. Masalan, tub shaharliklar ko'pincha qishloq joylardan ko'chib kel-ganlarning qo'shni bo'lishi ularga halal beradi, deb shikoyat qilishadi. Bir necha o'n yillar davomida shakllangan yetuk turar-joy uylarida bunday shiko-yatlar kamdan kam bo'ladi. Kichik qo'shnichiliklar tahminan 10-15 a'zogacha, o'rtachalari – 15-20 a'zogacha, kattalari – 20 va undan ortiq a'zoni o'z ichiga oladi. Kichik qo'shnichilikda barcha qo'shnilar bilan shaxsiy munasabat bo'lishi mumkin, o'rtachada u anonim va funksional – rolly muloqot bilan to'ldiriladi, kattalarida – oxirgi muloqot turlari afzal turadi, bu yerda hamma qo'shnilar ham bir-birini yahshi tanimaydi.

Turar-joy uylarining arxitektura rejaviy tashkil etish ma'lum darajada qo'shnichilik aloqalari harakatlariga ta'sir qiladi. U qo'shnilar o'rtasidagi aloqalarni kengaytirishi mumkin; erkin muloqotga yordam berishi, masalan, uyda

birgalikdagi faoliyat uchun tashqi halaqitlardan himoyalangan birgalikdagi faoliyat uchun makon mavjud bo'lganda. Qo'shnilar bilan aloqa qilishga ehtiyoj va ulardan alohidalanish yoshga, oilaviy holatga, ishlab chiqarishga bog'liq.



**Toshkentdagi ko'p qavatli turar-joy kompleksi. Diplom loyiha.**  
talaba: Popov S.V., rahbar: Korobovsev G.I.

U o'smirlarda, oilasiz yoshlarda, yosh oilalarda, ishlab chiqarishda ishlovchi va ishlamaydiganlarda turlichadir. Qo'shnichilik munosabatlari shuningdek ishlab chiqarishda band bo'lmagan katta yoshdagilar – uy bekalari, pensionerlar, nogironlar uchun juda muhimdir.

Ko'pchilik turar-joylarda uy bekalari soni ko'p emas, bunda ularning asosiy qismi yosh bolali ayollar bo'lib, deyarli bo'sh vaqtlari yo'q. Ular asosan bir – birlari bilan, asosan turmushda o'zaro yordam berish uchun muloqot qilishadi. O'rta va keksa yoshdagi ishlayotganlarga kelsak, ularda qo'shnilar bilan muloqotga ehtiyoj hayot tarzining urbonizatsiyalashganiga bog'liq. Etalon shaharnikiga qancha yaqin bo'lsa, qo'shnichilik muloqoti jo'shqin neytral aloqalar bilan va elementar o'zaro yordam bilan shuncha cheklanib qolishi ehtimollidir. Qishloq hayot tarzi qo'shnilarining ancha yaqin muloqot qilishini nazarda tutadi. Turar-joyning alohida turi qo'shnichilik jamoalariga birikkan va yaqin oila guruhi uchun turar-joy majmualari hisoblanadi.

## **II BOB. JAMOAT XIZMAT KO'RSATISH OBYEKTLARINI ARXITEKTURAVIY LOYIHALASHNING IJTIMOIIY ASOSLARI**

---

### **2.1 Umumiy holat**


Jamiyat va aholiga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar va korxonalar uchun mo'ljallangan binolar va majmualar jamoatchilikka tegishlidir. Xizmat ko'rsatish – xalq xo'jaligi kompleksining muhim tashkil etuvchisidir. Ijtimoiy ishlab chiqarishda xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarning ahamiyati juda ulkan va xilma xildir. Ular ijtimoiy tizimlarga rahbarlikni ta'minlaydi; iqtisodiy ishlab chiqarishning muhim fazasini tashkil etadi ijtimoiy ishlab chiqarishni va shaxsiy iste'mol qilishni bog'lovchi almashuv; ish kuchining qayta ishlab chiqarishga imkon beradi; shaxsiy iste'mol xarakteriga va maishiy tuzimiga ta'sir ko'rsatadi.

Xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar tasnifi ijtimoiy bino va inshootlarning me'yoriy tipologiyasi asosida yotadi. Jamiyatga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq obyektlarga: boshqaruv organlari binolari, kreditlash binolari, ijtimoiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot, loyiha va konstruktorlik tashkilotlari, arxivlar, davlat statistikasining turli idoralari, hisoblash markazlari h.k. lar kiradi.

Aholiga xizmat ko'rsatish obyektlariga ta'lim, tarbiya muassasalari uchun binolar, sog'liqni saqlash sohasidagi, kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish, dam olish, jismoniy tarbiya va sport, madaniy oqartuv va tomosha muassasalari, chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, maishiy va kommunal xizmat ko'rsatish binolari, mehmonxonalar, kempinglar va motellar, shuningdek ijtimoiy muassasalar xonalari va turli vazifalarni bajaruvchi korxonalar xonalarini o'z ichiga olgan ko'p funksional majmualar kiradi.

Tarmoq kategoriyalari ichida me'yoriy tipologik belgilar bu muassasaning profili, uning quvvati, texnologiyaning xususiyatlari, xizmat ko'rsatuvchi kontingentning xususiyatlari va boshqalar hisoblanadi. Masalan, madaniy-oqartuv va tomosha muassasalari binolari kategoriyasiga kinoteatrlar binolari ajratiladi, ular kino zallarining sig'imiga qarab (150, 400, 1400 va h.k. o'rinli), ularning soniga qarab (bir zallidan to'rt zalligacha), foydalanish rejimiga ko'ra (tomosha- binlarning bir paytda kirishi yoki uzluksiz kirishi), repertuariga ko'ra (badiiy, xujjatli, bolalar uchun filmlar), va h.k.ga ajraladi, bundan tashqari arxitektura me'yorlashida va loyihalashida ijtimoiy binolarning quyidagi tasniflash asoslari qo'llaniladi: xizmat ko'rsatishning shahar qurilishi darajasi (mikrorayon, rayon, shahar, hududiy);

ishlash rejimi (yil bo'yi mavsumiy); tashrif chastotasi (har kunlik, davriy, epizodik xizmat ko'rsatish); taqdim etilayotgan xizmatlar sifati (standart va saylanma); ijtimoiy qulaylik (ochiq yoki yopiq tarmoq muassasalari). Hozirgi vaqtda davlat, kooperativ, hususiy (shaxsiy) korxonalar uchun obyektlarga bo'linmoqda.



**Zavod madaniyat markazi. Birinchi qavat tarxi** 1 - garderob, 2 - ma'muriyat, 3 - konsert - tansa zali, 4 - ko'rgazma, 5 - bar, 6 - oilaviy klub, 7 - qishki bog', 8 - teatr studiyasi.

**Kolxozni jamoat markazi (arxitektorlar I. Martinsone, Yu. Skalbergs)** A - MMX, B - konferenszal, V - magazin, G - ovqatlanish xonasi.

Shuningdek xizmatlarning xususiyatini ham hisobga olish kerak. Xizmat insonning o'ziga yoki uning yashash muhitiga ta'sir ko'rsatishdan iborat bo'lishi mumkin. Birinchi guruhga davolanish, o'qitish, sog'lomlashtiruvchi, gigiyenik muolajalarni o'tkazishda yordam va boshqalar kiradi.

Bu yerda xizmatlarni ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri, ularning yaqin ijtimoiy-psixologik aloqasi nazarda tutiladi. Ikkinchi guruh buyumlarni yoki axborotni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga (savdo, gazetalarni eltib berish), iste'molchidan ishlab chiqaruvchiga (buyumlarni ta'mirlashga, yuvishga qabul qilib olish) oddiygina uzatishiga keltirilishi mumkin. Bu holda xizmatlardan foydalanuvchilarning va ishlab chiqaruvchilarni aloqalari qisqa muddatli bo'ladi yoki umuman bo'lmaydi (masalan, sotuvchilarni savdo avtomatlari bilan almashtirishda).

Xizmat ko'rsatish sohasida iste'molchi va ishlab chiqaruvchining faol o'zaro ta'sirlashuv jarayonlaridan tashqari loyihaviy yechimlarni asoslashda iste'molchilarning "havaskorligi" jarayonlarini tahlil qilish muhim o'rinn egallaydi. Misol tariqasida kutubxonada ishlash, passiv dam olish va teatrlarning foyelarida, vokzallarda va boshqa joylarda kutishni keltirish mumkin. Bu funksiyalar jamoat binolarining ayrim xonalarini va hududlarini loyihalashda, shuningdek bo'sh vaqtini o'tkazish markazlari ko'rinishdagi mahsus inshootlarda o'z aksini topadi. Ijtimoiy obyektlarning loyihaviy yechimlarini ijtimoiy asoslash uchun amaliy ijtimoiy-arxitekturaviy tadqiqotlar olib boriladi. Ijtimoiy asoslashlarni ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-demografik, ijtimoiy madaniy, ijtimoiy psixologik, tashkiliy-texnologik turlarga bo'lish mumkin.

Ijtimoiy arxitekturaviy tadqiqotlarni o'tkazishida xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini hisobga olish zarur. Jamiyatning iqtisodiy imkoniyatlari o'sishi bilan bu soha ilgarilab ketuvchi sura'atlar bilan rivojlanmoqda, bu dastavval tegishli tarmoqlarda bandlikning tez ortishida namayon bo'ladi.

Xizmat ko'rsatuvchi sohalar rivojining muhim qonuniyati xizmatlar ishlab chiqarish texnologiyasi va texnikasini doimiy murakkablashtirish va yangilab borish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishning borgan sari yuqori darajasi, binolarni borgan sari mukammal va xilma-xil muhandislik va texnologik qurilmalar bilan jihozlanishi bo'lmoqda. Bu deyarli barcha turdagi binolar uchun xosdir:

- maktablarda kompyuter sinflari tashkil etildi, vokzallarda – avtomat uyalari bo'lgan saqlash kameralari tashkil etildi va h.k.

Iste'molchilik hududiga talablarni aniqlashda xizmat ko'rsatishning istiqbolli shakllariga mo'ljall olish kerak. Xususan, xizmat ko'rsatuvchi soxalarning bir qatorida (savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat, axborot xizmati va boshq.)

keyingi o'n yilliklarda iste'molchilarning o'zi o'ziga xizmat ko'rsatishi borgan sari keng qo'llanilmoqda. U sezilarli iqtisodiy afzalliklar bermoqda.

Jamoat binolarining rivojlanish istiqbollarini aniqlashda o'ziga o'zi xizmat ko'rsatishning ijtimoiy oqibatlarini hisobga olish kerak. Kitob magazinlarida, kutubxonalarning o'qish zollarida, shuningdek o'ziga xizmat ko'rsatish tashrif buyuruvchilarning faol faoliyati bilan bog'liq bo'lgan joylardabadan tarbiya-sog'lomlashtirish kabinetlarda, uy hunarmandchiligi ustaxonalarida, o'ziga xizmat ko'rsatish kir yuvish muassasalarida va h.k. u iste'molchilarning bir qiymatli ijobiy bahosini olmoqda. Agar muassasaning sig'imi uncha katta bo'lmasa va agar xodimlar iste'molchilarni faqat nazorat qilib qolmay balki ularga yordam ko'rsatsalar u holda har qanday yo'nalishidagi o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish muassasalarida psixologik vaziyat jiddiy ravishda yaxshilana boradi.


Doimiy ravishda vaqt yetishmovchiligini boshdan o'tkazuvchi, ishlab chiqarishda band bo'lgan shaharliklar ko'pchilik hollarda savdoda va umumiy ovqatlanishdagi o'ziga o'zi xizmat ko'rsatishini ijobiy boholashadi.

Ijtimoiy-arxitekturaviy tadqiqotlarni o'tkazishida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning umumiy yo'nalishlarini hisobga olish xizmat ko'rsatishi muassasalarining faoliyat yuritishining aniq iqtisodiy, demografik, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-psixologik, shahar qurilishi vaziyatlaridagi xususiyatlarini tahlil qilish bilan birga qo'shib olib boriladi.

Zamonaviy sharoitlarda individlar, oilalar, maishiy jamoalar o'zlarining ko'pgina ehtiyojlarini amalga oshirishida ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalarining xizmatlaridan foydalanishlari mumkin. Biodemografik funksiyalar sog'liqni saqlash, umumiy ovqatlanish, ijtimoiy ta'minot, rekreatsion xizmat ko'rsatish, maktabgacha tarbiya, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish kommunal xo'jalik muassasalari tomonidan ta'minlanadi.


Iqtisodiy funksiyalarni amalga oshirishda kreditlash xizmatlari, maishiy xizmat ko'rsatish, savdo va boshqalar yordam beradi. Ijtimoiy – madaniy funksiyalarni tarbiya, ta'lim va kadrlarni tayyorlash muassasalari tizimi, madaniyat va sana't muassasalari, rekreatsion xizmat ko'rsatish muassasalari amalga oshiriladi. Aholining barcha faoliyati transport muassasalari, aloqa muassasalari, jamoat tartibini saqlash xizmatlari, huquq muassasalari va h.k. larning xizmatlari bilan bog'liq. Biroq, odamlar har doim ham jamoat xizmatidan foydalanish imkoniyatlarini amalga oshirishmaydi. Har bir aniq holda uy va uydan tashqari faoliyat o'rtasida tanlash ko'pgina omillar bilan belgilanadi:

vaqt va pul mablag‘larining real xarajatlari (sarflari), uyda va xizmat ko‘rsatish muassasalarida faoliyat yuritishning jismoniy va psixologik sharoitlari bilan, xizmat ko‘rsatish sifati bilan, mazkur maishiy madaniyat uchun xos bo‘lgan psixologik ko‘rsatmalar bilan belgilanadi.



**Qishloq klubi loyihasi (arxitektorlar Yu. Avvakumov, M. Belov, Z. Kazbek – Kaziyeu) Birinchi va ikkinchi qavat tarhlari**

*1-vestibul-foye garderobi bilan; 2-zal yig‘ma estradasi bilan; 3-jihozlar va mebel omborxonasi; 4-artistlar xonasi; 5-ma‘muriyat xonasi; 6-texnik xona; 7-sanitar tuguni; 8-bufet; 9-to‘garak; 10-aktivlar xonasi; 11-xodimlar xonasi; 12-biblioteka; 13-mehmonxona-ko‘rgazma zali; 14-kinoproyeksion xonasi; 15-ochiq minbar.*



**Bo'sh vaqtni o'tkazish – sog'lomlashtirish shahar markazi binosi, FRG.**

**Birinchi qavat tarhi.**

*1-vestibul; 2-restoran; 3-bolalar vannasi; 4-suzish vannasi; 5-ochiq termal vannasi; 6-yopiq suv vannasi; 7-solyariy sauna; 8-sauna; 9-kiyinish xonasi; 10-ona va bola kafesi; 11-sakrash vannasi; 12-ko'ngilochar qurilmali vanna; 13-fontanli hovuz.*

Aholiga xizmat ko'rsatuvchi binalarni loyihalashda xizmatlarni iste'mol qiluvchilarning xususiyatlarini hisobga olish kerak, ular – quyidagilar hisoblanadi: birinchidan, alohida individlar (tomoshabinlar, xaridorlar, mijozlar, o'quvchilar), ikkinchidan, xizmat ko'rsatish jarayonida shakllanuvchi umumiyliklar (omma, navbat, maktab sinfi).

## **2.2 Xizmat ko'rsatish sohasida iste'molchilar guruhlari tavsiflarini hisobga olish**

Bitta xizmat ko'rsatuvchi muassasada bir vaqtda xizmatlar oladigan odamlar ma'lum bir ijtimoiy guruhlarini tashkil etadi. Bu ijtimoiy guruhlarining shakllanishi, faoliyat yuritishi, rivojlanishi qonunlarini sotsiologiyada va ijtimoiy psixologiyada o'rganiladi. Xizmatlar iste'molchilari guruhlari ijtimoiy ijobiy (o'qituvchilar jamoasi), ijtimoiy neytral (omma, piyodalar oqimi), ijtimoiy-salbiy (raqobatchi guruh, vahimaga tushgan olamon). Bu umumiyliklarning xususiyatlarini arxitektor o'z qarorlari bilan shakllanishni rag'batlantirish va ijtimoiy ijobiy faoliyat yuritishni yengillashtirish, ijtimoiy salbiy faoliyatning amalga oshirishning xavfli oqibatlarining oldini olish, ijtimoiy neytral guruhlariga normal faoliyat sharoitlarini yaratish uchun bilish va hisobga olish zarur.

Jamoat binolarini loyihalash uchun vaqtincha va uzoq vaqt mavjud bo'ladigan konglomeratlar, assotsiatsiyalar, iste'molchilar jamoalari to'g'risidagi axborot, shuningdek barqaror va harakatdagi to'plamlar sifatidagi iste'molchilarning qisqa muddatli guruhlari to'g'risidagi axborot juda katta ahamiyatga ega.

Xizmatlarni iste'mol qiluvchilarning uzoq vaqt faoliyat yurituvchi jamoalari (to'plamlari) jipslashgan guruhlarini tashkil etishadi. Bunday guruhlar odamlarning tasodifiy birlashmalarida guruh tashkil etishning tabiiy jarayonlari boshlanishi uchun o'z tarkibini yetarlicha uzoq vaqt saqlaydi. bu yerda anonim muloqot nomma-nom, funksional rol shaxsiy muloqot bilan to'ldiriladi, guruh o'zining birligini anglaydi, guruhning har bir a'zosi - o'zining shu guruhga mansubligini anglaydi. Bunday birikmalar (guruhlar) jipslanganlikning yuqori darajasiga jamoa shakligacha yetadilar.

**Jipslashgan birikmalar** - o'quv – tarbiyaviy (bir maktab o'quvchilari, talabalar guruhlari), rekreatsion, sport, sog'lomlashtiruvchi va h.k. bo'lishi mumkin. Jipslashgan birikmalar formal va noformal bo'lishi mumkin. O'quv - tarbiyaviy birikmalarining maktab, oliy o'quv yurtlari, kasb - hunar kollejlari shuningdek tashkillashtirilgan rekreatsion guruhlarining (dam olish lagerlari, sayyoxlik bazalari va h.k. larda) rasmiylashuv darajasi maksimaldir. Sog'lomlashtirish va hovoskorlik rekreatsion guruhlari ko'pincha norasmiy tarzida faoliyat yuritishadi. Jipslashgan iste'molchilar birikmalarining shakllanish, faoliyat yuritishi va rivojlanish xususiyatlarini o'quv tarbiyaviy muassasalar uchun, rekreatsion muassasalar uchun, klublar va h.k. lar uchun binolarni loyiha-lashda hisobga olish zarur.

Loyihalash uchun rasmiy birikmalar to'g'risidagi zarur axborot rasmiy xujjatlarda – nizomlarda, ustavlarda, dasturlarda, yo'riqnomalarda bo'ladi. Norasmiy guruhlarining tarkibi, faoliyat yuritishi, rivojlanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni qisman pedagogika, psixologiya, jismoniy tarbiya, tibbiyot, bo'yicha mahsus ilmiy maqolalarda topish mumkin, ayrim qismlarini esa maqsadga yo'naltirilgan loyiha oldi tadqiqotlar jarayonida yig'ishga to'g'ri keladi.

Tabiiy guruh tashkil etish jarayonlarining samaradorligi individlarning guruhga kiritish maqsadlarigi, guruh a'zolarining ijtimoiy, psixologik xususiyatlariga, tashqi ijtimoiy ta'sirlarning yo'naltirilganligiga, shuningdek guruh foydalanadigan makonning xususiyatiga bog'liq. Uzoq muddat mavjud bo'luvchi guruhning jipslanganlikka ehtiyoji va jipslashish imkoniyati uning a'zolarining yoshiga ko'p darajada bog'liq bo'ladi. Bolaning chaqaloqligi davrida unga faqat onaning yaqinligi va mehri juda muhimdir, keyin oilaga mo'ljallanadi, undan keyin esa ona "ahamiyatli kattaga" mo'ljallanadi, uning rolini qarindoshlardan birortasi yoki tarbiyachilar bajarishi mumkin.


Ayrim bolalar uchun to'liq maktab yoshigacha bu ro'yxat bilan afzal (foydali) muloqot tugaydi (turli xil ma'lumotlarga ko'ra 5 dan 20% gacha bolalar). Biroq maktabgacha yoshdagi bolalarning ko'pchilik qismi va kichik maktab yoshidagi bolalar pedagog tomonidan boshqaruvchi guruhlariga alohida muammolarsiz kirishib ketishadi.

Bunday guruhlarining optimal kattaligi 5-10 kishi, bu holda tarbiyachi har bir bolaga shaxsan yetarlicha e'tibor berishi mumkin va bolalardan hech biri o'zini jamlab qo'yilgan, yoddan chiqarilgan psixologik jihatdan himoyalangan deb his qilmaydi. Agar guruhlariga turli yoshdagi bolalar kiritilsa, u holda rivojlanish uchun eng yaxshi sharoitlar yaratiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning guruh xulqining xususiyatlari bolalarning maktabgacha tarbiya muassasalarini odatdagicha fazoviy tashkil etilishini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Bolalar uchun eng yaxshi sharoitlar turlicha yoshdagi 5-10 nafar bolalar uchun yaratiladi va agar bu yacheykalar ailaviy xonalarga o'xshagan taqdirda. Kichik maktab yoshida bolalar guruhning eng maqbul guruhi kattaligi 20-25 nafar bolagacha ortadi, bunda u tengdoshlardan tashkil topishi mumkin. Bunday guruhdagi barcha bolalar o'qituvchiga ko'proq tayanib, bir birlariga kamroq tayanadi.


O'smirlar uchun muhim ijtimoiy mo'ljallanadigan katta yoshdagilar emas, balki tengdoshlari va o'zidan katta bolalar bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar jipslashishiga,

guruhlar shakllantirishiga intilishadi. Bu guruhlarning kattaligi 3 - 4 dan 20 - 30 gacha oraliqda bo'lishi mumkin. Odatda bunday guruhlarda yagona yetakchi ajralib chiqadi yoki yetakchilik qiluvchi kichik guruh ajralib chiqadi, qattiq iyerarxik tuzilma tashkil topadi. Obro'ga ega bo'lgan malakali pedagog rahbarligida bunday guruhlar inoq sinfga, inoq otryadga aylanishi, jamoachilikning samarali maktabi, shaxsning faol rivojlanishi maydoniga aylanish, axloqiy qadriyatlar namoyon bo'ladigan va o'zlashtiriladigan maydonga aylanishi mumkin.



**Kasb – xunar bilim yurti (arxitektor O. Kratsov)**  
**1-o'quv korpusi, 2-umumiy yotoqxona, 3-turar-joy yacheykasi, 4-MMX**  
**bloki.**

Faqat o‘smirlik va yoshlik davrida birgalikdagi faoliyatning obyektiv optimal va subyektiv eng yaxshi ko‘rgan guruhi jamoa bo‘ladi, bunda agar uning shakllanishi odamning shaxsiy xususiyatlari jamoaviy standart uchun yo‘q qilish bilan emas, balki uni ochib berish bilan birga qo‘shib olib borilgandagina ijobiy natija beradi.



**Dam olish muhitini va davolash markazini shakllantirish:**

1. Ichki xona

2. Dam olish xonasi.

Birdamlik, mas'ul bog'liqlik munosabatlari, jamoada o'zini mustahkamlashga qobiliyat, har bir kishining o'z shaxsiy maqsadi sifatida anglanadigan yagona maqsadga erishish jarayonida vujudga keladi. Bu holda jamoa yagona birlikka aylanadi, unda inson faol to'la huquqli shaxs bo'lishdek ijtimoiy ehtiyojni qanoatlantirish uchun eng qulay imkoniyatlar oladi, unda boshqalar bilan qo'shilish, o'zini guruh bilan aynanlashtirish o'zini namayon etishining sharti bo'lib qoladi.

Maktabdagi sinf asosida birlamchi jamoaning shakllanishi har bir sinfga doimiy xonani biriktirish talab etadi, bu xona biror fan kabineti bo'lmazligi kerak. Maktabning qiyofasi ham katta ahamiyatga ega: jamoani birlashtirish uchun zarur ramz vazifasini umumiy (tipli) bino bajara olmaydi.

Katta yoshdagi xizmatlar iste'molchilari guruhi jamoani shakllantirish yo'nalishiga ega emas: ular ko'p darajada ishlab chiqarishda shakllanadi. Katta yoshda shaxsiy aloqalar doirasi barqaror bo'lib, yangi birikmalarga kirishish qiyinlashadi yoki yoshlikdagiga qaraganda ancha sekin yuz beradi. Shuning uchun binolar va xonalarni loyihalashda asosiy vazifa bunday guruhlar uchun jismoniy yoki ruhiy noqulayliklar holatlarni keltirib chiqarmaydigan fazoviy sharoitlarni yaratish bilan cheklanadi.

Pensiya yoshidagi kishilar ayrim hollarda dam olish jarayonida, ba'zida ijtimoiy-madaniy va maishiy iste'molda, tibbiy xizmat ko'rsatishida birlashadigan, turar-joylari bo'yicha guruhlar shakllantiradilar. Bunday o'zaro aloqa mahsuslashtirilgan turar-joylarda ayniqsa faol kechadi, u yerda madaniy - maishiy xizmat ko'rsatishini tegishli tashkil etish zarur.

**Iste'molchilik guruhlarining keng tarqalgan turi iste'molchilarning doimiy to'planishi hisoblanadi.** Ular jamaotchilik binolarida vujudga keladi, bunda bir xonada bir – biriga bog'liq bo'lmagan juda ko'p odamlar bir necha minutdan bir necha soatgacha nisbatan qisqa vaqtga to'planadilar. Odamlarning mustaqilligi va aloqalarining qisqa muddatli bo'lishi - to'planishning muhim belgilaridir: ular birlikda tabiiy, guruh tashkil bo'lishi jarayonlari yuz bermaydi, unda jipslashganlik belgilari paydo bo'lmaydi. Barqaror to'planishlarning asosiy turlari tuzilmasiz kutuvchi, harakatdagi to'planish, ommaning navbatda turishdir.

**Kutuvchi to'planishlar** ko'pgina xizmat ko'rsatuvchi binolarda, magazinlarda, oshxonalarda, poliklinikalarda, kinoteatrlarda, chiptalar sotiladigan kassalarda, temir yo'l va aerovokzallar kassalarida va h.k. yuzaga keladi. Ular uchun mahsus xonalar nazarda tutiladi - kutish zallari, qabul xonalar, foye yoki kutuvchilarning funksional va kommunikatsion muhitlardan - o'yin va tushlik (ovqatlanish)zallari, daxlizlar, galereyalar, ichki xovlilar va boshq. dan foydalanishlari nazarda tutiladi. Barcha shunday xonalarni loyihalashda odamlarining to'planishi kattaligini, u yerda odamning bo'lishi vaqtini, kutuvchilar tarkibini, ularning ruhiy holatini, to'planganlarning janjanli imkoniyatlarini hisobga olish kerak.

To'planganlarning hissiy holati agar kutishi majburiy xarakterga ega bo'lsa, o'zgarib turadi. Majburiy kutish uzoq davom etishi mumkin aeroportlarda reyslar

tutilib qolganda, tranzit yo'lovchilar to'planadigan temir yo'l vokzallarida. Bunday holatlar guruh a'zolari harakatiga bog'liq bo'lmaydi, shuning uchun odam bir birlariga nisbatan o'zlarini tutib munosabatda bo'ladi, janjallar nisbatan kam bo'ladi. Uzoq vaqt kutish uchun qulay sharoitlar vokzallar huzuridagi mehmonxonalarda ta'minlanadi. Bunday mehmonxonalarning sig'imi vokzalda to'planadigan yo'lovchilarning maksimal soniga mos bo'lishi kerak. Bir vaqtda vokzallar, aeroportlar va boshqalarning kutish zallarida qulay sharoitlar yaratish kerak. Ularga qo'yiladigan minimal talablar - bu zalning qolgan qismida jadal harakatdan kutish hududlarini ajratish, yetarlicha o'rinlarning mavjud bo'lishi, qariyalar va bolalar uchun xavfli bo'lgan yelvizaksiz yaxshi ventilyasiyaning bo'lishi shovqindan himoya qilinishi kerak. Agar kutish zallarida televizorlar, o'yin avtomatlari, gazeta va boshqa mahsulotlarni sotish bo'yicha avtomatlar yoki kioskalar bo'lishi kerak.

Magazirlarda, umumiy ovqatlanish korxonalarida, maishiy xizmat ko'rsatish muassasalarida, metropoliten bekatlarida va h.k. larda tarkibi o'zgaruvchi, xizmat ko'rsatishini ko'rib turuvchi odamlar to'plamlari vujudga kelib, ularda odamlar iloji boricha kam vaqt bo'lishiga - tezroq xarid qilish, ovqatlanib olish, vagonlarga o'tirish va h.k.larga intiladi.

**Barqaror to'planishning alohida turi** – omma, auditoriya - kinoda, teatrdagi konsert va ma'ruza zallarida, o'quv auditoriyasida, stadionda shakllanadi. Bu yerda odamlarning to'planishdan asosiy maqsad – tomosha qilish, tinglash, ko'rganlarini va eshitganlarini anglash va qayta boshdan kechirishdan iborat. Bunday guruhlar uchun xonalarni loyihalashda asosiy vazifa – xonada bo'lishning va axborotni idrok qilishning optimal, fazoviy, akustik, vizual, iqlim, gigiyenik sharoit yaratish, shuningdek tez va xavfsiz yuklanish va evakuatsiya qilish imkoniyatini ta'minlashdan iborat.

Omma uchun xonalar interyerining vizual tavsiflari tegishli kayfiyatni – qabul qilinayotgan axborotning xususiyatiga bog'liq holda ishchan, tantanali, harakatchan, quvnoq kayfiyatni qo'llab quvvatlash kerak.

Ko'pchilik hollarda omma va amal qiluvchi barqaror to'plamlar, agar xonada tiqilinchlar, idrok qilish uchun halalliklar bo'lmasa, agar hammaga joy va qurilmalar yetarli bo'lsa, bioiqlim sharoitlari me'yor chegarasidan chiqmaydigan janjal bo'lmaydigan guruhlarini ifoda etadi. Psixologik jihatdan eng qulay guruhlarini teatr spektakillaridagi, mumtoz musiqa konsertlaridagi, ilmiy ma'ruzalardagi va h.k. omma tashkil etadi.

**Harakatdagi to‘plamlar** fazoning cheklangan uchastkasi orqali bir yoki bir necha yo‘nalishlarda ko‘pchilik odamlar bir vaqtda harakatlanganda vujudga keladi. Turli yo‘nalishda harakatlanishda tuzilmasiz harakatlanuvchi to‘plam, bir yo‘nalishda harakatlanishda odamlar oqimi hosil bo‘ladi.

Bir yo‘nalishda xarakterlanuvchi to‘dalarni shakllantirishi va faoliyat yuritishi qonuniyatlarini mahsus ilmiy fan – odamlar oqimini tashkil etishining nazariyasi o‘rganadi. Odamlar ommasining harakati maqsadli (sport zalida jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanuvchilarning harakati, tomoshabinlarning spektakl antraktidagi harakati) yoki yordamchi, majburiy xususiyatga ega bo‘lishi (metroda yo‘lovchilarning harakati, tomoshabinlarning kinozaldan chiqish tomoniga harakati) mumkin. Maqsadli harakat odatda dam olish va psixologik yukni yengillatish turi hisoblanadi, majburiy harakat esa odamlar uning davomiyligini qisqartirishga intiladigan jarayon hisoblanadi. Yordamchi harakatlanish uchun bino va inshootlarda kommunikatsion fazolar ajratiladi – dahlizlar, o‘tish yo‘llari, yo‘laklar, xollar, zinapoyalar, panduslar, galereyalar va h.k.lar ajratiladi. Ularni loyihalashda harakatlanayotgan to‘planishlarning miqdori (katta – kichikligi, soni), uning harakatlanish yo‘nalishi, odamlarning zichligi, bir tekisligi, moslashganligi, tezligi, tuzilmalashtirilganligi, ruhiy holati aniqlanadi. To‘plamning tarkibi katta ahamiyatga ega (bolalar, o‘smirlar, katta yoshdagilar va qariyalar; sog‘lomlar va nogironlar, yuksiz odamlar, qo‘lida yuki bo‘lgan, orqasida aravachasida yuki bo‘lgan odamlar va h.k.).

Bu tavsiflar kommunikatsiyalar bilan birlashtiriluvchi (masalan, o‘quv korpusiga kirish, garderob va ma’lum o‘rinlar soniga mo‘ljallangan o‘quv auditoriyalarga kirishlar) asosiy moyillik bo‘g‘inlarining joylashuvini, sig‘imini va foydalanish rejimini hisobga olgan holda aniqlanadi. Harakatlanuvchi to‘plamning zichligi kam bo‘lganda har bir kishi unga ma’qul tezlikda yuradi, zarur bo‘lganda odamlar bir-biridan oson o‘zib ketadi. Jamoat binolarining fazoviy – rejaviy yechimlarining an’anaviy, klassik sxemalari yo‘l va maqsadni bevosita ko‘rsatish bilan mo‘ljall olishni (oriyentatsiyani) ta’minlaydi. Masalan, ikki tomondan qurilgan dahlizlar uzoq masofadan yaxshi ko‘rinadi va deraza o‘rni bilan tugaydi, u orqali topish yoki tushunarli peyzaj ko‘rinadi; burilishlar, zinapoya maydonchalari, alohida ahamiyatli xonalarga kiraverishlar oldindan ko‘rinadi va tushunarli belgilar bilan ifodalangan arklar, pilastrlar, rang bilan, yorug‘lik cho‘ntaklari bilan, avonzallarni yaratish bilan va h.k.; dahlizlar davriy ravishda galereyalarga ochiq ikki xil vestibullarga aylanadi va h.k.

Bunday usullar kommunikatsion fazolarning ularning istalgancha kattaligiga qaramay tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

Fazoviy – rejaviy usullarning zamonaviy shakllarda ifodalash ko'pincha binoda mo'ljallashni jiddiy qiyinlashtiradi. Masalan, birinchi qavatdan boshqa barcha qavatlarda lift xollarining bir xilligi ayniqsa, derazalar bo'lmaganda, odam liftidan chiqib, o'zining binodagi vaziyati to'g'risidagi har qanday tasavvurni yo'qolganda qavatlarni ajratib olishga imkon bermaydi. Uzoq o'tish yo'llarini qurishda odamlar oson o'qiydigan ko'rsatkichlarning (yozuvlar, ramzlarning) joylashtirilishini yaxshilab o'ylab ko'rish kerak, bu belgilar odamni bir joydan boshqa joyga kuzatib qo'yuvchi mo'ljallarning uzluksiz tizimini tashkil etishi kerak. Tushunarli kommunikatsion fazoda bunday ko'rsatkichlar kamroq ahamiyatga ega bo'ladi.

Harakatlanuvchi maqsadli to'plamlar tarkibi, kattaligi, faoliyat xususiyati bo'yicha, psixologik kayfiyatiga ko'ra xilma-xildir. Ular faqatgina kommunikatsion xonalardagina emas, balki funksional xonalardan ham foydalanadi, shu bilan birga bu xonalar orqali o'tilmaydi, balki ularda harakatlanadi. Maqsadli harakatdagi to'plamlarga sport zalidagi jismoniy tarbiya bilan mashg'ul bo'layotganlar, diskoteka zalida raqs tushayotganlar kiradi. Rekreatsiyadagi o'quvchilar, teatr foyesidagi yoki muzeydagi tomoshabinlar va h.k. lar kiradi. Tegishli xonalarni loyihalash uchun aniq guruhlar tarkibi to'g'risidagi, ular faoliyatining (harakatining) texnologiyasi, tashkil etilishi, jo'shqin rangdorligi to'g'risida ma'lumotlar. Masalan, maktab o'quvchilari uchun harakatsizlikdan haqiqiy bo'shatish, haqiqiy dam olishni, bog'langanlik, bir narsaga diqqat jalb bo'lganlikdan faqat faol, harakatchan, tartibga solinmaydigan harakatlarga imkon beradi.

Bunga maktablardagi va binolardagi bolalar bilan maktabdan tashqari ishlar uchun rekreatsiyalar, shuningdek sirkdagi, bolalar teatrlari, kinoteatrlardagi foye, xollar, kuluarlarni hisobga olish kerak. Maqsadli harakatlanuvchi to'plamlarda odamlar o'zlarini ko'rgazmaga qo'yishadi, boshqalarni va o'zlarini o'rganishadi, o'zlariga yoqadigan odamlar bilan tanishadilar va shunda guruhdan ajralib, shu bilan birga butun guruh uchun yagona bo'lgan ruhiy holatga intilishadi, ya'ni teatrdagi va suratlar galereyasida san'atga aralashishadi, maktab rekreatsiyasida erkinlikka va o'yinga aralashadilar va h.k. Harakatdagi va barqaror to'plamlar olomonga aylanish mumkin. Olomon to'g'risida bir – biri bilan umumiy diqqat obyekti bilan, hissiy holati o'xshashligi bilan, aynan bir xil rag'batlarga bir xil rekreatsiya bilan bog'langan tuzilmasiz odamlar to'plamidir.

Olomondagi to‘dadagi odamlarni jo‘shqin impulsiv aloqa birlashtiradi. Natijada to‘da yagona bir butundek harakt qiladi, undagi ayrim odamlar o‘z individualligini yo‘qotadi: to‘dadagi odam o‘zini nazorat qilishga, vaziyatni tanqidiy baholashga deyarli qodir emas, u ijtimoiy – madaniy me‘yorlarga bo‘ysunadi.

### **2.3 Jamoat xizmat ko‘rsatish obyektlariga ijtimoiy – funksional talablar**

Jamoat binolarini loyihalashda aholining barcha kontingentlariga quyidagilarni ta‘minlash kerak:

- barcha turdagi xizmatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, fazoviy jihatdan foydalanilishni, xizmatlar turlarini tanlash imkonini, shuningdek xizmat ko‘rsatish vaqti, joyi, shaklini tanlash imkoniyati;
- xizmat ko‘rsatiladigan joyga borishga ketadigan vaqtni va xizmat ko‘rsatishga va kutishga ketadigan vaqtni kamaytirish;
- xizmat ko‘rsatishning yuqori sifati; xizmat ko‘rsatish vaqtida jismoniy va psixologik qulaylik.

Individual iste‘molchilik talablari jamoat binolarning arxitekturaviy loyihalash doirasida ularning profiliga, quvvatiga, joylashuviga, fazoviy tashkil etilishiga, qiyofasiga nisbatan aniqlanadigan barcha tavsiflariga qo‘yiladi.

Jamoat binolari tor ixtisoslikdagi bitta muassasani joylashtirshi (kinoteatr), keng ixtisoslikdagi muassasani (universal, bo‘sh vaqtni o‘tkazish markazi), bir yoki turlicha ixtisoslikdagi bir necha muassasani (universal va univermag, yoki videozal, raqs zali kafe) joylashtirish uchun mo‘ljallanishi mumkin. Oxirgi holda jamoat binolari ko‘p vazifani bajaruvchi deb hisoblanadi. Ular kooperatsiyalashgan yoki ko‘p funksionalli bo‘lishi mumkin.

60 – 80 yillarda kooperatsiyalash jamoat binolarini loyihalashning yetakchi tamoyili bo‘lib qoldi. Buning sababi avvalo iqtisodiy mulohazalar bilan bog‘liq. Kooperatsiyalashgan binoni qurish va undan foydalanish qurilishda 15 – 20% gacha, foydalanishda esa 10 – 20% gacha iqtisodiy samara beradi, qurilish maydoni 2,- 2,25 marta qisqaradi. Bunday binolarda qo‘shni muassasalarga tegishli bir xilli xonalar va qurilmalarning takrorlanishi istisno etiladi: ularga umumiy vestibullar, garderoblar, sanuzellar, ombor hududlari, ortish – tushirish masalalari, ventilatsiya kameralari va boshqalar yaratiladi (tashkil etiladi). To‘siq qo‘yilganda har bir muassasa funksional mustaqillikni saqlab qoladi, umumiy xonalar tashkil

etilmaydi. Iqtisodiy samaraga qurilish materiallariga va konstruksiyalariga, obodonlashtirishga, ko'kalamzorlashtirishga, hududni jihozlashga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish hisobiga erishiladi. Shu bilan bir vaqtda bir necha muassasani bir binoda joylashtirish xizmat ko'rsatish kompleksligini oshiradi. Komplekslik effekti binodagi muassasalarning aniq tarkibiga bog'liq bo'ladi.

Keyingi o'n yilliklarda jamoat binolarini loyihalashda ularni mustaxkamlash yo'nalishi ustunlik qilmoqda. O'quv, savdo tomoshabop, davolash va boshqa obyektlarning sig'imi ortmoqda. Agar, masalan, 60–90 yillarda qurilish amaliyotida sig'imi 140 o'ringacha bo'lgan bolalar maktabgacha tarbiya muassasalarini, 600 – 900 o'rinli maktablar, 4 – 6 ming aholiga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan magazinlar ustunlik qilgan bo'lsa, hozirda esa 360 va undan ko'p o'rinli maktabgacha tarbiya majmualari, 15 – 20 ming aholiga xizmat ko'rsatuvchi savdo markazlari paydo bo'ldi. Jamoat binolarining yiriklashtirishi turar-joylarda va mikrorayonlarda aholi sonining va zichligining ortishi bilan bog'liq: ular qancha yuqori bo'lsa, turar-joydan borishning normativ radiusiga amal qilinganda xizmat ko'rsatuvchi muassasalarining quvvati shunchalik katta bo'ladi.

Jamoat binolari va inshootlarining yiriklashtirilishi faqat iqtisodiy talablarga emas, balki ijtimoiy – psixologik talablarga ham javob berishi kerak. Masalan, tribunolari bo'lgan stadion, universal zallar, kinokonsert zallari va shu kabi tomoshabop obyektlarning katta sig'imi tomoshabinlar, artistlar, sportchilar tomonidan ijobiy baxolanadi. Shu bilan birga xizmat ko'rsatuvchi muassasalarning yiriklashtirilishi va kooperatsiyalanishi bir qator salbiy ijtimoiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Jumladan, savdo va umumiy ovqatlanishi korxonalarini yiriklashtirish ularning soni kamayishini, xizmat ko'rsatishning monopollashuvini, tanlash imkoniyatlarining kamayishini, korxonalar o'rtasida raqobatning bo'lmasligini anglatadi. Uyig'indi quvvat bir xil bo'lganda kam sondagi muassasalarni anglatadi, bu esa xizmat ko'rsatishning normativ radiuslariga amal qilganda ham xizmatlarning fazoviy foydalanish mumkinligini yomonlashtiradi.

Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari uchun binolarni loyihalashda quvvat va foydalanish o'rtasidagi qarama – qarshilik xususan ishlab chiqarish va almashuv jarayonlarini ajratish hisobiga qisman hal qilinadi: dispers joylashgan kir yuvish, kimyoviy tozalash va h.k. larning qabul qilish punktlari iste'molchi bilan aloqa qiladi, asosiy ishlab chiqarish esa yirik mexanizatsiyalashgan markazlarda tashkil etiladi. Biroq bunda ham iste'molchilarning manfaatlari to'liq hisobga olinmaydi. Mehnatni fabrikaga o'xshash tashkil etish iste'molchilarning individual

xususiyatlarini hisobga olishiga imkon bermaydi, nostandart xizmatlar ko'rsatadi, yagona buyumlar tayyorlaydi. Maktablarni yiriklashtirish, ko'p kishilik (2.5 ming bolaga mo'ljallangan) maktab majmualarining yaratilishi ham salbiy ijtimoiy hodisalarga olib keladi. Ko'pchilik maktab o'quvchilari uchun bunday katta majmuada o'qish to'lda ichida ko'rinmaslikni (yo'qolib qolishlikni), o'qituvchilar va o'quvchilar uchun anonimlikni, o'zini ko'rsatishning, boshqalar tomonidan sezilarli bo'lishining mumkin emasligini anglatadi. Bu o'zining ongiga zarar yetkazadi, maktabdan tashqarida o'zini namoyon qilish imkoniyatlarini izlashga undaydi. O'quvchilar uchun psixologik qulaylik nuqtai nazaridan maktabning sig'imi 500 – 700 kishidan ortiq bo'lmasligi kerak. Bunday maktabda hamma har bir bolani, har bir bola hammani taniydi, barqaror jamoalar shakllanadi.

Xizmat ko'rsatish obyektlarini joylashtirish muammosi ikkita ijtimoiy ahamiyatga, jihatiga ega:

**Birinchi jihat** – ijtimoiy – madaniy - u jamoat binolari ommaviy intilish fokuslari (markazlari) bo'lib xizmat qiladi, fazoviy aloqalar uchun, muloqot uchun sharoit yaratishi bilan bog'liq.

**Ikkinchi jihat** – jamoat obyektlarini joylashtirish muommolari – u xizmat ko'rsatuvchi muassasalarning iste'molchilar bilan qulay transport, piyoda va axborot sohasidagi aloqalarini ta'minlashdan iborat.

Turar-joylarda jamoat binolarini joylashtirish bilan jamoatchilik faolligining o'ziga xos ustuni – birgalikdagi faoliyatning, jonlanishning, tabiiy muloqotning bir joyga to'planishi bo'g'inlari va o'qlari tizimi yaratiladi. Jamoat binolarining joylashtirilishi muhitni vizual (ko'rib) tartibga solishda muhit o'rin tutadi. Ma'muriy – omillar, ilmiy axborot, tomoshabop, sport binolari va inshootlarining yirik hajmlari odatda odamni fazoda mo'ljol olishiga imkon beruvchi dominantlar sifatida joylashtiriladi. Jamoat obyektlarini joylashtirish hududlar va turar-joylarning xizmat ko'rsatish tarmoqlarini shahar qurilishini loyihalash doirasida kompleks hal etiladi.

Yirik korxonalarning o'tish yo'laklari, yirik jamoatchilik binolari va inshootlari, transport uzellari, ommaviy dam olish joylari yo'l – yo'lakay xizmat ko'rsatishni ta'minlaydigan inshootlarni, binolar va qurilmalarni doim o'ziga "tortadi". Yo'l - yo'lakay xizmat ko'rsatishga ommaviy talab qilinadigan tovarlar savdosi, umumiy ovqatlanish, ma'lumotnoma – axborot xizmati, qisqa muddatli dam olish va h.k. lar kiradi. Masalan, yirik kinoteatrlar, magazinlar, ko'rgazma zallari yaqinda bolalar xonalari va maydonchalarini tashkil etish maqsadga muvofiq

bo'lib, u yerda kichik bolani kattalar nazorati ostiga ma'lum muddatga qoldirish mumkin bo'ladi. Agar aholi to'planadigan joylarda yo'l – yo'lakay xizmat ko'rsatish obyektlari loyihada nazarda tutilmagan bo'lsa, ular stixiyali tarzda vujudga keladi.

Har qanday jamoat binosi, inshoot yoki qurilma yaqin hududlarda ma'lum darajada jadal yoki sustroq yuk oqimlarini, yo'lovchilar oqimlarini, passajirlar oqimlarini vujudga keltiradi. Xizmat ko'rsatish obyektlarini joylashtirishda unga olib boruvchi transport va piyodalar kommunikatsiyalarining va kerakli sig'imga ega parkinglar uchun yetarli yer usti yoki yer osti fazoning yetarli o'tkazish qobiliyatini ta'minlash kerak. Jamoat binolarini joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilayotganda uning atrofga, avvalo turar-joylarga, boshqa jamoat obyektlariga (bolalar bog'chalari, maktablar, kasalxonalarga), umumiy foydalanishdagi ochiq fazolarga, zararli ta'sirini minimumga keltirish to'g'risidagi masalani oldindan o'ylab ko'rish zarur.

Umuman olganda, xizmat ko'rsatuvchi muassasalarning bevosita oqimidagi aholi bu muassasalarga transport qancha kam kelsa, texnologiyasi qanchalik shovqinsiz bo'lsa, quvvati (sig'imi) qanchalik kam bo'lsa, shunchalik tinch munosabatda bo'ladilar. Uncha katta bo'lmagan qurilgan yoki ust yoniga qurilgan magazinlardan, dorixonalardan, 2–7 kishilik sataroshxonalardan aholi o'zini kidek foydalanadi. Bu hollarda aholining ko'pchiligi ayrim noqulayliklarga ko'nikadi, chunki ular xizmat ko'rsatish jarayonida yanada insoniy, iliq munosabatlar bilan qoplanib ketadi. Shuni ham hisobga olish zarurki, umumiy foydalanishdagi ochiq ko'kalamzorlashtirilgan makonlar yaqinida yirik jamoat binolari va inshootlarini joylashtirish bu hududlarning o'ziga tortishini orttiradi, ammo shu bilan bir vaqtda ularga yuklanishni oshiradi. Shaharlarda o'tkazilgan tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, tomosha muassasalari, mehmonxonalar, oliy o'quv yurtlariga tashrif qiluvchilarning, shuningdek yaqinda joylashgan muassasalar va maktablar o'quvchilarining, ma'muriy – ishchan muassasalar xodimlarining ularning yaqinida joylashgan parklar, xiyobonlar va bulvarlardan faol foydalanadilar.


Jamoatchilik markazlarini yaratishi iqtisodiy va ijtimoiy afzalliklarni beradi, ya'ni ko'pchilik xizmat ko'rsatuvchi obyektlarning cheklangan hududda jamlangan holda joylashtirish. Zamonaviy sharoitlarda ixtisoslashtirilgan (savdo, sport, tibbiyot, ma'muriy – ishchan) va funksional markazlar (ularga jamoat binolari va turli xildagi bino hamda inshootlar kiradi) tashkil etilmoqda. Jamoatchilik markazida binolarning ixcham joylashtirilishi iste'molchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratadi va jamoatchilik binolarini kooperatsiyalash va blokirovkalash effekti iqtisodiy

samarani ta'minlaydi. Jamoatchilik markazlarini shakllantirishda uning yaqinida joylashtiriladigan obyektlarning ishlash tartibini hisobga olish kerak. Ma'muriy ishchan muassasalar, savdo korxonalari, maishiy xizmat ko'rsatish, qisman umumiy ovqatlanish korxonalari o'z ishini ertaroq tugatishadi. Natijada kechki soatlarda markaz huvillab qolishi mumkin. Shuning uchun jamoatchilik markazlari tarkibiga faqat kunduzgi emas, balki kechki paytlarda ham ishlovchi muassasalarni – kinoteatrlar, restoranlar, kechki kafelarni kiritish maqsadga muvofiq.

Jamoatchilik binolari yashash muhitini shakllantirishida alohida ahamiyatga ega. O'ziga ko'pchilik kishini jalb etib, uning ta'siri doirasiga kirib qolganlarning barchasiga tashrif buyurishlari uchun qulay bo'lgani holda jamoatchilik binolari individ va oilaning turmushini shahar hayoti bilan bog'laydi. Ijtimoiy hayotda bu o'ziga xos roli bilan ularning qiyofasini va kompozitsion qurilishini shakllantirish vazifalari belgilanadi. Ularning muhim tavsiflari qatoriga quyidagilar kiradi: diqqatni jalb qiluvchi o'ziga xoslik, shuningdek barqaror qiziqishni qo'llab – quvvatlash uchun yetarli bo'lgan murakkablik; go'zallik, uyg'unlik va hissiy ifodalanganlik; fazoviy tashkil etilganlik (tashkillashning), binoning vazifasiga muvofiqligi, xalq an'analari va milliylikning o'ziga xosligi, o'z tarixi, o'zining hayot tarzi to'g'risidagi tasavvuri va h.k.

Mamlakatimizda jamoatchilik binolarini loyihalashning asosiy tamoyillaridan biri turkumlash (tiplarga bo'lish) bo'ldi. Turkum loyihalar jamiyatning va aholining standart, takrorlanuvchi ehtiyojlarini ta'minlovchi muassasalar uchun mo'ljallangan ommaviy qurilish barcha jamoatchilik binolari uchun ishlab chiqilmoqda. Turkum loyihalar iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqdir – u loyiha xujjatlarini ishlab chiqish va binolarni qurish muddatlarini qisqartiradi, qurilish ishlab chiqarishni industriallashtirishga, kapital mablag'larni sarfini kamaytirishga imkon beradi.

Shu bilan birga turkum loyihalar hamma joyda bir xil binolarning qurilishiga olib boradi. Natijada ularning qiyofasiga nisbatan qo'yilgan birinchi talabning – kompozitsiyaning o'ziga xosligi, uning yangiligi, odatdan tashqari shaklda bo'lishi, degan talablarning bajarilishi imkoni bo'lmaydi. Bu talabning bajarilmasligi bir xillikka, ommaviy qurilishning monoton bo'lishiga olib keladi, kuzatuvchini charchatadi, zerikish, xafaqonlikni keltirib chiqaradi. U talablarning ikkinchi guruhini hisobga olishga imkon beradi. Zerikarli bo'lgan, qiziqish uyg'otmaydigan narsa emotsional (hissiy) jihatdan ifodali bo'la olmaydi. Takrorlanuvchi binolar hatto ularning qiyofasi, fakturasi, rangli va h.k. uyg'unlikning barcha qoidalari bo'yicha aniqlangan bo'lsa ham chiroyli bo'lib ko'rinmaydi.



**Kooperativlashgan yarim funksional rayon markazi.**

*1-klub 800 o‘rinli zal bilan, 2-sport zal, 3-kinozal, 4-umumiy ovqatlanish korxonasi, 5-magazinlar, 6-maishiy xizmatni qabul punkti, 7-mehmonxona.*

Semantik haqqoniylilik talabi jamoatchilik binolari va inshootlari turar-joylarda va turar-joylar orasidagi hududlarda mo‘ljall vazifasini bajaradi. Avvalo bu baland dominantlarga taalluqlidir, ular avvallari uzoqdan ko‘rinib turar va tom ma’noda turar-joyning eng muhim bo‘g‘inlari tomon yo‘lni ko‘rsatib turar edi.

Uncha katta bo‘lmagan bino ham mo‘ljall vazifasini bajaradi. So‘rovlarda aniqlanishicha, shaharliklar ularning uylarini qanday topish mumkin degan savolga javob berishda “maktab yonida, oziq – ovqat magazini orqasida” va h.k. ifodalardan foydalanishadi. Fazoda mo‘ljall olishni yengillashtirish uchun jamoatchilik binolarining turkumli belgilarini ta’minlash maqsadga muvofiq – maktab maktabga o‘xshashi, basseyn-basseyniga, teatr – teatrga o‘xshashi va h.k. kerak. Bu talab har holda mutloq talab emas. Binoning jamoatga taalluqligi g‘oyasining o‘zini binoning hajmida, qiyofasida, plastikasida ifodalash yana ham muhimdir - bu yerda qiyofaning semantik haqqoniyligi talabi dunyoqarash talabi bilan qo‘shilib ketadi.

### **III BOB. ISHLAB CHIQARISH BINOLARINI ARXITEKTURAVIY LOYIHALASHNING IJTIMOIIY ASOSLARI**

---

#### **3.1 Umumiy holat**

Arxitekturaviy loyihalashning ishlab chiqarish obyektlari – bu alohida ish o‘rinlari, ishlab chiqarish xonalari, binolar, inshootlar, korxonalar, sanoat uzellari, sanoat rayonlaridir. Ishlab chiqarish obyektlarini loyihalash loyiha ishlarining barcha turlarini, bosqichlarini, pog‘onalarini qamrab oladi – rayonni rejalashtirishdan tortib to alohida bino yoki inshootgacha. Yangi ishlab chiqarish obyektlarini yaratishda va mavjudlarini rekonstruksiya qilishda ishtirok etib, arxitektor umuman ijtimoiy rivojlanishning yo‘nalishini va jadalligini belgilovchi ijtimoiy ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga faol kirishib ketadi.

Ishlab chiqarish binolari tipologiyasi, joylashtirilishi, fazoviy tashkil etilishi xalq – xo‘jaligi majmuining tarmoq tuzilmasi bilan yaqin bog‘langan. Tarmoq tuzilma avvalo moddiy ishlab chiqarish sohasini va nomoddiy ishlab chiqarish sohasini ajratishga asoslangan. Birinchisiga quyidagilar kiradi: qishloq xo‘jaligi, sanoat, qurilish, moddiy – texnik ta‘minot, transport va boshqalar. Moddiy sohaning yiriklashtirilgan tarmoqlari yanada kichiklariga bo‘linadi; qishloq xo‘jaligida o‘simlikshunoslik va chorvachilik ajratiladi, sanoatda – homashyo olish va uni qayta ishlash va h.k. Nomoddiy ishlab chiqarishga quyidagilar kiradi: xizmat ko‘rsatish, boshqarish, axborot faoliyati. Yanada kichikroq bo‘laklarga ajratish axborot faoliyatida, masalan, maorif, fan, san‘at, matbuot, statistika va shu kabi tarmoqlarni ajratishga olib keladi.

Ishlab chiqarishning tarmoq xususiyati uning fazoviy tashkil etilishiga, joylashtirilishiga, ishlab chiqarish binolari hududlari, majmualari qiyofasiga ta‘sir qiladi. Shuning uchun u ishlab chiqarish obyektlarining bazis tarmoq tipologiyasida aks etgan. Bu tipologiya doirasida ishlab chiqarish obyektlari qishloq xo‘jalik, sanoat, qurilish va transport obyektlariga bo‘linadi.

Aytib o‘tilgan guruhlardan har birining ichida obyektlarning ko‘rinishlari va turlari ajratiladi, masalan, kon qazish va kon – to‘yintirish sanoati, oziq – ovqat sanoati korxonalari, negativ kimyo korxonalari, energetika, mashinasozlik korxonalari va h.k. Ishlab chiqarish arxitektura obyektlarining tarmoq tipologiyasi iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasi rivojlanishi bilan birga murakkablashadi va boyiydi – har bir yangi tarmoqning vujudga kelishi doim o‘ziga xos ishlab chiqarish obyektlarining

vujudga kelishini ham anglatadi. Qaror topgan tarmoqlar ichida texnologiyaning rivojlanishi ham huddi shu natijaga olib keladi va elektrostansiyalar, aeroportlar, avtozavodlar, teleminoralar, yig‘ma temir beton zavodlari, silos minoralari va h.k. lar vujudga keldi. Mehnat jamoalari o‘zlarining jamoat ahamiyatiga ega vazifalarini bajarishlari kerak, ularga, birinchi navbatda ishlab chiqarishning maksimal iqtisodiy samaradorligida kerakli miqdorda va yuqori sifatdagi mahsulot ishlab chiqarishi (xalq xo‘jaligi funksiyasi); xodimlarning jismoniy va ma’naviy rivojlanishi uchun sharoit yaratish (xususan, ijtimoiy funksiya).

Ikkala funksiya ham bir biriga bog‘langan. Samarali mehnat insonga o‘z imkoniyatlarini namoyon qilishga imkon beradi, qoniqish hissini uyg‘otadi. Ijtimoiy funksiyani hisobga olish mehnat unumdorligini oshiradi va shu bilan xalq xo‘jaligi funksiyasini amalga oshirishga imkon beradi. Amerika firmalarining ma’lumotlariga ko‘ra mukammal texnologiyada va mehnat yaxshi tashkil etilganda xususan ijtimoiy omillarning faollashuvi ishlab chiqarish hajmining 60 – 70% gacha ortishini ta’minlaydi. Ishlab chiqarishni rivojlantirishda belgilovchi ro‘lni mehnat jamoasi o‘ynaydi. Mehnat jamoalari kattaligi, mavjud bo‘lish davomiyligi va yuridik maqomi bo‘yicha tabaqalanadi. Ular orasida ko‘pchilik – bu korxonalarining rasmiy jamoalari bo‘lib, ular davlat va kooperativ jamoalari bo‘lishi mumkin.

Asosiy ishlab chiqarish bo‘linmalarining tarkibini va qo‘shilishini belgilovchi ishlab chiqarish tuzilmasida o‘zaro aloqalar xususiyati va ular faoliyati doirasi uchta yiriklashtirilgan qism tizimni ajratish lozim. Birinchidan, asosiy ishlab chiqarishning sexlari va uchastkalari qism tizimi, u yagona buyumlar oqimiga uning qo‘shni fazolarini ham bog‘laydi. Ikkinchidan, ishlab chiqarishning texnik xizmat ko‘rsatish qism tizimi, u asosiy ishlab chiqarishning faoliyat yuritishini ta’minlaydi va o‘z ichiga ta’mirlash, omborxona, transport, energetik xizmat ko‘rsatish sexlari va xo‘jaliklarini qamrab oladi. Uchinchidan, mehnatkashlarga xizmat ko‘rsatish qism tizimi, u rivojlangan muassasalar tarmog‘iga ega bo‘lib, ular quyidagi asosiy guruhlariga birlashtirilgan: sanitariya gigiyenik xizmat ko‘rsatish, sog‘liqni saqlash, umumiy ovqatlanish, madaniy - ommaviy xizmat ko‘rsatish, kommunal – maishiy xizmat ko‘rsatish. Sanoat korxonalari binolarini turkumlashning asosiy o‘rinlaridan biri ularning ishlab chiqarish (asosiy ishlab chiqarish, ishlab chiqarishga texnologik xizmat ko‘rsatish) va yordamchi (mehnatkashlarga xizmat ko‘rsatish binolari va xonalari, ishlab chiqarishga tashkiliy xizmat ko‘rsatish) turkumlarga ajratilishi hisoblanadi. Bu turkumda mehnat jamoasining rasmiy ishlab chiqarish va tashkiliy tuzilmasi aks etadi.

Fanning ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish to‘g‘risidagi yutuqlari yangi turdagi zallı idora xonalarining tarqalishi uchun asos bo‘ldi. Ularni faqat katta - kichikligi emas balki fazoviy muhitning alohida muhitini ham tavsıflaydi, unda mehnatni tashkil etish bo‘yicha mutaxassislarning kuchlari tufayli, arxitektorlar, yorug‘lik bo‘yicha texniklar, rassom dizaynerlar, santexniklarning kuchi bilan mehnatning o‘zi uchun ham, ishlab chiqarishni boshqarish tizimi uchun ham bir qator afzalliklar yaratildi. Tashkiliy va sotsiologik sharoıtlarning yaratilishi ishlashdagi akustik, optik, mikro muhitli sharoıtlarni yaratish bilan birgalikda ta‘minlanadi. Bunda unifikatsiyalashgan seksiyali mebel, turli xildagi to‘siqlar, kichik shakllar keng qo‘llaniladi. Ma‘muriy – boshqaruv mehnati uchun katta ishchi zallarining mutloq afzalliklari qatoriga ulardan foydalanishning moslashuvchanligini, xodimlar o‘rtasida yanada to‘liq aloqani amalga oshirishni, yanada yuqori mehnat unumdorligini kiritish mumkin.

Ishlab chiqarish binolarini zonalarga ajratish ishlab chiqarish faoliyatining tarkibi, texnologiyasi va tashkil etilishi bilan belgilanadi. Uning eng muhim tashkil etuvchisi – professional mehnatdir. Normalangan smena ichi vaqtincha dam olishi, fiziologogik ehtiyojlarni qondirish, o‘ziga qarash bevosita ishlab chiqarish mehnati bilan bog‘langan. Bundan tashqari, ko‘pgina korxonalar o‘z xodimlariga jamoat xizmat ko‘rsatishini, birgalikdagi jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini, sport bilan shug‘ullanishini, badiiy havaskorlikni, ishdan tashqari vaqtlarda birgalikda dam olishini, hodimlarning bolalariga xizmat ko‘rsatishni, qo‘lostidagi tashkilotlarda va korxonalarning yordamchi xo‘jaliklarida mehnat qilishini va h.k. larni tashkil etadilar.

### **3.2 Sanoat binolarining arxitekturaviy fazoviy yechimlari**

Arxitekturaviy – fazoviy yechimlar tegishli ishlab chiqarishlarning mutaxassis-texnologlari tomonidan ishlab chiqilgan texnologik sxemalarga nisbatan qo‘llanilib qabul qilinadi. Bu sxemalarda ishlab chiqarish uchastkalarining va ish o‘rinlarining soni, o‘lchami, konfiguratsiyasi, tarkibi, xususiyati, texnologik qurilmalarning joylashtirilishi, muhandislik qurilmalarining tavsifi, ortishi-tushirish mexanizmlarining tarkibi va harakatlanish yo‘nalish va h.k. lar belgilangan.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi ko‘p jihat individual mehnat unumdorligiga bog‘liq. Uning oshirilishiga imkon beruvchi omillar qatorida ish


o‘rnini fazoviy tashkil etish muhim o‘rin tutadi. U qo‘shimcha operatsiyalarga (harakat, qayta tashish), ish vaqti sarfini qisqartirishga, harakatlarni tejashga, jismoniy, aqliy, hissiy kuchlanishlarni oqilona kattaliklargacha pasaytirishga, xodimning xavfsizligini ta‘minlashga va ishlab chiqarishdagi zararliklardan ximoya qilishga yordam berishi kerak. Ish o‘rinlari har xildir. Ommaviy kasblar uchun mehnatni tashkil etish bo‘yicha mutaxassislar tomonidan ish o‘rinlari haritalari ishlab chiqarilmoqda, ularda ish o‘rnini jihozlash, rejalashtirish, xizmat ko‘rsatish tartibi mufassal ko‘rsatiladi. Ish o‘rinlarini loyihalash antropometriya, odam fiziologiyasi va psixologiyasi, ergonomika ma‘lumotlarini hisobga olgan holda olib boriladi.

Insonning rivojlanishi uchun professional mehnatning harakteri asosiy ta‘sirli ta‘sirni ko‘rsatadi. Bu ta‘sirni ko‘pgina fanlar o‘rganadi – mehnat gigiyenasidan to mehnat sotsiologiyasigacha. Gigiyenistlar va fiziologlar uni ishlovchilarning salomatligini muhofaza qilish nuqtai nazarida tadqiq qilishsa, psixologlar, sotsiologlar, pedogoglar - shaxsning o‘zini namoyon qilishi ehtiyojlarini qondirish, har tomonlama, uyg‘un, erkin rivojlanishi nuqtai nazaridan tadqiq qiladilar.

Tibbiy nuqtai nazaridan ishlab chiqarish mehnati zararsiz va zararli turlarga bo‘linadi. Zararsiz turi hayot uchun xavf tug‘dirish bilan bog‘liq emas va o‘ziga xos kasb kasalliklarini keltirib chiqarmaydi. Ikkinchisi, yoki doimiy jismoniy, aqliy, hissiy, sensorli o‘ta kuchlanish bilan hayot uchun xavf bilan bog‘liq, yoki xodimga ishlab chiqarishdagi zararlilarning (zaxar, chang, shovqin, titrash, sovuq, issiq, rentgen yoki boshqa ionlovchi nurlanish, kasallantiruvchi mikroblar va h.k.) ta‘siri bilan bog‘liq. Ikkinchi guruhga kasblarning ancha qismi kiradi: bir zararli omillarning ahamiyati pasayishi boshqalarning paydo bo‘lishi va tarqalishi bilan birga kechadi. Xususan, umuman olganda ochiq havoda og‘ir jismoniy mehnat bilan band bo‘lganlar soni qisqarmoqda, bunday kishilar soni avvalo qishloq xo‘jaligida, qurilishda, transportda va h.k. da ko‘pchilikni tashkil etadi. Shu bilan birga ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish sohasining kengaytirilishi, tez ishlovchi mexanizmlarning qo‘llanilishi modda va energiyani turli xil kimyoviy, fizik, mexanik shakl almashtirishlar shunga olib kelmoqdaki, mehnatning xaddan ortiq jadalligi, gipodinamiya, ruhiy o‘ta yuklanishlar, yanada yangi ishlab chiqarish ta‘siri bilan bog‘liq kasblarning ommaviylashishiga olib borishi mumkin. Shu bilan birga ilmiy texnik taraqqiyoti zararli mehnat turining qisqarishiga olib bormoqda.

**Ishlayotganlarga xizmat ko‘rsatish** - mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutiladigan ishlab chiqarishda mehnatni va xavfsizlik texnikasini

muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarning umumiy tuzimining bir qismidir. Ishlayotganlarning xizmat ko'rsatish darajasi mehnat unumdorligiga va mehnat madaniyatiga, ishlovchilarning salomatligini muhofaza qilishga, kadrlarni tashkil etish va tayyor-lashga ta'sir ko'rsatgani uchun uni ishlab chiqarishning muhim ijtimoiy – iqtisodiy omili sifatida qarash lozim.



**Mehnat jarayonini ta'minlovchi obodonlashtirish va dizayn elementlari (V. G. Desyatov sxemasi):** 1-piyodalar yo'li; 2-ko'priklar; 3-yer osti yo'llari; 4-galereyalar; 5-oriyentirlar, vizual ma'lumotlar; 6-taqsimlovchi maydon; 7-dam olish va qo'shimcha yuklanishni olish uchun xonalar; 8-isitish xonasi; 9-radiatsion kabinetlar; 10-gidro muolaja xonasi; 11-dush xonalar; 12-yuvinish xonasi; 13-qo'l vannalari; 14-savdo kioska; 15-do'konchalar; 16- ichimliklarni gazlaydigan qurilma; 17-iste'mol avtomatlari; 18-suv ichiladigan favvoralar; 19-choy va vitaminli ichimliklarni tayyorlaydigan xona; 20-bufetlar; 21-oshxonadagi taqsimlovchi qism; 22-sexdagi aptechkalar; 23-sanpostlar; 24-sexdagi tibbiy punktlar; 25-chekish uchun joy; 26-buyurtma stollari.

**Ishlayotganlarga xizmat ko'rsatish** - mehnat to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutiladigan ishlab chiqarishda mehnatni va xavfsizlik texnikasini muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarning umumiy tuzimining bir qismidir. Ishlayotganlarning xizmat ko'rsatish darajasi mehnat unumdorligiga va mehnat madaniyatiga, ishlovchilarning salomatligini muhofaza qilishga, kadrlarni tashkil etish va tayyorlashga ta'sir ko'rsatgani uchun uni ishlab chiqarishning muhim ijtimoiy - iqtisodiy omili sifatida qarash lozim. Korxonalar xodimlariga xizmat ko'rsatish tizimi obyektlari korxonaning tuzilmasi, mehnat qilish sharoitlari va tashkil etilishiga muvofiq ikki bosqichga ajraladi. Birinchisiga, asosan ish smenasi davomida har kuni foydalaniladigan ishlab chiqarish faoliyati va xodimlarning fiziologik ehtiyojlari (masalan, sanitariya - gigiyenik vazifani bajaruvchi, umumiy ovqatlanish) bilan bog'liq bo'lgan obyektlar kiradi.

Ikkinchi bosqichga, ishdan tashqari vaqtda, davriy va onda - sonda foydalaniladigan, umumshahar xizmat ko'rsatish tizimini ko'pincha takrorlovchi o'xshash obyektlar (masalan, poliklinikalar, savdo maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari) kiradi. Birinchi guruh obyektlari o'z navbatida ikki kichik guruhga ajraladi:

a) mahalliy (sex ichi) xizmat ko'rsatish bunga ish vaqti fondi tomonidan hisobga olinadigan ko'p qirrali har kuni foydalaniladigan obyektlar kiradi, masalan, qo'l yuvish, hojatxonalar, dam olish xonalari. Bunday xonalarning tashkil etilishi ayniqsa, noqulay muhitda kechuvchi, katta jismoniy yuklanishlarda katta asab kuchi bilan, ishlab chiqarishning manoton harakteridagi ishlab chiqarish jarayonlarida dolzarbdir;

b) umum sex yoki sexlararo xizmat ko'rsatishda, bunga ishdan tashqari vaqtlarda, smena davomida, shuningdek smena boshlanguncha va smena tugagandan so'ng har kuni foydalaniladigan obyektlar (masalan, oshxonalar, garderobxona, dushxonalar) kiradi. Oshxonalarni loyihalash ishlovchilarning umumiy soniga, ularning demografik tarkibiga, ish o'rinlarini joylashtirish zichligiga, ulardan oshxonaning uzoqligi darajasiga va h.k. larga bog'liq.

Sanoat korxonalarini loyihalashda nazarda tutiladigan sog'liqni saqlash xonalari va muassasalarining nomenklatrasi kengaymoqda: feldsherlik sog'liqni saqlash punktlari va sanpostlar, ayrim hollarda ishlab chiqarish texnologiyasi sharoitlariga javob beruvchi, bo'linmalari mahsus rivojlantirilgan tibbiy majmualar, profilaktoriylar. Masalan, chang va gaz ajraladigan korxonalarda ingelyatoriylar nazarda tutiladi. Xodimlarga savdo xizmati ko'rsatish ishlab chiqarish korxonalarining azaldan an'anasiga kirib qolgan. Zamonaviy sharoitlarda bunday xizmat ko'rsatish ishchi ta'minot bo'limlari magazinlari va oshxonalari, qishloq kooperatsiyasi va buyurtmalar stollari, hamda davlat savdo tarmog'i va umumiy ovqatlanish tarmog'i magazinlari orqali amalga oshiriladi. Savdo punktlari shunday joylashtiriladiki, korxona xodimlari ulardan foydalanishi qulay bo'lsin.

Keyingi o'n yilliklarda ishlab chiqarishda savdo xizmatiga maishiy va kommunal xizmatlar ham qo'shiladi. Ish joyida xizmat ko'rsatish, birinchidan, harakatlanishga (borish - kelishiga) ketadigan vaqt sarfini kamaytiradi, ikkinchidan, xizmatlarni kechki va kechasidagi smenalarda ishlovchilar uchun qulay qiladi, uchinchidan, talab yuqori bo'lgan tovarlar va xizmatlar taqchilligini kamaytiradi.

Korxonalarda madaniy va sport ommaviy ish xuddi xafta oxirida va ta'tillar paytida o'tkazish dam olishni tashkil etish kabi jamoaning jipslashishiga,

xodimlarning madaniy darajasini oshirishga, ularning kasbidan boshqa faoliyatida shaxsiy qobiliyatlarining ochilishiga imkon beradi. Bu maqsadga korxonalarning madaniyat uylari, sport majmualari, muzeylar va ko'rgazma zallari, shahardan tashqari dam olish maskanlari (pansionatlar, sayyohlik bazalari, dam olish uylari va h.k.) yaratish (tashkil etish) hisobiga erishiladi. Shahardan tashqarida dam olish muassasalarini idoraviy qurilishi jamiyatning umuman ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishining barqaror omilidir. Muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tavsif ishlab chiqarish obyektlarining - binoshootlar, hududlar, ansambllarning qiyofasidir. Qiyofa avvalo korxonalarda ishlovchilar uchun muhimdir. Masalan, ishlab chiqarish xonalari interyerining yechimi ishlovchilarning ijobiy hissiy kayfiyatiga imkon beradi, ularni jadal, diqqat bilan va shu bilan bir vaqtda tinch mehnat qilishlariga rag'batlantiradi.

## **IV BOB. SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARNING TUZILISHI VA DASTURI**

---

### **4.1 Sotsiologik tadqiqot turlari**

Sotsiologik tadqiqotlar tuzilmasida uchta daraja farq qilinadi: umumiy sotsiologik nazariya va metodologiya, bilimlarning mahsus (tarmoq) sotsiologik bo'limlari, ularga amaliy arxitektura – shahar qurilishi tadqiqotlar (arxitektura sotsiologiyasi) kiradi; nazariy bilimlar asosini tashkil etuvchi emperik tadqiqotlar.

Amaliy arxitektura - sotsiologik tadqiqotlar o'rta darajadagi bo'limlardan birini shakllantiradi. Ularning arxitektura shahar qurilish masalalarining yechimiga yo'naltirilganligi ko'p tomonlama va kompleks sotsiologik tadqiqotlarning o'tkazilishini talab etadi. Tadqiqotlarning ko'p tomonlamalik xususiyati shunga ham bog'liqki arxitektura va shahar qurilishining fazoviy obyektlarida ijtimoiy jarayonlarning xilma-xil tavsiflari iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy - psixologik, huquqiy va ularni tashkil etishning boshqa tomonlari aks etadi.

Bu bunday tadqiqotlarning fanlararo xususiyatini, loyihaaning ijtimoiy asoslarini yoki normativlarni ishlab chiqishda ixtisosligi bo'yicha ko'pgina ajralgan mutaxassislarning ishtirok etishini belgilab beradi. Arxitekturada sotsiologik tadqiqotlarning kompleksligi ijtimoiy muammoni tadqiq qilishning pirovard maqsadiga zarur mo'ljall olishiga asoslanadi: arxitektura va shahar qurilishi sohasida tavsiyalarni, dasturlarni va (yoki) prognozlarni.

Arxitekturada sotsiologik tadqiqot doim konstruktiv mo'ljallangan: qaror topgan shahar qurilishi vaziyatining o'zgarishiga, u yoki bu faoliyat turlarini tashkil etish uchun yangi fazoviy sharoitlarni yaratishiga yo'naltirilgan.

Arxitektura – shahar qurilishi vazifalari ma'lum bir ijtimoiy birlikda aniqlangan anglanadigan jamoat ehtiyoji ko'rinishida aniq ijtimoiy muammoni shu tarzda ifodalaydi: hudud, shahar, turar-joy kvartali aholisi, mehnat jamoasi, oila va h.k. ko'rsatib o'tilganidek, arxitektura va shahar qurilishi birinchi navbatda hududiy birikmalar – hududdan (fazodan) birgalikda foydalanish bilan tavsiflanuvchi guruhlar rivojlanishni o'rganishga, bashorat qilishiga va rejalashtirishiga tayanadi. Arxitektura – shahar qurilishi obyektlarini fazoviy tashkil etishning turli darajalari ko'rib chiqilayotgan ijtimoiy birliklarning tegishli darajalariga ham bog'liq bo'ladi.

Bino va inshootlarning shakllanishi muommolarini tahlil qilishida individlarning, kichik ijtimoiy guruhlarining, jamoalarining ehtiyojlarini va

hulqlarini ko'rib chiqish to'g'risida gap boradi. Bu yerda asosiy diqqat e'tibor tahlilning xususan sotsiologik va ijtimoiy psixologik jihatlariga qaratiladi. Turar-joy, xizmat ko'rsatish muassasalari, ishlab chiqarish muhiti tipologiyasini ishlab chiqish bilan bog'liq sotsiologik tadqiqotlar ana shulardir. Shaharni turar-joy va ishlab chiqarish rayonlari, shahar markazlarini loyihalashda katta ijtimoiy yig'indilarning: hududiy birliklarning (shahar, rayon aholisi): ishlab chiqarish hamjamiyatlari (yirik ishlab chiqarish jamoalari, ishlab chiqarish tuzilmasi ijtimoiy institut sifatida); bir xil xulqdagi ommaviy guruhlar (to'da, piyodalar oqimi) ning hayot faoliyati tadqiq etiladi. Bu darajada shaxsiy, jamoaviy va umumiy ehtiyojlar va manfaatlar yanada murakkab tarzda o'zaro ta'sirlanadi. Unga mos holda, xulqning aniq shakllarini tadqiq qilishlar, ommaviy ijtimoiy jarayonlarning psixologiyasi va statistik ma'lumotlari murakkab tarzda integratsiyalanadi (qo'shiladi).

Mazmuni bo'yicha barcha xilma xil arxitektura – sotsiologik masalalarning hal qilishda tadqiqotchi emperik ma'lumotlarga tayanadi. **Emperik bilimlar** aniq vaqtda va makonda amalga oshiriladigan real ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni aks ettiradi (umumiy qonuniyatlarni aks ettiruvchi va doim u yoki bu tarzda abstraksiyalashgan nazariy bilimlardan farqli ravishda). Emperik bilimlar nazariy umumlashtirishlar va ommaviy qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Arxitektura va shahar qurilishida sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish obyekti va metodi bo'yicha ikki guruhga ajratilishi mumkin. Birinchisi – individlar va turli ijtimoiy yig'indilarga taalluqli aniq ijtimoiy omillarni (hulq, ehtiyojlar, fikrlar, baholari) tadqiq etish. Bu turdagi tadqiqotlar xususiyati bo'yicha aniq sotsiologik tadqiqotlarga o'xshash va sotsiologiyada ishlab chiqilgan metodlar va asbob-uskunalaridan foydalanadi, ammo fazoga bog'lab qilinadi.

Bu holda olinadigan emperik ma'lumotlar bevosita hayotiy faktlarni, birlamchi sotsiologik axborotni aks ettiradi. Misol tariqasida turar-joyda turli xil oilalarning ehtiyojlarini va hulqini tadqiq qilish, aholining moyatniksimon migratsiyasi sabablari va tuzilmasini tadqiq etish xizmat qilishi mumkin. Bunda tekshirishlarning dala metodlari: so'rovlar, kuzatishlar eng ko'p qo'llaniladi.

Ikkinchi guruh – xujjatli manbalarni tadqiq etish. Bu holda tadqiq etilayotgan ijtimoiy faktlar sifatida avval to'plangan va statistik yoki grafik ishlov berilgan material (ro'yxatga olish, statistik hisobotlar, kartalar va h.k.lar) ko'rib chiqiladi. Bunda tadqiqotchining vazifasi tadqiqot dasturiga muvofiq materialni ikkilamchi tanlov hisoblanadi, va keyin unga ishlov berish va tahlil qilishdir. Hujjatlar bilan ishlash shahar qurilishida ayniqsa keng foydalaniladi.

Ammo, tadqiqotlarning bu turi arxitekturaning boshqa bo'limlarida ham qo'llaniladi. Turar-joy qurilishi turlarini tanlashda demografik statistika xujjatlarini arxivli tadqiq etish misol bo'lishi mumkin. Emperik tadqiqotlarning xususiyati arxitektura va shahar qurilishi obyektlari xususiyatlari: fazoviy va hududiy tuzilmalar bilan bog'liq. Ijtimoiy hodisalar va jarayonlar fazoviy jihatdan qarab chiqiladi, binoning hududi va fazosi bilan taqqoslanadi. Bu jihatdan ular ijtimoiy – grafik tadqiqotlarga o'xshash, bu esa tegishli metodlar va axborot manbalaridan foydalanishga imkon beradi.

Emperik tadqiqotlar metodikasi tadqiqot obyektlari sinflarini va obyektlarini aniqlashga, tadqiq etilayotgan materialning zarur hajmlarini axborot to'plash manbalari va usullarini, axborotga ishlov berish va umumlashtirish usullarini aniqlashga taalluqli tamoyillari va qoidalarining yig'indisidan iborat. Boshqacha aytganda metodik zarur axborotni olishni ta'minlovchi tadqiqot predmeti va usulini belgilaydi. Emperik tahlilni o'tkazishning aniq metodlari, vazifalari va dasturlari turlicha bo'lgan tadqiqotlarda foydalaniladigan stereotip elementlarni o'z ichiga oladi. Bunday elementlar qatoriga tadqiq etilayotgan materialni tanlab olish (saralash) prinsiplari, ma'lumotlarni to'plash metodlari (anketalash, intervyu olish, kuzatish), axborotga statistik ishlov berish usullari (shkalalash, taqqoslash va boshq.) kiradi. Tadqiqot metodikasini tavsiflovchi usullar va tadbirlar yig'indisi sotsiologik tadqiqotlar texnikasi deb ataladi.

Emperik sotsiologik tadqiqotlar metodlari boshqa ijtimoiy fanlar metodikasiga o'xshash, ularning ko'pchiligi boshqa fanlarda vujudga kelgan – demografiya, geografiya, statistikasi. Arxitektura bu bilim sohalarining metodikalari, turli ijtimoiy fanlar metodlari keng foydalaniladi. Shuning uchun emperik sotsiologik tadqiqotlar metodikasi atamasi keng ma'noda tushiniladi, jumladan aniq ijtimoiy faktlarning tadqiqoti barcha chegarasini ham hisobga oladi va ularning barchasiga xos bo'lgan tadqiqotlar o'tkazishning umumiy tamoyillari va usullarini tavsiflaydi.

**Qidiruv (pilotaj) tadqiqot** – bu odatda keng tadqiqotning vazifalari va dasturlarini, metodlari va instrumentariysini (qurollarini) aniqlashtirishga yo'naltirilgan chuqur tadqiqotlarning dastlabki bosqichidir. Misol tariqasida tadqiqot metodikasini aniqlashtirish maqsadida tuman aholisini turar-joydan qoniqanligi to'g'risida pilotaj so'rov xizmat qilish mumkin: anketa varaqlarining ishchi variantini kuzatish kartochkalarini, va axborot qabul qilishning boshqa qurollarini ishlab chiqishdan. Bundan tashqari, qidiruv tadqiqoti aniq masala bo'yicha tezkor ma'lumotlar olishga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.

Aholidan shahar transporti marshrutlarining o'zgartirilishini baholash bo'yicha ekspress – so'rovnomasimon misol sifatida xizmat qilish mumkin. Qidiruv tadqiqotining alohida turi bundan keyingi tadqiqotlarning dasturlarini va farazlarini aniqlashtirishga yo'naltirilgan mutaxassislarni so'rov qilish hisoblanadi. Masalan, shaharni ehtimolli rivojlantirish istiqboli yoki shahar turar-joyi turlari bo'yicha so'rov.

**Tavsifli (bayon etib yozish) tadqiqot** ko'rilayotgan obyekt to'g'risida to'liq ma'lumot olish, ma'lum bir jarayonda qonuniyatlarni aniqlash uchun o'tkaziladi. Ilmiy tavsif (yozish) doimo jarayonlar va hodisalarni tasniflash, ularning nisbatlarini aniqlash bilan bog'liq. Misol tariqasida, shahar va tumanning turar-joy fondining nomenklaturasini aniqlash maqsadida oilalar statistikasi tavsifi xizmat qilishi mumkin. Bunday tadqiqotning birinchi vazifasi malakaviy belgini aniqlashdan iborat (bizning misolda bunday belgi sifatida turar-joy tuzilmasidagi ehtiyojlarning farqi hisoblanadi) va keyin bu belgi asosida aniqlangan malaka guruhlariga muvofiq oilalar statistikasini aniqlashdan iborat.

Tavsifli tadqiqotlar turli xil tavsiflari bilan farqlanuvchi katta ijtimoiy guruhlariga (odamlar, oilalar, turar-joy bo'yicha ijtimoiy guruhlariga) nisbatan o'tkaziladi. Bundan tadqiqotlar natijalari statistik xususiyatga ega. Ular turli belgilar va elementlarning taqsimlanishi qonuniyatlarini (hodisaning tuzilmasini); aholining demografik tuzilmasini (aholini jinsi va yoshi bo'yicha taqsimlanishni), ijtimoiy – professional tuzilmasini (kasbi, malakasi, mehnatga qo'l urish sohasi va h.k.) aniqlaydi. Arxitektura – shahar qurilishi tadqiqotlarida makonda va vaqtda ijtimoiy hodisalarning taqsimlanishi katta rol o'ynaydi. Masalan, shahar ichi migratsiyalari tavsifi (aholining ko'chishi) fazoda (makonda) oqimlarning taqsimlanishi bilan, vaqt bo'yicha esa (sutkalik va haftalik sikllar bo'yicha) bu ko'chishlar hajmi bo'yicha. Tavsif shunday qilib, doim ko'rib chiqalayotgan ijtimoiy – fazoviy qonuniyatlarni aniqlashga yo'naltirilgan statistik ma'muriyatlarni to'plash va tasniflashdan iborat bo'ladi.

## **4.2 Sotsiologiyada analitik tadqiqot**

**Analitik (tahliliy) tadqiqot** – sotsiologik tadqiqotning eng chuqurlashtirilgan ko'rinishidir. Uning maqsadi – hodisaning tuzilmasini faqat tasniflash (klassifikatsiyalash) va tavsif emas, balki sababli oqibatli bog'lanishlarni aniqlash, hodisalarni izohlashdir. Misol tariqasida odamning turar-joydagi hulqi bilan,

turar-joy turi va oilaning ijtimoiy demografik tavsiflari o'rtasidagi aloqalarni aniqlash xizmat qilishi mumkin. Analitik tadqiqotlar binolarni loyihalashda, arxitekturaviy normalashda, shahar qurilishi konsepsiyalarini ishlab chiqishda qarorlar qabul qilishga yo'naltirilgan. Analitik tadqiqotlar konstruktiv tatbiqiy xususiyatga ega va pirovard natijada, sotsiologiyadan arxitekturaga eng ko'p qiyinchilik keltirishiga imkon beruvchi o'tish bosqichi bo'lib hisoblanadi va eng avval, asoslashlarning xaqqoniyligi xususida. Arxitekturaviy qarorni qabul qilishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning xilma xilligi barcha real ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olish imkoniyati bilan va ulardan har birining ta'sir darajasini baholash (taqqoslash) bilan bog'liq bosh qiyinchilik sabab bo'ladi.

Analitik tadqiqotlar xulosalari bo'lajak ijtimoiy rivojlanish modellarini mantiqiy konstruksiyalashni shakllantirish uchun, ijtimoiy prognoz qilish uchun asos bo'ladi. Tadqiqotni mo'ljal qilish va tadqiq qilayotgan axborot xarakteri tadqiqotning maqsadlari, vazifalari va farazlariga bog'liq bo'ladi. Arxitektura – sotsiologik tadqiqot uchun juda jiddiy lahzada ijtimoiy jarayonlar va fazoviy tuzilmalarning o'zaro aloqasi konsepsiyasi hisoblanadi.

Axborot manbai bo'lib aholini ro'yxatga olish materiallari, mamlakatni va hududlarni rivojlantirishning uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy dasturlari, tarmoq dasturlari, ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishning tegishli ustuvorliklari va maqsadlari hamda ularning ballari. Tadqiqot tavsifi – asosan statistik hujjatlarni tahlil qilish (davlat statistikasi ma'lumotlarini, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasi tarmoq statistikasi). Binolarni – turar-joy, xizmat ko'rsatish muassasalari, ishlab chiqarish obyektlarini loyihalashda - tadqiqotlarning bosh mo'ljali loyihani rejalashtirishga va qurilmalariga aniq talablarni aniqlash bilan bog'liq. Bu aniq tekshirishlar metodlaridan; aholini va xodimlarni kuzatish va so'rovlar metodidan keng foydalanishga sabab bo'ladi. Bunga mos holda mazkur statistikasi xujjatlarning ahamiyati (ortiqcha umumlashtirilgan sifatida) va ijtimoiy jarayonlar va hodisalarni to'g'ridan to'g'ri kuzatishning ahamiyati ortadi.

**Amaliy arxitektura – sotsiologik tadqiqotlarga** uchta asosiy bosqich kiradi: dasturni ishlab chiqish, materialni yig'ish; materialni umumlashtirish va tahlil qilish. Bu bosqichlarning mazmuni ijtimoiy – nazariy va xususan emperik tadqiqotlar uchun ancha farq qiladi. Oxirgi tadqiqotlarni o'tkazishda axborot olish, manbalarini aniqlash, axborot birliklarini aniqlash, axborot to'plash texnikasini tanlash kabi metodik masalalar ahamiyati katta rol o'ynaydi. Keyingi qismda tadqiqotning aytib o'tilgan bosqichlari ko'rib chiqiladi.

### 4.3 Sotsiologik tadqiqot dasturi

1. Dastur tadqiqotning maqsadlari, obyekti, tuzilmasi, chegaralari va metodlarini belgilab beradi. Arxitektura – sotsiologik tadqiqotlarda maqsadlarning va tegishli tadqiqot dasturlarining uchta darajasini farqlash zarur:

- **bosh maqsad** – arxitektura muammosini hal etish: **amaliy sotsiologik tadqiqot maqsadi** arxitektura muommosi yechimini asoslashga yo‘naltirilgan; **empirik tadqiqot maqsadi**, sotsiologik asoslashlar va tavsiyalar uchun bazani shakllantiradi.

Masalan, turar-joy tipologiyasini ishlab chiqishning arxitekturaviy muammosi amaliy sotsiologik tadqiqotning maqsadlarini ifodalashni ta‘minlaydi: oilalarning ijtimoiy – demografik tuzilmasi turar-joyi tipologiyasiga ta‘sirini aniqlash. Oxirgisi o‘z navbatida oilalarning xonadondagi xonalardan funksional foydalanishlarini empirik tadqiqot o‘tkazish maqsadi va dasturini belgilab beradi. Uchta darajadagi dasturlar va maqsadlarning o‘zaro aloqasini ko‘rish mumkin. Turar-joy tipologiyasini ishlab chiqish dasturi bo‘limlardan biri sifatida sotsiologik tadqiqot dasturlarini o‘z ichiga oladi (boshqalar qatori: texnik – iqtisodiy, konstruktiv va boshq.). O‘z navbatida, amaliy sotsiologik tadqiqot dasturi bir qator empirik tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. O‘tkazilayotgan tadqiqot darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning dasturi shunchalik kompleks bo‘ladi.

Sotsiologik tadqiqot dasturi o‘rganilayotgan **obyektni aniqlaydi**: ijtimoiy elementlar (individlari, guruhlar, hududiy birlashmalar), xodisalar va jarayonlar yig‘indisi. Obyektni tanlash ham arxitektura – shahar qurilishi muommosini hal qilishni ta‘minlaydi. Masalan, keltirilgan misolda tadqiqot obyekti bo‘lib turar-joyda amalga oshiriladigan turli xil jarayonlar xizmat qiladi.

Dasturda tadqiqot gipotezasi – tadqiqot natijasining ilmiy farazi (taxmini) bo‘lishi kerak. **Gipotezaning** ishlab chiqilganlik darajasi turlicha bo‘lishi mumkin. Sotsiologiyada gipotezalarning **uchta bosqichi** farq qilinadi.

**Haqiqiy holat to‘g‘risidagi gipotezalar** ko‘rib chiqilayotgan xodisalarni tavsiflovchi taklif etilayotgan taqsimlashlar, munosabatlarni ifodalaydi. Misol tariqasida markazgacha bo‘lgan masofaga bog‘liq holda moyatnikli migratsiyalarning aglomeratsiyada ularning jadalligi bo‘yicha taqsimlash to‘g‘risidagi gipoteza xizmat qilishi mumkin.

**Ko‘rib chiqilayotgan hodisalarning sabablari to‘g‘risidagi gipotezalar** (tushuntirish gipotezalari) ijtimoiy hodisalarning o‘zaro bog‘liqligini ifodalaydi. Migratsiyalarni tadqiq qilishda ular xajmlarining qisqarishi sabablari, masalan, vaqt sarfining ortishi sabablari aniqlanishi mumkin.

**Tendensiyalar (qonuniyatlar) to‘g‘risidagi gipotezalar** ularning qonuniyatligi to‘g‘risida gapirishga imkon beruvchi barqaror takrorlanuvchi hodisalarni va sababli oqibatli bog‘lanishlarni tavsiflaydi. Masalan, ko‘rib chiqilgan misolda boriladigan joylarning uzoqligi va sarflanadigan vaqtga migratsiya parametrlarining qulayligi va barqaror bog‘liqligi to‘g‘risidagi gipoteza tadqiq etilishi mumkin.

**Qo‘yilgan maqsad** va ishlab chiqilayotgan gipotezaga muvofiq ko‘rib chiqilayotgan masalaning tavsifi, izohini (sababiy - oqibatli bog‘lanishlarni tahlil qilish) va nazariyasini o‘z ichiga olgan tadqiqotlar farq qilinadi. Bu ma’lumotlar asosida oldindan ko‘ra bilishi va qabul qilingan qarorlarning turli darajalari to‘g‘risida gapirish mumkin. **Birinchi holda** kuzatilayotgan tendensiyalarni ekstrapolyatsiya qilish mumkinligi to‘g‘risida, **ikkinchi holda** turli omillarning ta’sirini hisobga olgan holda aniq bir masalani yechish to‘g‘risida, **uchinchi holda** hal qilinadigan muammo bo‘yicha konsepsiyani ishlab chiqish mumkinligi to‘g‘risida boradi.

Gipoteza mavjud bo‘lganda tadqiqot dasturi tadqiqotning mantiqiy modeli tavsifini o‘z ichiga oladi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgandek, arxitektura – shahar qurilishi tadqiqotlaridagi bunday modellar qatoriga joylashtirish, rayonlashtirish, balans, tipologik modellarni kiritish mumkin. Bunga o‘xshash tadqiqot modellari dasturni aniq tadqiqot metodiga o‘zgartiradi. Masalan, turli xizmat ko‘rsatish sohalarida ehtiyojlarning balanslanganligi haqidagi gipoteza va aholi vaqt sarflari balans modellarini tahlil qilish uchun foydalanish, pirovordida, tadqiqotning butun tuzilmasini va metodikasini belgilab beradi.

Kompleks tadqiqot umumiy dasturlari, gipotezlari va modellarini aniq empirik tadqiqot o‘tkazish darajasida ishlab chiqish bilan birga o‘zini dasturi ham ishlab chiqiladi. U tadqiqot mavzusini va vazifalarini, uning qo‘yilgan umumiy vazifalar tuzilmasidagi o‘rnini, ko‘rilayotgan masala bo‘yicha bilimlarning holatini belgilab beradi. Dastur tadqiqotning xususiyatlarini ifodalaydi: tadqiqotni o‘tkazish natijasida ta’minlanadigan amaliy va bilimiga oid ehtiyojlar. Yuqori darajadagi dastur singari empirik tadqiqot dasturi gipotezalarni o‘z ichiga oladi.

Empirik tadqiqot umumiy arxitektura dasturida kompleks sotsiologik tadqiqot dasturiga kiritilgan metodologik shart – sharoitlarga tayanadi. Shuningdek umumiy arxitektura dasturida kompleks sotsiologik tadqiqotlar dasturiga kiritilgan asosiy tushunchalardan foydalanadi. Dala tadqiqotlarini o‘tkazish dasturlari dasturni aniqlashtirishning ohirgi bosqichini ifodalovchi savolnomani o‘z ichiga oladi.

Dasturdan tashqari tadqiqotning ishchi rejasi ishlab chiqiladi, u sotsiologik tadqiqotni o‘tkazish bosqichlarini ifodalaydi: tayyorgarlik bosqichi, unga dasturni ishlab chiqish, axborotga ishlov berish, loyihasini, material to‘plash metodikasini ishlab chiqish, tashkiliy reja (rahbarlar va ijrochilarni tayyorlash, axborotni to‘plash grafigini, qayd qilinuvchi hujjatlarni to‘plash grafigini ishlab chiqish) kiradi; dala tekshirishlarini yoki xujjatli materiallarni to‘plashni amalga oshirish; axborotga birlamchi ishlov berish, shkalalash va kodlash materialni guruhlash, hisoblashlarni tekshirish; natijalarni tahlil qilish va tadqiqot materiallarini umumlashtirish, yakuniy hisobotlarni tayyorlash, tavsiyalar ishlab chiqish, umumiy arxitektura - sotsiologik vazifalar nuqtai nazaridan natijalarni talqin qilish.

Sotsiologik tadqiqotlar dasturini ishlab chiqishda zarur axborotning mos chuqurligi va umumlashganligini nazarda tutish zarur. Bu shuningdek axborot manbalarini tanlashni ham aniqlaydi. Har qanday sotsiologik tadqiqot ko‘rib chiqilayotgan ijtimoiy hodisalar va jarayonlarning statistik qonuniyatlarini aniqlashga asoslangan.

#### **4.4 Material yig‘ish (to‘plash)**

**4a. Axborot manbalari.** Amaliy arxitektura shahar qurilishi tadqiqotlarining tavsifi kuzatilayotgan jarayonlarning miqyoslari va ommaviyligiga bog‘liq holda farq qilinadi. Tadqiqot obyektlari diapazoni shahar, hudud, butun davlat aholisi miqyosidaga ijtimoiy birikmalardan to oilalargacha va boshqa kichik rasmiy va norasmiy guruhlargacha o‘zgarib turadi. Bu axborot manbalarida avvalo quyidagi ikki guruhni farqlash zarurligini taqozo etadi:

1) keng statistik shaharlarni ifodalovchi, ommaviy xususiyatga ega jarayonlarni tavsiflovchi manbalar. Masalan, aholining tabiiy harakati statistikasi va uning hudud bo‘yicha taqsimlanishi, ishlab chiqarish tuzilmasi va joylashtirilishi bo‘yicha ma’lumotlar, bu ma’lumotlar materialni qamrab olish kengligi bilan tavsiflanadi, biroq odatda, kamroq detallashtirilgan;

2) tadqiqotning nisbatan tor doiralari odatda taalluqli bo'lgan ijtimoiy hodisalarni mufassal tahlilini ifodalovchi manbalar: yoki o'rganilayotgan materialning kontingenti bo'yicha (masalan, mikrorayon aholisining o'zini tutishi), yoki tadqiq etilayotgan muammo bo'yicha (masalan, shahar aholisining mehnatdagi ko'chirlari harakatlari) statistikasi.

**a). Hujjatli manbalar** ko'rilayotgan materialning qamrovi kengligi va xarakteri bo'yicha farq qilinuvchi keng guruhni ifodalaydi. Arxitektura va shahar qurilishida foydalaniladigan hujjatli manbalarning asosiy qismi materialni qamrab olish kengligi bilan bir qatorda kichik detallashtirish bilan tavsiflanadi. Avval ta'kidlanganidek, hujjatli manbalar shahar qurilishini loyihalashda shuningdek binolar nomenklaturasini va tipologiyasini ishlab chiqishda, sotsiologik axborotning asosini tashkil etadi. Xujjatli manbalarning turlarini qisqa ko'rib chiqamiz.

**Statistik nashrlar:** ro'yxatga olishlar ma'lumotlari, halq xo'jaligining statistik ma'lumotnomalari, halq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha rivojlanish rejalari va hisobotlarini, mamlakatni hududlarni, aholi turar-joylarini ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish rejalari, o'tkazilgan tadqiqotlar bo'yicha statistik maqolalar. Bu hujjatlarda quyidagi ma'lumotlar bo'ladi: demografik statistika (aholining soni, tuzilmasi va dinamikasi); aholi joylarini joylashtirish statistikasi va dinamikasi; halq xo'jaligini rivojlantirish statistikasi: tarmoq tuzilmasi, mehnat qilishiga layoqatli aholi tuzilmasi (malakali, kasbiy, ma'lumoti darajasi, daromadi va h.k.lar bo'yicha ma'lumotlar); qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha ma'lumotlar (ekin maydonlari, xosildorlik va boshq.); transport bo'yicha ma'lumotlar (transport turlari, oqimlari, tashishlarning uzoqligi va boshqalar.).

**Kartalar, rejalar, aero - fotosuratga olish, kosmik suratga olish** materiallari hududning tabiiy sharoitlari va iqtisodiy resurslarini, joylashtirish va turar-joylar dinamikasini tavsiflaydi. Hujjatlarning bu turiga xususan shahar qurilishi to'g'risidagi axborot ham kiradi: tayanch rejalar, tarixiy, loyihaviy va prognoz kartalar hamda rejalar. Statistik maqolalar va kartografik material birlamchi ishlov berilgan (guruhlar, tasnif) manbalari ifoda etadi, bu esa bu manbaning qo'shimcha qulayliklarini tashkil etadi.

**Arxiv materiallari** – shahar qurilishi, yerdan foydalanishni shakllantirish tarixi, loyihalash tarixi, ayrim bino va inshootlarning faoliyat yuritishi va qayta qurilishi tarixi bo'yicha xujjatlar. Arxiv materiallariga shuningdek shaharning rivojlanishi va shahar jarayonlari dinamikasini tavsiflovchi muassasalar va korxonalarning davriy hisobotlari hujjatlari kiradi. Masalan, turar-joy maydonini

almashtirish bo'yicha, kasalliklar statistikasi bo'yicha, oilalarni rivojlantirish dinamikasi bo'yicha (oilalarning o'sishi va bo'linishi, nikoh ajralish statistikasi), asotsial hodisalar soni bo'yicha ma'lumotlar va boshq., shaharlar bo'yicha, shahar tumanlari bo'yicha tabaqalashtirilgan ma'lumotlar.

**Jadvallar, telefon kitoblari, manzil ma'lumot nomlari va h.k.** – shahar xo'jaligi turli tashkil etuvchilarining: xizmat ko'rsatish muassasalari, shahar transporti, shahar migratsiyalari dinamikasi va h.k. dinamikasini shahar qurilishi bo'yicha tahlil qilish uchun foydali manbalardir.

Aytib o'tilgan barcha axborot manbalari rasmiy hujjatlar toifasiga kiradi. Shu bilan bir qatorda sotsiologik tadqiqotlarda shaxsiy hujjatlardan: individning shaxsiy harakatlari tavsifi (avtobiografiyalar, kundaliklar, xatlar, berilgan mavzu bo'yicha insholar) dan foydalaniladi. Bu guruhga shaharni, shahar hayotini tavsiflovchi badiiy manbalarni kiritish mumkin.

**4b. Tekshirishlar** – axborot manbalarining ikkinchi guruhini ifodalaydi. U ikki turga bo'linadi: kuzatuvlar va so'rovnomalar.

**Kuzatishlar** – ijtimoiy haqiqat (borliq) hodisalarini bevosita qayd etish. Sotsiologik kuzatuv tadqiqot vazifasiga bo'ysundirilgan. Masalan, turar-joy hovlisi makonida yashovchilarning o'zini tutishlarini kuzatish turli xil funksiyalarni joylashtirishda: dam olish, o'yinlar, piyodalar va transport harakatini joylashtirishda afzalini (ustuvorini) aniqlash maqsadida o'tkazilishi mumkin. **Quyidagi kuzatish turlari farq qilinadi:** oddiy, ishtirok etuvchi, ulangan, eksperimental, o'zi kuzatish.

**Oddiy kuzatish** tashqi kuzatuvchining nuqtai nazaridan o'tkaziladi. Turar-joy majmuasi hududida yashovchilarning xulqini kuzatish (sokin dam olish joylarini tanlash, bolalar o'rinlarini, sport o'yinlarini va boshq. tanlash); shahar markazida kunning vaqtiga bog'liq holda piyodalar o'tadigan yo'llarning jadalligini va fazoviy lokalizatsiyasini kuzatish.

**Ishtirok etuvchi kuzatish** kuzatilayotgan jarayonning ishtirokchilarning o'zlari tomonidan amalga oshiriladi. Jumladan, turar-joy dahasida dam olishni tashkil etishda xalaqitlar ustidan kuzatish o'tkazish mumkin. Shu maqsadda kuzatishga yashovchilarning o'zlari (axborot beruvchilar) jalb qilinadi. Kuzatishning bunday shakli baho, jarayon ishtirokchisi fikrini olishga imkon beradi.

**Kuzatishning keyingi turi – ulangan**, bunda tadqiqotchi mazkur guruhning faoliyatida yashirin nom bilan ishtirok etadi. Bunday kuzatish omilkor o'yinlarda, mehnat jarayonlarini tadqiq etishda, faol muloqotning boshqa turlarida amalga oshiriladi. U avvalgisidan ommaviyligi kamligi bilan farq qiladi.

**Eksperemental kuzatish** – kuzatish bu jarayonlarni qayd qilish uchun texnik vositalarni qo‘llanib mahsus sharoitlarda amalga oshiriladi.

**O‘zini kuzatish** tadqiqotchi tomonidan tadqiqot vazifaning qo‘yilishini aniqlashtirish uchun yoki ayrim ma’lumotlarni detallashtirish uchun o‘tkaziladi. Bunga misol tariqasida bo‘sh vaqtni tashkil etish va taqsimlash bo‘yicha, harakatlanish uchun vaqt sarflanishi bo‘yicha o‘zini kuzatishlar xizmat qiladi. Uzoq kundalik yozuvlari ayrim hodisalarning ommaviy bir martalik tadqiqotlarda tutib olish qiyin bo‘lgan dinamikasini ko‘rishga imkon beradi.

**So‘rovlar** binolarning turkumlarini ishlab chiqishda va bir qator shahar qurilishi tadqiqotlarida keng foydalaniladigan miqyosli va ko‘p xildagi tekshirishlar guruhini tashkil etadi. So‘rovlarning eng keng tarqalgan turlari – anketalash va intervyu olishdir. So‘rovning ikkala turi ham dasturiydir. Ular individual (yakka tartibda) va guruhii; og‘zaki va yozma, shaxsiy va sirtidan bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari dastursiz so‘rovlardan ham foydalaniladi: suhbat va berilgan mavzu bo‘yicha bayon, mos holda, shaxsiy va sirtqi. So‘rovlar, odatda, har qanday sotsiologik tadqiqotning zarur elementi hisoblanadi va turli xil holda subyektiv xususiyatga ega ma’lumot olish imkonini beradi.

Arxitektura – sotsiologik tadqiqotlarda so‘rovlarning verbal shakli bilan birga grafik shakli keng qo‘llaniladi. Misol tariqasida K. Linch tomonidan [3] shaharning tuzilishi to‘g‘risida shaharliklardan so‘rovlar tizimi xizmat qilishi mumkin. Tadqiqotning qo‘yilishini aniqlashtirishga imkon beruvchi ekspert so‘rovlar alohida guruhni tashkil etishi mumkin.

**Anketalash** statistik hujjatlar bilan qamrab olinmaydigan ijtimoiy guruhlarining ehtiyojlarini, baholarini va o‘zini tutishini o‘rganish uchun foydalaniladi. Ular, odatda, ancha mayda masshtabga (binolarni, majmualarni loyihalashga) tegishlidir. Masalan, anketa tadqiqotlari oilalarning ijtimoiy tuzilmasiga muvofiq yoki aholi migratsiyasi sabablarini aniqlash uchun dam olishni tashkil etishning turli shakllaridagi ehtiyojlarni aniqlash uchun o‘tkaziladi.

Anketalarda uch guruhdagi savollar bo‘ladi: so‘rov joyi va so‘ralayotganning tavsifini; so‘rov sharoitlari tavsifini (arxitektura – shaharlar qurilishi sharoitlari va muhit sifati); so‘raluvchilarning hulqi yoki fikri to‘g‘risida ma’lumotlar.

Savollarning birinchi guruhi – ko‘pchilik anketalar uchun umumiy. U so‘rov joyi, so‘ralayotgan shaxsning turar-joyi va tavsifi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni: jinsi, yoshi, ijtimoiy holati (kasbi, ma’lumoti, oilaviy holati va boshq.) olishga yo‘naltirilgan. Yanada mufassal ishlab chiqish malaka to‘g‘risida, oila a‘zolaridan

bittasining daromadi, ish haqi miqdori, millati, ijtimoiy kelib chiqishi va boshq. ma'lumotlarning kiritilishini talab etishi mumkin. Ijtimoiy holat to'g'risidagi masalalarni ba'zida anketaning ijtimoiy – demografik pasporti deyiladi.

Birinchi blok savollari mazmuni tadqiqot vazifalariga bog'liq. Masalan, demografik tuzilishiga ko'ra har xil oilalarning turar-joylariga talablarni aniqlash, oilalarning soni, jins-yosh tuzilmasi, ularning dinamikasi to'g'risidagi masalalarni kiritishni shart qilib qo'yiladi. Oilalarning ijtimoiy tavsiflariga bog'liq holda talablarning farqlarini aniqlash masalalari kasbiy tuzilma, ma'lumot darajasi, oilalar budjeti to'g'risidagi qo'shimcha masalalarni kiritishni talab etadi.

Arxitektura – shahar qurilishi masalalarini tahlil qilishga yo'naltirilgan anketalarning ko'pchiligida ikkinchi, yoyilgan, "muhit" tavsiflari: yashash sharoitlari, mehnat qilish joyi, madaniy – maishiy xizmat ko'rsatishini tashkil etish, transport masalalarni o'z ichiga oladi. Ular qatoriga: turar-joyni tahlil qilishda egallangan maydon o'lchami, undagi jihozlarning xususiyati; xizmat ko'rsatishni tashkil etishni tahlil qilishda – muassasalarni turar-joyga nisbatan nomenklaturasi va joylashtirilishi; mehnat migratsiyalarini tahlil qilishda – mehnatni amalga oshirish joylarining joylashtirilishni, transport turi va h.k.

Anketadagi savollarning uchinchi bloki so'ralayotganlarning o'zini tutishi yoki fikrlarining o'rganilayotgan tavsiflariga yo'naltirilgan. Oilalarning kvartiraning u yoki bu xonalari va hududlaridan foydalanish to'g'risidagi; turar-joyni tanlashda uning qavatlar miqdoriga yoki shahar tumaniga afzallik berish to'g'risidagi masalalar xizmat qilish mumkin. Bu savollar bloki tahlil vazifalariga muvofiq ishlab chiqiladi va yo'nalishi bo'yicha har xil tadqiqotlarda turlichadir. Mo'ljal bo'yicha quyidagi tadqiqotchilik bloklari farqlanadi: fazoviy o'zini tutish tavsifi; baholashlar va afzalliklarni aniqlash; hulq sabablarini (motivlarini) aniqlash; ehtiyojlarni aniqlash. Amaliy arxitektura tadqiqotlarida eng keng tarqalgan birinchi mo'ljal olish obyektiv faktlarni tavsiflaydi va shuning uchun eng ishonchlidir. Quyidagi savollar misol bo'lib xizmat qilishi mumkin: "Siz oziq – ovqatlarni qaysi magazindan harid qilasiz?" "Oilangiz qayerda (kvartiraning qaysi xonasida) ovqatlanadi?" va h.k.

Navbatdagi savollar bloki hulq sabablarini (motivlarini) aniqlashga yo'naltirilgan. Bunga misol tariqasida boshqa shaharga ko'chib o'tish sababi to'g'risidagi savollar xizmat qilishi mumkin (ishdan qoniqmaslik, turar-joy sharoitlari yomon, muhit va h.k). Arxitektura shahar qurilishi vazifalarining

o'ziga xos xususiyatlari xususan shahar qurilish vazifalari rolini boshqa hayotiy baholashlar tizimidagi sabablarini aniqlashga mahsus e'tibor berilishini talab qiladi.

Yana bitta savollar bloki – ko'rilayotgan hodisalar va jarayonlarning ehtiyojlarini, istalgan rivojlanish istiqbollarini aniqlash. O'ziga xos misol tariqasida ish kuni qisqartirilganda (xizmat ko'ratish sohasini rivojlantirish istiqbollarini aniqlash maqsadida) faoliyat turlarini tanlashda ustuvorliklar to'g'risidagi savollar yoki turar-joyning istalgan turi to'g'risidagi (kam qavatli – ko'p qavatli, rejalashtiruvchi tuzilma, xonalarning o'lchami va h.k.) savollar xizmat qiladi.

Ohirgi uchta blokda baholar berilgan va javoblarning subyektiv xarakteri nazarda tutiladi. Aytib o'tilgan bloklar turlicha nisbatda qo'shilishi mumkin. So'rovning verbal shakli bilan bir qatorda grafik shaklidan xam foydalanish mumkin. Savollarning birinchi turini ochiq deb aytiladi. U javobning ancha erkin shaklini nazarda tutadi. Uning afzalligi mazmuniga ko'ra ancha boy axborot olish imkoniyatidir. Kamchiligi – ma'lumotlarga ishlov berish va taqqoslash qiyinligi. Masalan, aholining turar-joyini tanlashdagi afzalligini aniqlab, bunday ochiq savol berish mumkin: “Siz qanday turar-joyini afzal ko'rasiz?” Bunday savolga javob berishda turar-joyini baholashning jihatlari aniqlanishi mumkin: qavatli, tuzilishi (g'ishtli, ponel), shahardagi o'rni, yeri bor yo'qligi va h.k. Yopiq savolda tadqiqotchi odatda uni toraytirib, masalan, uni qavatni tanlashga keltirib, javoblar sohasini aytib turadi. Agar anketada avvalgi javoblar ro'yxati berilgan bo'lsa, u holda savol yopiq (berk) deb ataladi. Bunda savol muqobil sifatida, “ha” yoki “yo'q” javoblari bilan berilishi mumkin. Masalan, “Siz N shahrida yashaysizmi?” No muqobil savol bir necha variantni nazarda tutadi: Siz N shahrida yashaysizmi?”, N dan 1 km atrofida yashaysizmi?, N dan 5 km atrofida yashaysizmi?, N dan 5 – 10 km atrofida yashaysizmi; boshqa hududda yashaysizmi?

Ba'zida tekshirish uchun, to'g'ri savollar bilan birga anketaga bilvosita savollar ham kiritiladi. Masalan, “Siz shaharning qaysi tumanida (joyida) yashashni xoxlar edingiz?”. To'g'ri savol atrofdagilarning siz istagan sifatleri to'g'risidagi bilvosita savollar bilan to'ldirilishi mumkin. Yig'indida bu savollarga javoblar aholining afzalliklarini tasavvur etishga imkon beradi.

Anketa so'rovining alohida turi pochta orqali so'rovdur. Anketalarni pochta orqali tarqatish so'ralayotganlar uchun oddiy tashkil etilishi ma'lum qulayliklari bilan tavsiflanadi. Biroq anketalarning qaytarilish, odatda, to'la bo'lmaydi. Anketalar har doim ham to'g'ri to'ldirilmaydi, ba'zida jovob ko'pchilik tomonidan tuziladi. Yana bir so'rov turi matbuot orqali so'rov bo'lib, bunda anketa gazeta yoki

jurnalda bosiladi. Bu shakldan, masalan, aholining vaqt budjetini o'rganish uchun foydanilgan edi. Bunday so'rov yana anketalarning yoshi kichikligi bilan ham tavsiflanadi, bu esa olinmayotgan natijalarning xaqqoniylik darajasini pasaytiradi.

**Intervyu olish** – Intervyu ham anketa kabi so'rov shakli bo'lib xizmat qiladi. Uning xususiyati so'rovchining va so'ralayotgan shaxsning shaxsiy muloqoti bilan ifodalanadi. Ko'pchilik xollarda intervyu dasturli bo'ladi – oldindan ishlab chiqilgan reja bo'yicha o'tkaziladi. Bunday reja bo'lmaganda intervyu erkin deb ataladi. Intervyuning afzalliklari muloqot jarayonida so'ralayotgan shaxsning individualligini yanada chuqurroq tushunish, ko'rilayotgan hodisaning yorqin va haqiqiy manzarasini olish imkoni borligidan iborat.

Shuning uchun intervyu ekspertlarning so'rovi shakli sifatida keng foydalaniladi va odatdagi korespondentlarning doirasi uchun kamroq qo'llaniladi. Intervyuda testlardan, shkalalashdan foydalanish mumkin. Testlar – alohida turdagi savollar bo'lib, ular kishining ko'rib chiqilayotgan muommoga faqat umumiy munosabatini, uning dunyoqarashini, qaror qabul qilish uchun yaroqliligini, ya'ni ko'proq darajada so'raluvchilarning o'zlarini o'rganishga yo'naltirilganligini aniqlash maqsadida tuziladi. Uch xil intervyu farq qilinadi: rasmiylashtirilgan, fokuslangan va erkin. Rasmiylashtirilgan (standartlashtirilgan) intervyu so'rov o'tkazishni qat'iy reglamentga solinganligi bilan tavsiflanadi. Savollarning ifodalanishini va ketma – ketligini intervyuni o'zgartirmasligi kerak bo'lgan ishlab chiqilgan standart savolnoma mavjud. Savollar odatda yashirish tarzda ifodalanadi.

Standartlashtirilgan intervyuda testlar, shkalalar va boshqa texnik usullardan foydalanish mumkin. Fokuslangan intervyu savollarning va so'rovni o'tkazish tartibining kamroq standartlashtirilishi bilan tavsiflanadi. Oldindan tuzilgan savollar tartibi o'zgartirilishi mumkin. Muammoni endi tadqiq qilish boshlangan halatlarda umumiy baholashlar va tasavvurlarni aniqlashga yo'naltirilgan erkin intervyudan foydalanildi. Erkin intervyu oldindan tayyorlanadigan savolnomasiz, suhbat shaklida o'tkaziladi.

Telefan orqali intervyu yangi shakl bo'lib xizmat qiladi. U tezkorligi, "psixologik holatlar" kamligi va yuqori darajada haqqoniyligi bilan tavsiflanadi. Uning maqbul davomiyligi – 10 -15 min.

#### **4.5 Tahlil qilinayotgan materialni saralash (tanlab olish)**

Amaliy arxitektura – sotsiologik tadqiqotlarda tadqiq etilayotgan obyekt, odatda, katta ijtimoiy yig‘indini tashkil etadi: shahar, hudud, umuman respublika aholisi, yuz minglab mehnat jamoalari va turar-joy birikmalari, millionlab oilalar. Bunday miqyoslarda yalpi tadqiqot o‘tkazish juda kam (ro‘yxatga olishda) o‘tkaziladi va tadqiq etiladigan masalalrning nisbatan tor doirasi bilan tavsiflanadi. Bu banday keng sotsiologik tadqiqotlarni o‘tkazishga katta vaqt va mablag‘ sarflanishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ko‘rib chiqilayotgan ijtimoiy yig‘indining hajmi qanchalik katta bo‘lsa, uning shuncha kam tavsiflari tadqiq etilishi mumkin. Tadqiqot obyekti 500 birlik (odam, oila, qishloqlar) dan ortiqni tashkil etgan holda tadqiqotning tanlab olish metodidan foydalaniladi.

Tanlab olish metodi butun to‘g‘risidagi xulosalarning uning qismlarini o‘rganish asosida xaqqoniyligiga asoslanadi. Bu ko‘rib chiqilayotgan qismning muhimligi, uni butunning modeli sifatida qarash imkoniyati zarurligiga bog‘liq bo‘ladi. Tadqiq etilayotgan materialning zarur hajmini aniqlash tadbirini va shu xajmning o‘zini saralash (tanlash) deb ataladi. Tanlash butunni – bosh yig‘indini tasavvur qilish uchun zarur va yetarli bo‘lishi kerak.

Bosh yig‘indi – tadqiqot obyekti, ko‘rib chiqilayotgan ijtimoiy muommoning eltuvchisi. Xususan, shahar turar-joyi nomentklaturasini ishlab chiqishda bosh yig‘indi turar-joydan foydalanuvchilarning hammasi (shahardagi barcha oilalar va uy xo‘jaliklari), shahar transportini tashkil etishda ehtiyojni aniqlashda esa shahardagi barcha migrantlar hisoblanadi. Tanlab olingan yig‘indi (saralash) bosh yig‘indining bosh yig‘indini tadqiq etilayotgan belgilarga ko‘ra taqdim etishga qodir bo‘lgan qismini ifodalaydi. Tanlanma yig‘indining kattaligi va tarkibini aniqlash statistika nazariyasi tomonidan ishlab chiqilgan ma’lum qoidalar bo‘yicha amalga oshiriladi. Tanlanma yig‘indi tahlil elementlari deb ataluvchi elementlari – tadqiq etilishi kerak bo‘lgan bosh yig‘indining qismi (kuzatish, so‘rov, xujjatli tahlil qilinish).

Arxitektura – shahar qurilishi tadqiqotlarida tahlil qilish birliklari sifatida individlar va ijtimoiy guruhlar (oilalar, mehnat jamoasi) yoki hududiy tizimlar (turar-joy, turar-joy tumanlari, shahar va qishloq turar-joylari) bo‘lishi mumkin.

Oxirgi holatlarda shaharga yoki umuman tumanga taalluqli tavsiflar qarab chiqiladi (masalan, aholi soni va tarkibi, halq xo'jaligi majmui tuzilmasi va h.k.).

Tanlanma yig'indi hajmi tadqiqot vazifalari va ko'rib chiqilayotgan bosh yig'indining bir jinsliliigi darajasi bilan belgilanadi. Xaqqoniy axborot olish uchun tanlash o'lchamlari yetarlicha katta, statistik jihatdan ahamiyatli bo'lishii kerak.

Tasodifiy tanlash kuzatish birliklarini tanlashning bir tekisligi nuqtai-nazaridan foydalanishga asoslanadi. Bunda bosh maqsad - atayin hatoga yo'l qo'ymaslik. Tadqiqotga mo'ljal olish natijasida aniq izlanayotgan natijaning buzilishiga yo'l qo'ymaslik tasodifiy sonlar, lotoreya usullari, ruletka usullari jadvallaridan foydalanish tasodifiy tanlashning texnik usullari hisoblanadi.

Muntazam tanlash bosh yig'indining birliklarini bir tekis qamrab olishni nazarda tutadi. Hudud (shahar, mintaq) to'g'risida gap borgan holda kvadratlarga ajratish, intervallarni aniqlagan holda hudud bo'yicha joylashtirilgan nuqtalar tizimini ajratishdan foydalaniladi. Ijtimoiy tanlashda unga har bir  $p$  – element kiritiladi (har o'ninchi kvartira yoki magazinning o'ninchi xaridori).

Tasodifiy va muntazam tanlashlar bosh yig'indining tuzilmasi noma'lum bo'lgan xollarda foydalaniladi. Ular qaralayotgan bosh yig'indi birliklarining tanlama yig'indiga kelib tushishi teng ehtimolligi prinsipiga asoslanadi va bosh yig'indi tuzilmasini aniqlashga yo'naltirilgan.

Bosh yig'indining tuzilmasi va tadqiq etilayotgan tavsiflari ma'lum bo'lgan hollarda tanlashning yo'naltirilgan shakllaridan foydalaniladi.

**Rayonlashtirilgan tanlash** (kalitlarni o'rganish) ko'rib chiqilayotgan ko'rsatkichlarni guruhlar bo'yicha taqqoslashni nazarda tutadi. Bu bosh yig'indida ko'rib chiqilayotgan belgilari bo'yicha turlicha bo'lgan guruhlarini ularni tuzish maqsadida dastlabki ajratilishini talab etadi. Bu holda umumiy o'rtacha ko'rsatkichlar o'rniga bir jinsli yig'indilarga taalluqli bo'lgan o'rtacha guruhliy yig'indilar aniqlanadi. Bunda ko'rib chiqilayotgan guruhlarining sonli nisbati bosh yig'indiga nisbatan atayin buzib ko'rsatiladi. Misol tariqasida turli demografik tuzilmaga ega oilalarning turar-joyga ehtiyojlarini tadqiq qilish xizmat qilishi mumkin. Bunday tadqiqotdan bosh maqsad – har bir turdagi oilalarning ehtiyojlari xususiyatlarini aniqlash va ularni taqqoslashdir. Shuning uchun tanlash (saralash) prinsipi har bir turdagi oilalarning teng tanlanma yig'indilaridan (kattaligi bo'yicha) iborat, bu bosh yig'indidagi oilalarning tuzilmasiga atayin mos kelmaydi.

**Tipik tanlash** (saralash) tanlashdagi guruhlar nisbatining bosh yig'indidagi ularning haqiqiy nisbatiga mos kelish prinsipi bo'yicha amalga oshiriladi.

Bunday turdagi tanlash ko‘rilayotgan hodisaning umumiy va o‘rtacha tavsiflarini aniqlashda zarurdir. Jumladan, hududdagi shaharlar aholisining kasbiy tuzilmasini o‘rganish tadqiq etilayotgan guruhga turi va kattaligi bo‘yicha har xil bo‘lgan shaharlar, ular aholining shahardagi xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirishdagi ehtiyojlari tadqiqotiga taqsimlangan nisbatda tushishlarini talab etadi: aholining barcha ijtimoiy guruhlari vakillarini bosh yig‘indi – shahar aholisiga mos keluvchi nisbatlarda qarab chiqish zarur.

O‘tkazish shakliga ko‘ra bir bosqichli va ko‘p bosqichli tanlashlar farqlanadi. Ko‘p bosqichli tanlashlar yuqorida aytib o‘tilgan metodlarning birikmalaridan foydalanishi mumkin.

#### 4.6 Sotsiologik axborotni taqdim etish

**Sotsiologik axborot** turli xil shaklda taqdim etilishi mumkin: verbal (og‘zaki), sonli, grafik. Statistik axborotni taqdim etishning eng ko‘p tarqalgan shakli – jadvallardir. Uning afzalligi ixchamligida va axborotga boyligidadir. Jadvalda berilgan tadqiq etilayotgan yig‘indini “ega”, uning son shaklida ifodalanadigan tavsiflarini “kesish” deyiladi. Bir qator taqsimlanishiga asoslangan oddiy jadvallar ikki va undan ortiq belgilar bo‘yicha tuzilgan kombinatsion jadvallar farq qilinadi. Birinchi turdagi jadvalga misol tariqasida 3 – jadval xizmat qiladi.

Ikkinchi turdagi jadvalga 4 – jadval misol bo‘ladi. Axborotni uzatishning ko‘rsatmali usuli grafiklar hisoblanadi. **Grafiklar** uzluksiz qatorlarni aks ettiruvchi gistogrammalar; diskrit qatorlarni aks ettiruvchi poligon (yuza, maydon) shakliga ega.

#### 1920 – 2000 yillarda shahar aholisi ulushi tavsifi (% da)

3 – jadval

| Hududlar       | 1920 | 1930 | 1940 | 1950 | 1960 | 1970 | 1980 | Prognoz |      |
|----------------|------|------|------|------|------|------|------|---------|------|
|                |      |      |      |      |      |      |      | 1990    | 2000 |
| <b>Jaxon</b>   | 19   | 22   | 25   | 28   | 33   | 37   | 41   | 46      | 51   |
| <b>Yevropa</b> | 46   | 49   | 56   | 53   | 58   | 63   | 68   | 73      | 77   |
| <b>Amerika</b> | 22   | 28   | 31   | 40   | 48   | 56   | 63   | 70      | 76   |
| <b>Afrika</b>  | 7    | 9    | 4    | 14   | 17   | 22   | 27   | 33      | 39   |

**Aholining shaharlarda va qishloq turar-joylarida vaqt sarfi**  
(oʻrtacha 1 kishi kunga, soat)

4 – jadval

| Vaqt sarfi                                                           | Viloyat shaharlari |      | Boshqa shaharlar |      | Qishloq joylar |      |
|----------------------------------------------------------------------|--------------------|------|------------------|------|----------------|------|
|                                                                      | Erkak              | Ayol | Erkak            | Ayol | Erkak          | Ayol |
| <b>Ijtimoiy ishlab chiqarishdagi mehnat va u bilan bogʻliq vaqt</b>  | 8.45               | 8.4  | 8.6              | 8    | 9.98           | 7.48 |
| <b>Oʻziga xizmat koʻrsatish</b>                                      | 4.73               | 5.47 | 4.83             | 6.22 | 4.35           | 7.77 |
| <b>Jamoat xizmatlari</b>                                             | 2.2                | 1.93 | 1.73             | 1.67 | 0.82           | 0.58 |
| <b>Xizmat koʻrsatish soxasiga bogʻliq boʻlmagan faoliyat turlari</b> | 8.6                | 8.15 | 8.77             | 8.03 | 8.55           | 7.93 |
| <b>Taqsimlangan vaqt</b>                                             | 0.02               | 0.05 | 0.07             | 0.08 | 0.3            | 0.24 |

Grafiklar oʻzgaruvchilarning dinamikasini koʻrsatadi, turli obyektlar yoki koʻrsatkichlarni birga qoʻshib (qoʻshilgan grafiklar) ularni taqqoslashga imkon beradi. Odatda foydalaniladigan ikki oʻlchovli grafiklar qatori, ayrim hollarda uch oʻlchovchi va koʻp oʻlchovli grafiklar tuziladi. Uch oʻlchovli grafikka misol tariqasida sanoatda, qishloq xoʻjaligida va xizmat koʻrsatish sohasida band aholining uchburchakli taqsimlash diagrammasi xizmat qiladi. Koʻp oʻlchovli (yulduzli) diagramma sanoat ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida band boʻlganlar sonini qoʻyishga imkon beradi.

**Kartogrammalar** koʻrib chiqilayotgan belgi boʻyicha hududni zonalashtirishni ifodalaydi. Kartogrammalar tasvirlanayotgan belgilarga: aholi zichligi, yerdan foydalanish xususiyati va boshqalarga javob beruvchi shartli belgilashlardan foydalanadi. Chegaralar belgining almashish real chegaralariga javob beradi. Ular tipologik taqsimotni yoki belgi jadalligi tavsifini aks ettirishi mumkin. Misollar – turar-joy yoki sanoat rayoni, shahar, mintaqa hududini funksional zonalashning rejalashtiriluvchi sxemalari.

Tasvirlash uchun koʻp rangli qartalardan yoki turli belgilarni uzatish uchun shartli grafik belgilardan foydalaniladi. Ijtimoiy tavsiflarning miqdoriy farqlarini tasvirlashda ikki oʻlchovlidan tashqari uch oʻlchovli tasvirlardan foydalaniladi,

masalan, shahar aholisi zichliklari, funksional zichliklar va boshqalarning tasvirlari. Shunday qilib, axborotni jadval va grafik ko'rinishda taqdim etish uni yanada ko'rsatmali qiladi va unga ishlov berish bo'yicha ayrim qo'shimcha muolajalarni amalga oshirishga imkon beradi. Bunday operatsiyalar qatoriga quyidagilar kiradi: o'rtacha kattaliklarni aniqlash, korreksiyalar (belgilarni taqqoslash), elementlar balansini va boshqa statistik kattaliklarni aniqlash. Statistik axborotni taqdim etish kabi bu bosqich hodisalarning chuqur tavsiflashga kiradi.

## **V BOB. ARXITEKTURA – SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARDA ILMIY IZOH VA OLDINDAN KO‘RA BILISH**

---

### **5.1 Sotsiologik tadqiqotda tahlil**

Tadqiqotning tavsiflangan bosqichlari – axborotni to‘plash va ilmiy tavsifi (tasnifi) – arxitektura sotsiologik tahlil, prognoz (oldindan aytib berish) va qaror qabul qilishning empirik bazasini tashkil etadi. Tahlil ijtimoiy va moddiy fazoviy tavsiflarning o‘zaro bog‘liqligini izohlash va shu asosda arxitektura shahar qurilishi yo‘nalishlarini istiqbollarini oldindan ko‘ra bilish va aniq amaliy qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Shuning uchun ilmiy izoh deb shunday tadqiqot tadbiriga aytiladiki, uning natijasida ularni yanada keng obyektlar doirasiga tarqatishiga, prognozlashda, loyihalashda, normalashda foydalanishga imkon beradigan hodisalar orasidagi barqaror bog‘lanishlarni aniqlash mumkin. Yana bir marta ta’kidlash muhimki, tadbiriy tadqiqotlarning maqsadi va piravord natijasi turli darajadagi arxitektura - shahar qurilishi obyektlarining fazoviy tavsiflaridir. Shuning uchun arxitekturada tahlil va izohlashning oxirgi, natijalovchi modellar doimo ijtimoiy hodisalarning xossalarini fazoviy muhitning tavsiflari bilan taqqoslashni o‘z ichiga oladi.

Statistik tavsifning birinchi bosqichi ko‘rib chiqilayotgan ijtimoiy yig‘indida belgilarning to‘g‘ri taqsimlanganini aniqlashni o‘z ichiga oladi (masalan, aholining tuzilmasini ma’lumoti darajasiga qarab aniqlash). Bunday tasnif o‘z o‘zidan prognozni ishlab chiqishiga imkon bermaydi, u faqat hodisani tavsiflaydi. Tasnif qatorlarini taqqoslash, shuningdek ko‘rsatkichlarning vaqt bo‘yicha va makondagi nisbati amaliy arxitektura - sotsiologik tadqiqotlarda foydalaniladigan statistik tahlilning uchta shaklini shakllantiradi.

Axborotga statistik ishlov berishning keng foydalaniladigan vositasi taqsimlash qatorlarini taqqoslashga xizmat qiladi. U korrelatsiya (o‘zaro bog‘liqlik) koeffitsiyenlarini hisoblash yordamida amalga oshiriladi. Korrelatsiya – statistik (ehtimoliy) bog‘lanish, belgilarning o‘zaro aloqasi. Funktsional bog‘lanishdan farqli ravishda u bir qator tasodifiy omillarning mavjudligi bilan tavsiflanadi va shuning uchun ham faqat statistika metodlari bilan qamrab qolinadi.

**Fazoviy (torfometrik) tahlil** – ijtimoiy va fazoviy tavsiflarni taqqoslash avval aytib o‘tilganidek, amaliy arxitektura sotsiologik tadqiqotlarning zarur tashkil etuvchisi bo‘lib xizmat qiladi. U shahar qurilishi obyektlariga ham, binolar va majmualarga ham tegishlidir. Shahar qurilishida geografiyaning ko‘pchilik modellaridan foydalaniladi. Kartalash asosan, bunday tahlilning birlamchi shaklidir. Uning tahliliy (analitik) qismi ijtimoiy belgilarni hudud bo‘ylab taqsimlashdagi farqlarni taqqoslashdan iborat. Bunday taqqoslash masalalarni aniqlangan qonuniyatlarni asosida prognozlash yoki yechish uchun asos beradi. Masalan, shahar – markazgacha bo‘lgan masofaga bog‘liq holda aholining va qishloqlarning zichligini taqsimlash qonuniyatlarini bilgan holda aglomeratsiyani joylashtirishning rivojlanish dinamikasini bashorat qilish mumkin.

Bino va majmualarga nisbatan qo‘llanilganda fazoviy tahlil aholining turlicha yoshdagi guruhlari tomonidan tashqi turar-joy muhitini foydalanishdagi milliy va hududiy xususiyatlarni aniqlashga mo‘ljallangan.

**Tarixiy–genetik tahlil** - katta vaqt oralig‘iga taalluqli taqqoslashlarni ifoda etadi. U ko‘rsatkichlarning oddiy qatoriga taalluqli, masalan, shahar aholisi sonining yillar bo‘yicha ortishi yoki oilalar tuzilmasining va sonining vaqt o‘tish bilan o‘zgarishi. Boshqa holatlarda vaqt qatori fazoviy xususiyatga ega murakkab nisbatlarining dinamikasini ifodalashi mumkin (masalan, shahar aholisini mehnat qilish joylariga nisbatan joylashtirish dinamikasini). Taqsimlashning vaqt qatorlari hodisalarni ekstrapolyatsiya qilish uchun asos beradi.

Shahar va qishloq nisbati, joylashtirishning aglomeratsion shakllarini rivojlantirish, turar-joy bilan ta‘minlanganlik normalarining o‘sish dinamikasi va boshq. prognozlari ana shundaydir. Uzoq muddatli umumdavlat rejalashtirishi sharoitida vaqtinchalik prognozlarning ahamiyati kattadir.

**Tarixiy evolyutsion tahlil** bilan bir qatorda hodisaning uning kelib chiqishi bilan o‘zaro aloqasini ifodalovchi izohlarning genetik modelidan foylaniladi. Masalan, tarixan qaror topgan shahar qurilishi shakllanishining genetik tahlili yerga egalik qilish xususiyatiga bog‘liq holda, unda ijtimoiy funksiyalar almashganda fazoni o‘zlashtirishning avvalgi shakllarining izchilligini aniqlash ham mumkin.

Vaqtinchalik tushuntirish (izoh) rivojlanish omillarining o‘zgarishi xususiyati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Xususan, qishloqlarning shakllanishi va rivojlanishida quyidagi omillar ketma – ket amal qiladi: qishloq xo‘jaligining rivojlanishi; mustahkamliklarni yaratish sharoitlari; temir yo‘llar qurilishi; shaharlarning qaror topgan tarmog‘i; tabiatni muhofaza qilish masalalari.

Tarixiy tahlil (evolyutsion va ginetik) u yoki bu jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni aniqlashga ayrim hollarda u yoki bu omillarning ustun keluvchi ahamiyatini ko'rsatishiga imkon beradi.

**Sababiy oqibatli tahlil** – arxitektura sotsiologik tadqiqotlarning muhim tashkil etuvchisidir. Uning foydali ekanligi shunday iboratki, kuzatilayotgan jarayonlarning sababi va oqibatlarini bilish asosidagina ko'rib chiqilayotgan hodisalarning rivojlanish istiqbollari aniq belgilash va oqilona qaror qabul qilish mumkin. Sababli oqibatli bog'lanish anglab yetiladigan qonuniyat sifatida arxitektura va shahar qurilishi funksionalizmining butun metodologiyasi asosida yotadi. Ehtimoliy va sababiy – oqibatli tahlil ijtimoiy va fazoviy kategoriyalarning o'zaro aloqasini tadqiq qilishiga ikki asosiy mazmunli yondashuvni tashkil etadi. Ular qarama – qarshi kamchiliklarga ega bo'lgani holda bir birini to'ldiradi. Birinchisi – olinadigan natijalarning noaniqligida va qaror topgan stereotiplarga ortiqcha qaratilganlikda. Ikkinchisi – qarorlar qabul qilish va prognozlash bazasining subyektivligida va muqarrar torayishida.

**Funksional tahlil** (funktionalizm) sotsiologiyada butun tadqiqot bilan uning tarkibiy qismlari orasidagi funksional bog'lanishlarini ko'rib chiqishga, ijtimoiy tuzilmalar va hodisalarni qayta tiklash mexanizmini aniqlashga asoslangan. Masalan, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari, kommunikatsiyalar tizimlari bu holda ijtimoiy tizim shaharning faoliyat yurutuvchi elementlari sifatida qarab chiqiladi. Funksional tahlil ko'rib chiqilayotgan faoliyat yuritishi (hulqi) tizimning butunicha yashash qobiliyatini saqlab qolishga qanday ta'sir etishini ko'rsatadi. Masalan, faqat xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining ma'lum bir parametrlarida shahar ijtimoiy yashash qobiliyatiga ega organizm bo'lib qoladi.


## **5.2 Ijtimoiy – arxitekturaviy oldindan ko'ra bilish va loyihalash**

Amaliy sotsiologik tadqiqotlar kelajakni oldindan ko'rishga va arxitektura hamda shahar qurilishi sohasida qarorlar qabul qilishga yo'naltirilgan. Shuning uchun xususan ijtimoiy va iqtisodiy prognozlash va rejalashtirish (masalan, shaharning halq xo'jaligi majmui yoki aholining maishiy ehtiyojlari tuzilmasi rivojini rejalashtirish) arxitektura – shahar qurilishi prognozlari va qarorlar qabul qilish uchun dastlabki asosni tashkil etadi. Ijtimoiy ehtiyojlar bilan bir qatorda (odatda, loyihalashning maqsadga yo'gnaltirilgan asosini tashkil etuvchi)

arxitektura dasturi, loyiha va normativlar qaror qabul qilishning texnik iqtisodiy, sanitariya-gigiyenik, ekologik, konstruktiv va boshqa sharoitlariga tayanadi. Shuning uchun ijtimoiy - arxitektura bashorat qilish va qaror qabul qilish to'g'risida gapirganda biz qaralayotgan sohani kengaytiramiz, bunda biz birqator holatlarda bu arxitektura - sotsiologik tadqiqotlarning yakuniy bosqichlarining metodik prinsiplarini ko'rsatish uchun zarur asoslashlarning butun majmuani tushunasiz.

Oldindan ko'ra bilish - kelajak to'g'risida asoslangan tahmindir; u prognoz, loyiha, reja, dastur shakliga ega bo'lish mumkin.

Prognoz (bashorat) deb nisbatan yuqori darajadagi haqqoniylik bilan kelajak to'g'risidagi mulohazaga aytiladi. Prognozlar rejalashtirish sohasi bilan bevosita bog'langan. Hal etiladigan masalalar xarakteri va metodik prinsiplariga ko'ra rejalashtirishning va mos ravishda prognozlashning ikki darajasi farq qilinadi: strategik va operativ (taktik). Yuqori darajada prognoz qilish va rejalashtirish jamiyat ehtiyojlarining atrof muhitini shakllantirishdagi ehtiyojlari asosi sifatida istiqbolli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqishga, shuningdek qishloqlarni joylashtirish, shakllantirish, bino va inshootlar turlari shahar qurilishi konsepsiyalarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan.



Variantli loyihalashning asoslangan texnologik sxemasi  
(A.Kachetkov, V. Vayser bo'yicha).

Tezkor ijtimoiy rejalashtirish aniq arxitektura – shahar qurilishini loyihalash dasturlarini ishlab chiqish bilan bevosita bog‘langan. Strategik prognoz maqsad, normalar, uzoq muddatli dasturlarni ishlab chiqishga mo‘ljallangan va ijtimoiy rivojlantirishning barcha jihatlarini (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, texnik va boshq.) uzoq kelajakka integratsiyalash asosida ishlab chiqiladi.

Arxitektura-shahar qurilishini loyihalash - qaror qabul bilan bog‘liq oldindan ko‘ra bilishning alohida turidir. Loyihalashda ijodiy, evrestik, shu jumladan badiiy ijodiy yondashuvlar katta ahamiyatga ega.

Arxitekturada prognozlash, rejalash va loyihalashning izchil asoslangan metodik masalalarini ularda ijtimoiy bilimlardan foydalanish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqamiz. Prognozlash metodlarini aniqlashda markaziy masala prognozlarning haqqoniyligi hisoblanadi. Bu masala bilishning mumkin bo‘lgan yo‘llarini aniqlash bilan bog‘liq. Shu nuqtai nazardan prognoz qilishga yondashishning uch turi farqlanadi: obyektiv, subyektiv va tizimli.

**Obyektiv (tahliliy) yondashuv** faktlarni ilmiy tahlil qilishga asoslanadi va baholashning berilgan maqsadlari va mezonlari sharoitida, ya’ni tezkor rejalashtirishda ko‘proq qo‘llaniladi. **Subyektiv** (intuitiv) yondashuv erkin tasavvur qilishning katta ahamiyatga ega bo‘lishini nazarda tutadi va rejalashtirish normativlari hamda tizimning umumiy hulqi to‘g‘risida tasavvurlar bo‘lmaganda qo‘llaniladi. **Tizimli** yondashuv ko‘rib chiqilayotgan tizimning tuzilmasi va hulqi to‘g‘risidagi tasavvurlarga asoslanadi va shu asosda - tizim holatini prognozlash va rejalashtirish asosida ma’lum chegaralarda uncha maqsadga yo‘naltirilgan ta’sir ko‘rsatish mumkinligiga tayanadi. U prognozlashning obyektiv va intuitiv metodlarini birga qo‘shib olib boradi.

Prognozlar ko‘rilayotgan obyektning ehtimoliy yoki istakdagi rivojlanishini baholashga mo‘ljallanishi mumkin. Birinchi holda - gap **izlanuvchanlik prognozi** to‘g‘risida boradi, u ko‘rilayotgan obyektning imkoniyatlarini va uning rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashga asoslangan. Ikkinchi holda – jamoatchilik ehtiyojlarini va maqsadlarini ifodalovchi **normativ prognozlash** to‘g‘risida gap boradi. Rejalashtirishda teskari aloqani hisobga olgan holda taqqoslanadigan aytib o‘tilgan prognozlarning turlaridan foydalaniladi.

Ihtiro jarayon va ya’ni axborot sifatida yangilik, foydali ekanligi belgilari bilan (mazkur holda arxitektura yechimining ijtimoiy – funksional talablarga muvofiqligi bilan belgilanadigan) va masala yechimining soddaligi (ixchamligi) bilan tavsiflanadi. Arxitektura va shahar qurilishidagi bu ohirgi sifat, odatda, texnik

iqtisodiy samaradorlik bilan ham bog‘liq. Bu sifatlarning barchasiga erishish kasbiy ahamiyatlarning qo‘shilishi bilan, xususan, tahlil qilish va prognozlash metodlarini bilishni ijodiy faollik bilan qo‘shib olib borish bilan ta’minlanadi. Shuning uchun yuqorida ko‘rib chiqilgan metodik masalalarga qo‘shimcha ravishda ixtirochilik, ijodiy faollikni rivojlantirish metodlariga qisqacha to‘xtalib o‘tish zarur. Bunday metodlar qatoriga quyidagilar kiradi:

**Inversiya metodi** – odatdagi stereotip qarorlardan voz kechish (masalan, maktab sinflarida o‘qituvchi o‘rnini o‘quvchilar oldida emas, balki ular orasida o‘rnatishni nazarda tutadigan; yoki maktab rekreatsiyalarini sinflar bo‘ylab emas, balki ular orasida joylashtirishni nazarda tutadigan qaror);

**Analogiya (o‘xshashlik) metodi** – g‘oyani shakllantirish uchun boshqa sohalardagi misollardan foydalanish (arxitekturada ko‘pchilik bionik yoki texnik obrazlar hamda tuzilmalar shu metodga asoslangan);

**Paradoks metodi** – odatdan tashqari vaziyatda eksperimental loyihalash (masalan, vaznsizlik sharoitlari uchun loyihalash yoki tabiiy landshaft ustida qishloqni shakllantirish);

**Fantaziya** – g‘oyani maksimal to‘liq ifodalash uchun real sharoitlardan diqqatni boshqa narsaga qaratish mumkin bo‘lgan kombinatsiyalarni muntazam ravishda ortiqcha bajarish (masalan, xizmat ko‘rsatish markazlari nomenklaturasi variantlarini ishlab chiqishda);

Boshqacha shaklda **ifodalash metodi** – iste’molchi bilan aynanlashtirish, loyihalayotgan vaziyatni hissiy amalga oshirish, **miya hujumi metodi** - prognozlashning keng, strategik masalalarini hal qilish uchun ham foydalaniladi (loyihalashda bu metoddan foydalanishga konkurs loyihalari, klauzuralar misol bo‘ladi). Aytib o‘tilgan metodlar ijodiy inersiyani, fikrlashdagi stereotiplikni yengishga xizmat qiladi. Uning umumiy ma’nosi umumiy g‘oyani va loyiha yechimlarining variantlarini ishlab chiqish jarayonida loyihalashning ijodiy faolligini oshirishdan iborat.

## **Takrorlash uchun boblar bo'yicha savollar**

---

### **Birinchi bob bo'yicha takrorlash uchun savollar:**

1. Ijtimoiy jarayon va tuzilmalar to'g'risida nimalar bilasiz?
2. Turar-joy yacheykasi to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Turar-joy fondi deganda nimani tushunasiz?
4. Turar-joy xonadonlari tipologiyasi nimani bildiradi?
5. Qishloq va shahar turmush tarzi to'g'risida nimani bilasiz?
6. Oilaning turmush tarzini tushuntiring.
7. Yakka tartibdagi uylarning ahamiyati qanday?
8. Zich joylashgan kam qavatli turar-joy guruhi qanday shakllantiriladi?
9. Turar-joy yacheykalarni shakllantirish qanday omillar ta'sir etadi?
10. Ijtimoiy guruhlar bo'yicha nimalarni bilasiz?
11. Ijtimoiy institutlar nimalarni bilasiz?
12. Ijtimoiy faoliyat to'g'risida nimalarni bilasiz?
13. Turar-joy iste'molchilari to'g'risida nimalarni bilasiz?
14. Oilaning ijtimoiy funksiyasi to'g'risida nimalarni bilasiz?
15. Oilaning madaniyat to'g'risida nimalarni bilasiz?
16. Oilaning biodemografik funksiyalari to'g'risida nimalarni bilasiz?
17. Turar-joy yacheykasi muhiti tipologiyasi to'g'risida nimalarni bilasiz?
18. Oilaning biodemografik funksiyasi va turmush tarzi nimani bildiradi?
19. Ommaviy qurilgan turar-joy loyihalashning ijtimoiy asoslari to'g'risida nimalarni bilasiz?
20. Turar-joy uylari tipologiyasi to'g'risida nimalarni bilasiz?
21. Birinchi kollektivni shakllantirish to'g'risida nimalarni bilasiz?
22. Zich joylashgan turar-joy uylariga xizmat ko'rsatish obyektlarini qo'shishda qanday muammolar yuz berishi mumkin?

### **Ikkinchi bob bo'yicha takrorlash uchun savollar:**

1. Jamoat xizmat ko'rsatish obyektlarni loyihalashning ijtimoiy tomonlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Iste'molchilar xizmati to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Xizmat ko'rsatish obyektlari klassifikatsiyasiga qaysi binolar kiradi?

4. Xizmat ko'rsatish obyektlariga ijtimoiy ratsional talablarini aytib bering.
5. Xizmat ko'rsatish obyektlarni klassifikatsiyalashda nimaga asoslanadi?
6. Iste'molchi va xizmatni ishlab chiqaruvchi o'rtasidagi o'zaro harakatlar to'g'risida nimalarni bilasiz?
7. Harakatlanuvchi to'plam qayerda vujudga keladi?
8. Shaxsiy iste'molchilar talabi haqida nimalarni bilasiz?
9. Xizmat ko'rsatish obyektlari joylashuvi (chastotasi) to'g'risida nimalarni bilasiz?
10. Har kuni foydalanadigan xizmat ko'rsatish obyektlari qancha masofada joylashishi kerak?
11. Goh - gohida foydalanadigan xizmat ko'rsatish obyektlariga nimalar kiradi?
12. Xizmat ko'rsatish obyektlari klassifikatsiyasidagi jamoatga xizmat ko'rsatayotgan binolariga qaysi binolar kirmaydi?

### **Uchinchi bob bo'yicha takrorlash uchun savollar:**

1. Ishlab chiqarish binolarni arxitekturaviy loyihalashning ijtimoiy tomonlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Ishlab binolarni qanday zonalashtiriladi?
3. Ishlab chiqarish binolari tipologiyasi to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. Ishlab chiqarish binolaridagi ish joyiga qanday talablar qo'yiladi?
5. Ishlab chiqarish binolarini fazoviy tashkil etilishiga tarmoq tuzilmalari (Xalq xojaligi) ta'siri to'g'risida nimani bilasiz?
6. Ishlab chiqarishni rivojlantirishda belgilovchi ro'lni nima belgilaydi?
7. Ishlab chiqarish binolarini loyihalashda texnologik sxemalar to'g'risida nimani bilasiz?

### **To'rtinchi bob bo'yicha takrorlash uchun savollar:**

1. Arxitekturaviy - sotsiologik izlanishlar dasturi to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Arxitekturaviy - sotsiologik izlanishda emperik tadqiqot qanday muammoni hal qiladi?
3. Analitik izlanish mohiyati to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. Pilotaj (rozetkali) tadqiqot ahamiyati to'g'risida nimalarni bilasiz?

5. Emperik va analitik tadqiqot o'rtasida qanday farq bor?
6. Eksperimental izlanishda texnik vositalari qayday maqsadda foydalaniladi?
7. Sizning ilmiy tadqiqot ishingizda qaysi tadqiqotdan foydalanasiz?
8. Pilotaj (rozetkali) tadqiqot izlanishi qaysi vaqtda va nima uchun qo'llaniladi?
9. Tavsifli tadqiqot to'g'risida nimani bilasiz?
10. Amaliy arxitektura – sotsiologik tadqiqotlarga kiruvchi asosiy bosqichlar to'g'risida nimalarni bilasiz?

## GLOSSARIY

---

**Korrelatsiya** – Predmetlarning o‘zaro bog‘liqligi, o‘zaro munosabati tushuncha yoki xodisa.

Ikki predmet (fan) orasidagi o‘zaro bog‘liqlik yoki qator(turli) ilmiy fanlar orasidagi bog‘liqlikning paydo bo‘lishi Sinonim: nisbat, o‘zaro nisbati, o‘zaro bog‘liqlik.

**Antropogonez** – 1) Insonning tabiat ishtirokchisi sifati da rivojlanish davri.

Antropologiya bo‘limi, insonning paydo bo‘lishi va rivojlanishini o‘rganadigan fan.

**Nuklear oila** – Ota-onalar qaramog‘ida yashaydigan er-xotinlar va ularning bolalari.

**Avanzal** - Asosiy zal oldidagi (zalga kiraverishdagi) yo‘lak yoki daxliz.

**Rekratsiya** – 1) Insonning mehnat faoliyati davrida sarflangan (yo‘qotgan) kuchini tiklash, dam olish va sog‘lomlashtirish.

2) Maktab binosidagi dam olish xonasi.

**6. Antropometriya** - Inson tanasi va uning bo‘laklari o‘lchovidan iborat antropologik tekshirish, izlanish usullari majmui,jamlamasi.

**Agglomeratsiya** – Shaharlarni va aholi yashash punktlarini Bir butun intensiv ishlab chiqarish, mehnat va madaniy – maishiy va rekreatsion aloqalari bilan ko‘chishi; konurbatsiya (demografiyada).

**Ekstrapolyatsiya** – keng tarqalgan xulosa (natija) Ilmiy tekshirish usuli, Ekstrapolyatsiya degani - biror xodisani oldingi rivojlanishi va shu rivojlanish ma’lum bir yenalishda ketishi aniklangan bolib, shu rivojlanish yo‘nalishiga tayangan xolda uni kelajakdagi rivojlanishini kursatuvchi usuldir.

**Yacheyka** – yashash muhiti.

**Turar-joy fondi** – biror bir hudud bo‘yicha turar-joy yacheykalar yuzalarining yig‘indisi.

**Turar-joy yacheykasi** – bir qancha yashash muhiti turlarini o‘z ichiga oladi: kvartiradagi, turar-joydagi, mehmonxonadagi, internetdagi va hokazo

**Sotsiologiya** – jamiyat va uning taraqqiyoti haqidagi fan.

**Arxitekturaviy dinamika** - me’moriy xajm o‘lchamlari doirasida massa va ichki fazoviy muxitning keskin o‘sib borishi va xajmning biron-bir yo‘nalish bo‘yicha kompozitsion rivojlanishini, vizual jo‘shqinlik va xarakatchanlikni ta’minlovchi me’moriy yechim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

---

1. Karimov I.A. Tarixi boy, bugungi go‘zal, kelajagi buyuk shahar. – Toshkent “O‘zbekiston”, 2009.- 40 b.
2. Tursunov H.K. Mirzayev M.K. Arxitekturaning ijtimoiy asoslari; o‘quv qo‘llanma, T.: 2002.
3. Лини К. Совершенная форма в градостроительстве. – М.: 1986.
4. Яргина З.Н., Хачатрянц К.К. Социальные основы архитектурного проектирования: Учеб. для Вузов. – М., Стройиздат, 1990.-343 стр.
5. Хачатрянц К.К. Основы социальной типологии жилища. –Минск, 1983.
6. Ubaydullayev X.M., Inog‘omova M.N. Turar-joy va jamovt binolarining tipologik asoslari. Darslik. T. 2009.
7. Вилковский М. Социология архитектуры. М. Фонд русский авангард. 2010.
8. Рональд Смит и Валери Бани, 2002. «Искусственно созданное материальное окружение по отношению к людям, символам и социальной действительности: предложение по изменению архитектурного подхода»/ Человечество и общество 26, 4. – Стр. 293–31.
9. Bugni Valerie and Smith Ronald W., 2002, b. «Architectural Sociology Resources»/Connections, American Institute of Architects Las Vegas Forum Newsletter (Валери Бани и Рональд В. Смит, 2002. «Источники социологии архитектуры». Взаимосвязи/Информационный бюллетень конференции Американского Института архитектуры в Лас-Вегасе).
10. Abel Chris, 2000. Architecture as Identity in Architecture: Responses to Cultural and Technological Change. – Oxford, England: Architectural Press (*Крис Абель*, 2000. «Архитектура как самостоятельная сущность» в «Архитектура: отображение культурных и технологических перемен». – Оксфорд, Англия: Аркитектурал Пресс).

## M U N D A R I J A

|                 |                                                                                                             |    |
|-----------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
|                 | Soʻz boshi .....                                                                                            | 3  |
|                 | Kirish.....                                                                                                 | 4  |
|                 | Arxitekturaviy loyihalashning ijtimoiy asoslari<br>toʻgʻrisida umumiy maʼlumotlar.....                      | 8  |
|                 | Ijtimoiy jarayonlar.....                                                                                    | 10 |
| <b>I bob.</b>   | Turar-joy binolarini arxitekturaviy loyihalashning ijtimoiy<br>asosi.....                                   | 14 |
|                 | 1.1 Umumiy holat.....                                                                                       | 14 |
|                 | 1.2 Turar-joy isteʼmolchilarining xususiyatlariga bogʻliq<br>boʻlgan turar-joy yacheykalariga talablar..... | 19 |
|                 | 1.3 Turar-joy yacheykalarining ijtimoiy tipologiyasi.....                                                   | 25 |
|                 | 1.4 Hayot tarzi xususiyatlariga bogʻliq boʻlgan turar-joy<br>yacheykalariga talablar.....                   | 28 |
|                 | 1.5 Qishloq va shahar turmush tarzi.....                                                                    | 33 |
|                 | 1.6 Turar-joy yacheykasining fazoviy elementlari tipologiyasi...                                            | 35 |
|                 | 1.7 Oilaning hayot yoʻli va turar-joy yacheykasiga ijtimoiy –<br>funksional talablar.....                   | 44 |
|                 | 1.8 Ommaviy quriladigan turar-joy uylarini loyihalashtirishning<br>ijtimoiy asoslari.....                   | 47 |
| <b>II bob.</b>  | Jamoat xizmat koʻrsatish obyektlarini arxitekturaviy<br>loyihalashning ijtimoiy asoslari.....               | 52 |
|                 | 2.1 Umumiy holat.....                                                                                       | 52 |
|                 | 2.2 Xizmat koʻrsatish sohasida isteʼmolchilar guruhlarini<br>tavsiflarini hisobga olish.....                | 58 |
|                 | 2.3 Jamoat xizmat koʻrsatish obyektlariga ijtimoiy – funksional<br>talablar.....                            | 66 |
| <b>III bob.</b> | Ishlab chiqarish binolarini arxitekturaviy loyihalashning<br>ijtimoiy asoslari.....                         | 72 |
|                 | 3.1 Umumiy holat.....                                                                                       | 72 |
|                 | 3.2 Sanoat binolarining arxitekturaviy fazoviy yechimlari.....                                              | 74 |

|                |                                                                                     |     |
|----------------|-------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>IV bob.</b> | Sotsiologik tadqiqotlarning tuzilishi va dasturi.....                               | 79  |
|                | 4.1 Sotsiologik tadqiqotlarturlari.....                                             | 79  |
|                | 4.2 Sotsiologiyada analitik tadqiqot.....                                           | 82  |
|                | 4.3 Sotsiologik tadqiqot dasturi.....                                               | 84  |
|                | 4.4 Material yig‘ish (to‘plash).....                                                | 86  |
|                | 4.5 Tahlil qilinayotgan materialni saralash (tanlab olish).....                     | 93  |
|                | 4.6 Sotsiologik axborotni taqdim etish.....                                         | 95  |
| <b>V bob.</b>  | Arxitektura – sotsiologik tadqiqotlarda ilmiy izoh va<br>oldindan ko‘ra bilish..... | 98  |
|                | 5.1 Sotsiologik tadqiqotda tahlil.....                                              | 98  |
|                | 5.2 Ijtimoiy – arxitekturaviy oldindan ko‘ra bilish va<br>loyihalash.....           | 100 |
|                | Takrorlash uchun boblar bo‘yicha savollar.....                                      | 104 |
|                | Glossariy.....                                                                      | 107 |
|                | Foydalanilgan adabiyotlar.....                                                      | 108 |



